

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK:811.512.133:81.38


SAFAROV IBROHIM ISROIL O'G'LI

BADIIY MATNDA DIALEKTIZMLARNING STILISTIK
XUSUSIYATLARI (TOG'AY MUROD ASARLARI MISOLIDA)

70230101-Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik
darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:



F.f.f.d. (PhD) Xolova.M.A

TERMIZ-2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 2-apreldagi №20-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manziling QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (48-raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar:



f.f.f.d. (PhD) Xolova.M

Kafedra mudiri:



f.f.f.d. (PhD) Amonturdiyev N.

Magistratura bo'limi boshlig'i:

f.f.f.d. (PhD) Narbayev A.

**70230101-Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi Safarov Ibrohim Isroil
o‘g‘lining “Badiiy matnda dialektizmlarning stilistik xususiyatlari
(Tog‘ay Murod asarlari misolida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**

ANNOTATSIYASI

Tadqiqot obyektlari: Yozuvchi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanlari, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Momo Yer qo‘shig‘i” qissalari.

Tadqiqot predmeti – Yozuvchi Tog‘ay Murodning qissa va romanlarida mavjud dialektizmlarning barcha lingvistik shakllari.

Ishning maqsadi: dialektizmlarning uslubiy imkoniyatlarini o‘rganishdir. Lingvistik jihatdan dialektizmlarning badiiy asarda tutgan o‘rni va ahamiyatini yoritishdir.

Tadqiqot metodlari: tavsiflash, qiyoslash, tahlil hamda tasniflash metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- Dialektal leksika tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘zdan kechirildi;
- o‘zbek milliy tili va adabiy tilidagi o‘ziga xosliklar, jonli til vakillari nutqining til xususiyatlari o‘rganildi;
- dialektizm va unga yaqin bo‘lgan boshqa hodisalar o‘rganildi;
- asar qahramonlari nutqini o‘rganish barobarida nutqni shakllantiruvchi dialektizmlarning turlari tahlil etildi;
- asar qahramonlari nutqi leksik-semantik birliklarning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etildi;
- badiiy matndagi ibora va maqollar, marosim va urf-odatlarning estetik, emotsional-ekspressiv imkoniyatlarni ta’minlashdagi, shuningdek, o‘zbek tilining ekspressivligini oshirishdagi o‘rni va mavqeyi, asar qahramonlari nutqi misolida ochib berildi;

- barqaror birikmalarning asar qahramonlari nutqida stilistik qo'llanish imkoniga ko'ra o'rni belgilandi.

Amaliy ahamiyati: Badiiy asar qahramonlari nutqi tilimiz tabiatiga doir bir qator yangiliklar qilish, shevaga xos so'zlarning o'ziga xos jihatlari haqida xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Shuningdek, adabiy tilimizning yanada boyishiga, ravnaq topishiga xizmat qiladi.

Tadbiq etish darajasi: Ishda erishilgan ilmiy va amaliy natijalardan asar qahramonlari nutqini akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida o'rganish, seminar-treninglar, ma'ruza va muloqot-suhbat darslarini tashkil qilishda qo'shimcha material sifatida foydalanish mumkin.

Qo'llanilish sohasi: Oliy ta'lim va o'rta ta'lim maktablarida milliy tilga muhabbat ruhida tarbiyalashda, ona tilining qanchalar boy ekanligini ko'rsatishda samarali foydalanish mumkin. Tilshunoslikning stilistika, dialektologiya, leksikologiya, frazeologiya, morfolologiya, fonetika yo'nalishlariga manba bo'la oladi.

**70230101-Linguistics (Uzbek language) specialization Safarov Ibrohim
Isroil o'g'li master's «Stylistical characteristics of dialectisms in literary
text (as an example of the works of Tog'ay Murod)»**

ANNOTATION

Research objects: «Annotated dictionary of the Uzbek language», the novels «Fields left by my father», «You cannot die in this world», «Stars always burn», «Evening with a neighing horse» by Togay Murad. People walking in the moon», stories «Momo Yer koshighi» and other linguistic dictionaries, all types of dialectisms in the works of Togay Murad, the subject of the research.

The purpose of the work: to study the methodological possibilities of dialectics. Linguistically, it is to clarify the role and importance of dialectics in the artistic work.

Research methods: description, comparison and classification methods were used.

The results obtained and their novelty:

- Studies devoted to the study of dialectal lexicon were reviewed;
- peculiarities of the Uzbek national language and literary language, language features of the speech of representatives of the living language were studied;
- dialecticism and other phenomena close to it were studied;
- while studying the speech of the heroes of the work, the types of speech-shaping dialectics were analyzed;
- the specific aspects of the lexical-semantic units of the speech of the heroes of the work were researched;
- the role and position of phrases and proverbs in the artistic text, rituals and traditions in providing aesthetic, emotional-expressive possibilities, as well as in increasing the expressiveness of the Uzbek language, was revealed on the example of the speech of the heroes of the work;
- the place of stable combinations in the speech of the heroes of the work was determined according to the possibility of stylistic use.

Practical significance: the speech of the heroes of the work of art provides an opportunity to make a number of innovations about the nature of our language, to draw conclusions about the specific aspects of dialectal words. It also serves to enrich and develop our literary language.

Application level: Using the scientific and practical results achieved in the work as additional material for studying the speech of the heroes of the work in academic lyceums, vocational colleges and higher educational institutions, organizing seminars-trainings, lectures and communication-conversation classes. possible

Field of application: It can be effectively used in higher education and secondary education schools to educate in the spirit of love for the national language, to show how rich the mother tongue is. It can be a source of stylistics, dialectology, lexicology, phraseology, morphology, phonetics.

MUNDARIJA	
KIRISH	3
I BOB. TIL TIZIMIDA DIALEKTIZMLARNING O‘RGANILISHI	
1.1. O‘zbek tilshunonosligida dialektal leksika tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar sharhi	12
1.2. Dialektal leksikaning adabiy tilga munosabati	28
1.3. Dialektizm va unga yondosh hodisalar	36
I bob yuzasidan xulosalar.....	41
II BOB. BADIY MATNDAGI DIALEKTIZMLARNING TURLARI BO‘YICHA TAHLIL.....	
2.1. Fonetik dialektizmlar	43
2.2. Morfologik dialektizmlar.....	54
2.3. Leksik dialektizmlar.....	64
II bob yuzasidan xulosalar.....	76
III BOB. BADIY MATNDA DIALEKTIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	
3.1. Badiiy matnda dialektal barqaror birikmalarning berilishi.....	78
3.2. Badiiy matnda marosim va urf-odatlar bilan bog‘liq dialektizmlarning berilishi.....	88
III bob yuzasidan xulosalar.....	97
UMUMIY XULOSA.....	99
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	102
ILOVALAR.....	107

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Har bir individ, ya'ni shaxs tashqi olamdan o'zicha ta'sirlanadi-da, uni o'zicha tushunib, idrok etadi, hamda o'zgaga etkazishga intiladi.

Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatilishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Ha, umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutqning bu xilma-xil ko'rinishlari esa **nutq stillari** deb yuritiladi¹.

Stil (uslub) asli grekcha «stilas» so'zidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi qalamdir. Bunday qalam qadim zamonlarda va o'rta asrlarda yozish-chizish quroli bo'lib xizmat qilgan. Insonlar esa o'z fikr-mulohaza shaklini shu qalam vositasida chizganlar.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, u vaqtlarda hozirgiday qalam, qog'oz b'lmagan, balki hozirgidek qog'oz o'rnida-mum surtilgan taxtakachu, qalam (ruchka) o'rnida - ana shu "stil"²ni ishlatganlar. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtakachalarga shu tayoqcha bilan yozganlar. Xato yozilgan so'z yoki gaplarni tayoqchani yassi tomoni bilan o'chirib tuzatganlar. Rimliklar ham, hindlar ham, arablar ham bunday tayoqchalardan o'z maqsadlarini ifodalashda foydalanganlar. Davrlar o'tishi bilan u yoki bu yozuvchining so'z tanlash, gap tuzish usulini stil deb atay boshlaganlar. F. Nasriddinov o'zining "Til, uslub va obraz"³ maqolasida shunday deydi: "Biz tushungan stil mutlaqo boshqa ma'noda, ya'ni yozuvchining o'ziga xos bo'lgan badiiy mahorati bo'lsa ham, lekin u o'sha genetik ma'no bilan qarindoshlik alomatlarini yo'qotgan emas. Chunki biz ham hozir stil deganda u yoki bu yozuvchining yozish yo'li yo'sinini anglaymiz. Faqat farqi shundaki,

¹ Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1983, — B. 9.

² BSEf 41. — B. 3.

³ O'zbek tili stilistikasi masalalari. Ilmiy asarlar to'plami. Toshkent.: Toshkent davlat universiteti, 1975. — B. 44.

bunda yozuvchi yozgan asarlar ko‘zda tutiladi”. Uslub har bir yozuvchining o‘ziga xos bo‘lgan badiiy tasvir usulidir.

Akademik Ya. Gort tili bilan aytsak, uslub bu - tom ma’nodada yozuvchining bayonlash xarakteri, bu — nutqqa munosabat, ya’ni yurganingizda gavgangiz qanday harakat qilsa, xuddi o’shanga xos bir gap, yozishdagi husnixat, aft angoringiz va yuz ifodangizdir; bu har bir yozuvchining individual ko’rinishidir.⁴

Tajriba va kuzatishlarimizdan ma’lumki, bir yozuvchining bir emas, bir necha asarlarini o‘qir ekanmiz, ular orasida shakliy o‘xshashliklar, u yoki bu darajada yaqinlik borligiga guvoh bo‘lamiz. Shuning uchun ham u yoki bu yozuvchining uslubi haqida fikr yuritganimizda ana shu “o‘xshash” tomonlarga, “yaqinliklarga” qarab, ulardagi umumiy tomonlarni aniqlab olamizda, “Bu Abdulla Qodiriyning tili”, “Bu Oybekning tili”, “Bu Abdulla Qahhorning tili”, “Bu Said Ahmadning tili”, “Bu O‘tkir Hoshimovning tili”, “Bu Tohir Malikning tili yoki uslubi”, deya hukm chiqaramiz. Chunki har bir yozuvchining individual uslubi mazkur adibning faqat o‘zigagina xosdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, har qanday uslub (so‘zlashuv uslubi, rasmiy ish uslubi, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub va b.) ning asosi, uning yuragi til hisoblanadi. Bu - uslub, go‘yo, shaxmat taxtasidagi shohdir. Agar Shoh yo‘q ekan, hech qanaqa o‘yin ham bo‘lishi mumkin emas. Til yo‘q ekan — yozuvchi ham yo‘q.

Turkiy tilda so‘zlashuvchi urug‘-qabilalar ittifoqi va ular tilining shakllanishi juda qadim zamonlardan boshlanadi.⁵ Uning vaqtlar davomida shakllangan va rivojlanib kelgan bo‘lib, bu haqda Sibirda, Mo‘g‘ulistonda, Qozog‘istonda va O‘rta Osiyoning turli joylarida topilgan qadimgi turkiy yozma yodgorliklar juda yaxshi tasavvur beradi. Masalan, Shimoliy Mo‘g‘uliston hududidan o‘tgan Yenisey va O‘rxun daryolari bo‘ylaridan topilgan yozuv. Buni O‘rxun-Yenisey yozuvlari deb yuritishadi. “Bu yozuv yodgorliklarini hozirgi turk xalqlaridan birortasi yaratgan deb aytish to‘g‘ri chiqmaydi, chunki u zamonlarda

⁴ Gort. YA .. «Riiioigicneskiye roziskaniya», 1899,'srr. 74-75

⁵ Qarang. Yaziki narodov, lom 2. Tyurkiskiy yaziki- - Moskva: 1966. – S. 14-15.

urug'-qabilachilik davrini boshidan kechirayotgan turk xalqlari (VI-VIII asrlar) hali mustaqil xalq sifatida uyushmagan edilar. Bu yodgorliklarning tili haqida ham xuddi shuni aytish kerak bo'ladi. Bu yozuv yodgorliklarini yaratishda so'nggi taraqqiyot davrlarida turk xalqlarining tashkil topishida ishtirok etgan juda ko'p turli-tuman qabila va urug'lar qatnashgan, desak haqiqatga yaqinroq bo'ladi".⁶

Navoiy bobomiz: "Insonni so'z ayladi judo hayvondin, bilki guhari sharifroq yo'q ondin" – deganlaridek, inson so'z bilan insondir. Agar nutq bo'lmaganda edi, insonning hayvondan farqi qolmas edi. Sababi inson jamiyatdan yiroqda, masalan tug'ilgan ondan boshlab hayvonlar orasida voyaga etganda unda nutq bo'lmasdi, shu bilan birga unda etika, estetika, odob ham bo'lmasdi, buni fan isbotlab turibdi. Ona tilimiz va uning rivojlanishi haqida muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir.

Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin.

Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalari, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar⁷".

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida XX asrning 70-yillardan boshlab dialektlarning badiiy asar tilidagi semantik-stilistik xususiyatlari o'rganila

⁶ O'qish kitobi. Eski o'zbek yozuvi namunalari. – Toshkent: O'z Davlat o'quv-pedagogik nashriyoti, 1960. – B. 6.

⁷ O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 22-oktyabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan

boshladi. Yozuvchi Tog‘ay Murod asarlari tilida ham leksik, fonetik, grammatik, dialektizmlar ko‘p uchraydi. Uning asarlari asosan, Surxondaryo sheva vakillari tillidan gapirilgani uchun personajlar nutqida ham bu aks etgan.

Shuning uchun ham ayrim tilshunoslar badiiy asarlarida keltirilgan misollar asosida muallif va personajlar nutqida qo‘llaniladigan dialektal so‘zlarning uslubiy vazifalarini o‘zaro farqlab; “dialektizmlarning haqiqiy estetik mohiyati, asosan, personajlar nutqida yaqqol ko‘rinadi, dialektlar harakatlarini ochishda va ekspresivlik imkoniyatlarini ana shu personaj nutqida haqli ravishda namoyon qila oladi”⁸, deb ko‘rsatadilar.

Demak, til birligining uslubiy imkoniyatlari kabi dialektlarda ham semantik stilistik imkoniyatlari ham matn doirasida oydinlashadi. Bu asosan, yozuvchining fikr doirasi bilan bog‘liq bo‘lib, qahramonlar qiyofasida ochib beriladi. Yozuvchi Tog‘ay Murod asarlari tilining badiiyligini ta‘minlovchi leksik-grammatik vositalar xilma-xil bo‘lib, ulardan dialektizmlar ham salmoqli o‘ringa ega. Chunki, yozuvchi hayot haqiqatlarini ishonarli va ta‘sirchan qilib tasvirlashida, o‘z qahramoni tili va urf-odatlarini hatto, qaysi yurt farzandi ekanligini ko‘rsatishda shevaga xos so‘z va iboralardan foydalanishi tabiiydir.

Yuqorida zikr etilgan muammolarning mavjudligi, shuningdek bugungi kundagi dialektizmlarning o‘rganilishi, dialektal so‘zlarning adabiy tilga munosabati, dialektizm va unga yondosh hodisalarning tahlil etilishi etarli darajada emasligi jiddiy muammo tug‘dirmoqda. Bu va yuqoridagi boshqa masalalar tadqiqotimizning dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot obyekti – Yozuvchi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanlari, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Momo Yer qo‘shig‘i” qissalari.

Tadqiqot predmeti – Yozuvchi Tog‘ay Murodning qissa va romanlarida mavjud dialektizmlarning barcha lingvistik shakllari.

⁸ Abdirahmanov H.Maxmurov N .So‘z estetikasi,-T «Fan», 1981,B-5-26

Tadqiqotning maqsadi – dialektizmlarning uslubiy imkoniyatlarini o‘rganishdir. Lingvistik jihatdan dialektizmlarning badiiy asarda tutgan o‘rni va ahamiyatini yoritishdir. O‘zbek tilshunosligida badiiy asarda uchrovchi dialektizmlarning stilistik xususiyatlari etarli darajada o‘rganilmagan. Shunga qaramay biz tadqiqotimizda bu o‘ringa mustaqil yondoshgan holda echim topishga harakat qildik. Uning ustiga hozirgi kunda, fan-texnika rivojlanib borayotgan zamonda boshqa chet tillardan kirgan so‘zlarning o‘z ona tilimizdagi so‘zlar o‘rnini bosayotganligi bu sohaning o‘rganilishi kerakligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida o‘g‘zaki nutq masalasi etarlicha o‘rganilmagan soha hisoblanadi. Shu sababdan ayni kunlarda badiiy asarlarda uchrovchi dialektizmlarning leksik-semantik, uslubiy xususiyatlarini, undagi frazeologik birliklar va boshqa xususiyatlarini o‘rganishni lozim topdik. Shu sababdan biz tadqiqotimizni badiiy asarlarda uchrovchi dialektizmlarning stilistik xususiyatlari orqali o‘tkazishga qaror qildik. Barchaga ma’lumki, dialektizmlar jonli xalq tilida paydo bo‘ladi. Shu sababdan badiiy asarlardagi oddiy xalq nutqi ushbu mavzu ishimizga asos qilib olindi. Tadqiqotning maqsadi badiiy asarlardagi dialektizmlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari, undagi barqaror birikmalar ya’ni frazeologik birliklar, maqollar va boshqa jihatlar, asar qahramoni nutqidagi emotsionallik va leksik birliklarning ekspressiv ta’sirchanlikni ifodalash imkoniyatlarini o‘rganish barobarida ulardagi yutuqlarni, nutq imkoniyatlaridan foydalanishni rivojlantirishda qo‘llash yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Asar qahramoni nutqi birliklarining leksik va grammatik xususiyatlari yoritib berish;
- badiiy matndagi dialektizmlarning qo‘llanishdagi o‘rni qay darajada ekanligini isbotlash;
- asar qahramonlari nutqidagi maqol va iboralarning xalq shevalaridagi ahamiyatini ko‘rsatish;

- asar qahramonlari nutqidagi dialektizmlarning turlari bo‘yicha aniqlash va shu orqali o‘zbek tilining rivojiga dialektizmlarning qay darajada ta’sir etayotganligi xususida xulosa berish;
- badiiy matn qahramoni nutqida shevaga xos vositalarining adabiy til normalarini shakllantirishdagi ahamiyatini tadqiq etish;
- asar qahramoni nutqidagi birliklarning milliy koloridni tasvirlashdagi qiymatini baholash;
- asar qahramonlari nutqidagi yutuq va kamchiliklarni chuqur tahlil qilish orqali taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- O‘zbek milliy tili va adabiy tilidagi o‘ziga xosliklar, jonli til vakillari nutqining til xususiyatlari o‘rganildi;
- dialektizm va unga yaqin bo‘lgan boshqa hodisalar o‘rganildi;
- asar qahramonlari nutqini o‘rganish barobarida nutqni shakllantiruvchi dialektizmlarning turlari tahlil etildi;
- asar qahramonlari nutqi leksik-semantik birliklarning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etildi;
- badiiy matndagi ibora va maqollar, marosim va urf-odatlarining estetik, emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini ta’minlashdagi, shuningdek, o‘zbek tilining ekspressivligini oshirishdagi o‘rni va mavqeyi asar qahramonlari nutqi misolida ochib berildi;
- barqaror birikmalarining asar qahramonlari nutqida stilistik qo‘llanish imkoniga ko‘ra o‘rni belgilandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari: asar qahramoni nutqi xususiyatlarini o‘rganish, asar qahramonlari nutqi birliklarini tahlil etish, milliy o‘ziga xoslikning asar qahramonlari nutqi birliklari orqali ifodalanishini tahlil etish asosiy masalalar hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi:

O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab dialektizmlarning badiiy asar tilidagi semantik-stilistik xususiyatlari o‘rganila boshlandi⁹. Badiiy asar tilini o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ular asosan mashhur adiblarning asarlarini tadqiq qilishgan. Bunga misol tariqasida: Nazirjonova F. Mirtemir she‘riyatida dialektizmlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. –№1. –B. 82-84; Fayzullaev B. Dialektizmlar va ularning badiiy adabiyotdagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1977. –№4. – B. 34-38; Yo‘ldoshev B. Said Ahmad asarlarida dialektizmlarning stilistik xususiyatlari // O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari. –Samarqand, 1979. – B. 29-34; Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. –Toshkent: Fan, 1982. –B. 53-57. Oxunov N. G‘afur G‘ulom asarlarida dialektizm va eskirgan so‘zlarning qo‘llanilishi // Til va adabiyot ta‘limi. –Toshkent, 2003. –№4. –B. 37-40 va boshq. Bulardan tashqari boshqa adiblarning badiiy mahorati tadqiq qilingan: I. Qo‘chqortoyev “Abdulla Qahhorning frazeologiyalardan foydalanish mahorati”¹⁰ni, A. Jalolova “Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining lingvistik tahlili”¹¹ O‘zbek tilshunosligida linvopoetikaning oyoqqa turishida va rivojlanishida prof, X. Doniyorov, S. Mirzayev, M. Yo‘ldoshev kabi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Ular badiiy asar tilining uslubiy tomonlarini, badiiy estetik jihatlari va yozuvchining so‘z qo‘llash, individual tili, umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati kabi tomonlarni chuqur o‘rgandilar. Ayniqsa, M. Yo‘ldoshev tomonidan lingvopoetik xususiyatlarning o‘ziga xos tomonlari o‘zbek tilshunosligida ilk marotaba ilmiy nuqtayi nazardan ochib berildi.¹² Olim badiiy matnni lingvistik tahlil etishning yangi tamoyilini aniqlab berdi.

⁹Назиржонова Ф. Миртемир шеърлятида диалектизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. – №1. –Б. 82-84; Файзуллаев Б. Диалектизмлар ва уларнинг бадий адабиётдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. –№4. – Б. 34-38; Йўлдошев Б. Саид Аҳмад асарларида диалектизмларнинг стилстик хусусиятлари // Ўзбек тили стилстикаси ва нутқ маданияти масалалари. –Самарқанд, 1979. – Б. 29-34; Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. –Тошкент: Фан, 1982. – Б. 53-57. Охунов Н. Гафур Гулом асарларида диалектизм ва эскирган сўзларнинг қўлланилиши // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2003. –№4. – Б. 37-40 ва бoшқ.

¹⁰ Qo‘chqortoyev I A Qahhorning frazeologizimlardan foydalanish mahorati NDA,T

¹¹ Djayeva L Qodiriyning O‘tkan kunlar romoninining lingvistik talqini NDAT 2007

¹² Yo‘ldoshev M Badiiy matning lingvopoetik tadqiqi.DDA-T,2009

Ular shakl va mazmun birligi, makon va zamon birligi, matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash, badiiy matnga badiiy estetik butunlik sifatida yondashish va asarda badiiy poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash, eksplitstillik va implitsitlik nisbatini aniqlash, badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash kabi tamoyillarini ishlab chiqdi. Olimning bu qarashlari nazariy jihatdan mukammal bo'lib, har qanday badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilish munosabatini ochib berishi mumkin. Chunonchi, akademik V. V. Vinogradov ta'kidlaganlaridek, individual uslub tushunchasi badiiy til tadqiqotining asosiy kategoriyalaridan biri sifatida tan olinadi.¹³ Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so'z tanlash san'ati bilan belgilanadi. Bu o'z o'rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, badiiy tafakkurini, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqatini, lingvistik mahoratini namoyon etadi. Albatta, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi. Chunki yozuvchi uslubida san'atkor tomonidan estetik jihatdan qo'llanilgan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan chambarchas ichki bog'liqlik asosida birlashadi. Shuning uchun ham badiiy asar tilini o'rganish keng qamrovli jarayon hisoblanadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: Tadqiqot ishida tavsiflash, qiyoslash hamda tasniflash usullaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Badiiy asar qahramonlari nutqi tilimiz tabiatiga doir bir qator yangiliklar qilish, shevaga xos so'zlarning o'ziga xos jihatlari haqida xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Shuningdek, adabiy tilimizning yanada boyishiga, ravnaq topishiga xizmat qiladi. Badiiy asar qahramoni nutqida keng qo'llanilgan fonetik, grammatik, leksik vositalar, shuningdek, ko'chma ma'nodagi vositalardan foydalanish natijasida yozuvchi mahoratini yoritib berish bo'yicha amalga oshirilgan tahlillarning

¹³Vinogradov.B.B Izbranniy trudi. –Москва: 1975. –B. 23.

mavjudligi va ularning ilmiy xulosalanganligi ilmiy ishning qimmatini oshiradi. Ishda erishilgan ilmiy va amaliy natijalardan asar qahramonlari nutqini akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida o'rganish, seminar-treninglar, ma'ruza va muloqot-suhbat darslarini tashkil qilishda qo'shimcha material sifatida foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, sakkiz fasl, bob bo'yicha xulosalar, umumiy xulosalar, foydanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va ilovadan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 95 sahifadan iborat.

I BOB. TIL TIZIMIDA DIALEKTIZMLARNING O'RGANILISHI

1.1. O‘zbek tilshunosligida dialektal leksika tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar sharhi

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘vtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrni tushunish va izohlashda sheva, lahja, dialekt degan terminlar qo‘llanadiki, ularning lug‘aviy va terminologik ma‘nolarini bilish albatta zarur.

O‘zbek tili turli lahja, sheva va dialektlardan tashkil topgan. Adabiy tilda qo‘llanuvchi so‘zlar shevalarda boshqacha variantda ishlatilishi mumkin. Yoxud tilimizda yo‘qolib ketayotgan ba‘zi so‘z va qo‘shimchalar shevalarimizda barqaror ishlatilayotgan bo‘ladi. Bu o‘rinda tilshunoslar shunday leksik birliklarni chuqur o‘rganishi, adabiy til doirasida tahlil qilishi va keng ommaga taqdim etishi mumkin. Avvalo, sheva, lahja, dialekt atamalarining o‘xshash va farqli jihatlariga e‘tibor qaratildi

Sheva forscha ravish, tarz, yo‘sin degan ma‘nolarni bildirib, fanda o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilning kichik teritorriyaga oid qismini anglatadi.¹⁴

Sheva – biror tilning o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan kichik qismi (oraliq sheva, shevalar guruhi degan terminlar ham bor) (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. //Birinchi jild. – Moskva: Russkiy yozik, 1981. – B. 406). Toshkent shevasi, Shahrisabz shevasi, Qo‘qon shevasi, Buka shevasi kabi shevalarni misol sifatida keltirish mumkin.¹⁵

Dialekt atamasiga olimlarimiz tomonidan turlicha yondashish mavjud. Hozir shularning bir nechtasini ko‘rib o‘tamiz. Ma‘lum termin olimlarimiz tomonidan turlicha ta‘riflangan. Dialekt so‘zi yunoncha bo‘lib, sheva degan ma‘noni anglatib (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan shevalarni birlashtiradi.¹⁶ Tolib Enazarov va bir necha dialektologlar

¹⁴ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – B. 5.

¹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Биринчи жилд. – Москва.: Русский язык, 1981. – Б. 406.

¹⁶ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – B. 5

tomonidan aytilgan fikrlarga qaraymiz. **Dialekt atamasi** – dialektologik adabiyotlarda lahja, sheva ma'nolarida ham ishlatiladi. Hoziri kunda esa u umumlingvistik dialekt atamasi ma'nosida ishlatilmoqda. Dialekt atamasi grek tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, Prof.V.V.Reshetov bu atamani o'z tadqiqotlarida shevalar guruhi ma'nosida faol darajada qo'llagan. Mazkur atama bu fanga oid rus tilidagi ilmiy hamda ilmiy metodik adabiyotlarda ham uchraydi.¹⁷ Bu ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki, dialekt shevalar guruhi hisoblanar ekan. Dialekt shevaga qaraganda katta hududni qamrab oladi. V.V.Reshetov va Sh. Shoabdurahmonovlarning muallifligida 1978-yilda chiqqan darslikda dialekt haqida bu atama sheva ma'nosida ham, lahja ma'nosida ham qo'llanadi deb aytib o'tiladi. Rus adabiyotlarida sheva va dialektlar yig'indisi deyilishi aytib o'tiladi.

Keyingi terminimiz bu lahja terminidir. Samixon Ashirboyev bu terminga shunday ta'rif beradi: Lahja arabcha so'z bo'lib u ham ravish, tarz, yo'sin, sheva ma'nolarini anglatadi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik to'ldasini anglatadi.¹⁸ Bundan ma'lum bo'ladiki, lahja sheva va dialektdan katta hudud va shevada gaplashuvchi aholining ko'psonliligi bilan ajralib turadi. O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjadan tarkib topgan. Bular: qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasi hisoblanadi. Ularning nomlanishi turkiy urug'-qabilalar nomidan shakllangan. Lahja termini o'zbek, turk tillarida iste'molda borligi, boshqa aksariyat millatlar dialektologiyasida *dialekt va sheva (zovor)* terminlariga ko'proq murojaat qilinayotganligi darslikda aytib o'tiladi. Bir dialekt tarkibidagi shevalarda o'zaro bog'langanlik mavjud bo'lib, lekin kichik va muhim bo'lgan farqlar ham bo'ladi.

Lahja – shevaning fonetik, leksik, so'z yasalishi hamda grammatik xususiyatlarini ma'lum bir tizim asosida o'zida birlashtirgan shevalar yig'indisi¹⁹

¹⁷ Enazarov T. J., Karimjonova V. A. Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G'. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 11.

¹⁸ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016. – B. 5.

¹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Биринчи жилд. – Москва.: Русский язык, 1981.

Mavzumizning rejasiga to‘xtalib o‘tsak, o‘zbek tili shevalarining hozirgi kungacha lug‘ati qisman shakllangan. Bunga misol tariqasida 1971-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da sof leksik dialektal so‘zlar qisman yig‘ilgan, lekin dialektal so‘z turlari masalalari e‘tibordan qolib ketgan. “Dialektologik amaliyot” hamda “Dialektologik ekspeditsiyalar”ni tashkil etib, dialektal materiallar yig‘ish va ularni dialektal leksik tahlil talablari bilan aniqlab ajratish yuqorida tilga olingan muammo hamda masalalarning echimiga yo‘l ochadi. Shular bilan birga oldingi dialektologik tadqiqotlarni e‘tiborga olgan holda zamonaviy va tarixiy o‘zbek dialektal leksikografiyasi masalalarini yoritish zaruriyati ham o‘ziga xos dolzarblikni tashkil qiladi.

Mazkur masalalarning ilgari surilishiga sabab shuki, hali hanuz ko‘pchilik dialektologlar dialektal so‘z turlaridan faqat sof va leksik dialektal so‘zlarga tayanishgani, o‘rganilayotgan sheva materiallarini dialektal matnlar sifatida yozib olishmasdan, “Maxsus anketa”²⁰ alohida dialektal so‘zni yozib olish, “anketa”, “suhbat yo‘li bilan materiallar to‘plash” va “savol-javob” kabi individual metodlarga bog‘lanib qolishgan²¹

“Dialektologiya milliy tilning quyi bosqichini o‘rganadigan fan bo‘lishi bilan xarakterlanadi, shu bilan birga boshqa tillardagi dialektologiyadan farqlanadi”²² Dialektal so‘zlarni qanday qilib yig‘ish mumkinligi haqida Tolib Enazarov o‘zining “Dialektologiya metodologiyasi” monografiyasida shunday yozadi: “Agar shevalardagi mavjud dialektal so‘zlarni ularning turlari bo‘yicha to‘plash uchun har bir aholi punktidagi yoshi ulug‘ insonlardan dialektal matnlarni yozib olishni amalda qo‘llasak, ayni vaqtdagi ma‘lumotlarga ko‘ra 83000 (sakson uch ming) atrofidagi aholi punktining har biridan turli mavzuda yuzta dialektal matnni yozib olinsa, taxminiy hisoblarga ko‘ra eng kamida

²⁰ Дониёров Х. Қипчок диалектларининг лексикаси. –Тошкен: Фан, 1979. –В.152.

²¹ Алиев А. Наманган диалекти материалларини тўпловчилар учун анкета. -Наманган, 1964. Алиев А. Ю., Назаров К. Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. -Тошкент, 1976. Назаров К., Ғуломов Ё. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент, Университет, 1993. – В.23.

²² Ashirboyev S., Xidraliyeva Z. R. O‘zbek dialektologiyasi ta‘limi: Yangilanish tamoyillari (xorij tajribasini milliy lashtirish) // Pedagogika. 2017, 1-son. – В.109-114.

ikki-ikki yarim million dialektal soʻzlarni bemalol yigʻib olish mumkin boʻladi. Bu degani yuz tomdan ortiq dialektal lugʻatlarga dialektal lugʻat maqolalarning matnlari tayyorlanadi, demakdir”.²³ Dialektolog shuni aytmoqchiki, har bir dialektal matn orqali bu soʻzlarning soni va turini asrab qolishimiz hamda adabiy tilimizni shu soʻzlarning muqobillari bilan boyitishimiz mumkin. Buning uchun tajribali mutaxassislar zarur boʻladi. “Qisqasi bu shevalar adabiy tilimiz uchun kerakli boʻlgan imkoniyatlarga ega. Bularni hammasini qunt bilan yigʻib, chidam bilan oʻrganish kerak”²⁴.

Ana shunda oʻzbek xalq shevalarida qolib ketayotgan eng kamida ikki milliondan ortiq dialektal soʻzlarni yigʻib jamlab, mavjud dialektal soʻz turlari boʻyicha monografiya, dialektal lugʻat, bugungi oliy taʼlim talab qilayotgan darajada yangi darslik va oʻquv qoʻllanmalarni tayyorlash hamda nashr etishda imkoniyat boʻladi.

Dialektologiya sohasida erishilgan natijalar haqida Tolib Enazarov 2006-yilgacha dialektologiya sohasi va oʻzbek dialektologiyasi fani mavjud boʻlganligi, oʻsha yili bu yoʻnalishdagi, yaʼni dialektologiyaning amaliy sohasi tugatilgani, shuning uchun ham oʻqituvchilar faqat oʻqituvchilikdan tashqari tadqiqot bilan ham shugʻullanganligi aytib oʻtiladi. Bunday holat oʻqituvchilikdan tashqari ilmiy soha bilan ham shugʻullanishni taqoza etadi, shuning uchun dialektal soʻzlarga oid maqolalar va monografiyalar, dialektal lugʻatlar kabilarni tayyorlab nashrdan chiqarishgan. “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati” “Oʻzbek dialektologiyasi” sohasining mahsuli deyish oʻrinli, chunki uni Dialektologiya boʻlimi xodimlari tayyorlashgan. Shu sababli bir oʻrinda “Oʻzbek dialektologiyasi” fani boshqa bir oʻrinda esa berilayotgan matn mazmunining talab va meʼyoriga asoslanib “Oʻzbek dialektologiyasi” sohasi deb berilishi oʻrinli. Hozirgi paytda turkiy tilli xalqlar orasida shevalarimizni oʻrganish, tadqiq etish va dialektal lugʻatlar tuzish masalasida eng past darajadamiz. “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati”da sof dialektal soʻz qayd etilgan.

²³ Tolib Enazarov Dialektologiya metodologiyasi /Monografiya /– Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020, 152 b.

²⁴ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. –Тошкент: Фан, 1979. –В.152.

Bu masalada qardosh turkiy xalqlarning olimlari anchagina miqdordagi dialektal soʻzlarni toʻplab olishganki, ushbu masalada ular bizdan yuqori turishadi

Dialektologiya masalasida boshqa qardosh turkiy mamlakatlar yuqorilab ketganligi va ular oʻzlarining shevasidagi materiallarni toʻplab, jiddiy dialektologik, lingvogeografik va areal tadqiq etishga kirishishgan. Natijada, bir qancha dialektal soʻzlar lugʻatlarini tuzishganligini, har yili dialektologik ekspeditsiyalar davlat taʼminoti tomonidan oʻtkazilganligini olimimiz Tolib Enazarov oʻzining monografiyasida aytib oʻtadi. Bizda esa bu masalani hal etish va amalga oshirishga mutaxassis, moliyaviy taʼminot va eʼtibor kerak. Albatta, ularni toʻplashga ancha vaqt talab etiladi. Oʻzbek tili uchta katta lahjadan tashkil topgan, buni hamma biladi. Shuning uchun “Oʻzbek shevalarining gʻoyat xilma-xil murakkab ekanligi koʻpdan maʼlum. Tarixan, oʻzbek xalqi sostaviga kirgan va qarluq, qipchoq, oʻgʻuz nomlari bilan ataluvchi yirik etnik guruhlarining mavjudligi, bu xilma-xillikning bosh sababchisidir, shuningdek, oʻzbek tilida soʻzlashuvchi aholining oʻtmishda boshqa turkiy xalqlar, qavm va elatlar bilan boʻlgan iqtisodiy-madaniy aloqalari ham davrlarning oʻtishi bilan oʻzbek shevalarining borgan sari murakkablashuvi, aralashib ketuviga katta yoʻl ochdi. Ayniqsa, markaziy shaharlarda yashovchi oʻzbeklar tilining kuchli oʻzgarishiga sababchi boʻldi, markaziy oʻzbek shevalarining fonetik strukturasi turkiy tillarga xos boʻlmagan qator spesifik xususiyatlar yuzaga keldiki, bunday xususiyatlar uni boshqa turkiy tillardan ancha farqlanishiga olib keldi. Bunday oʻzgaliklar uning morfologik qurilishida, sintaktik konstruksiyalarida, ayniqsa, leksikada yaqqol koʻzga tashlanib turadi”²⁵. Hozirgi kunda shevalarni va lahjalarni ilm-fan talablari asosida oʻrganish va tadqiq etish lozim. Shuning uchun “Adabiy tilimizning muhim ichki manbalaridan biri boʻlgan qipchoq dialektlari va xalq dostonlarining til

²⁵ Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Тошкент: Фан, 1973. –В. 83.

imkoniyatlaridan ular yo‘qolib ketmasdan burun barakali foydalanib qolishimiz kerak”²⁶.

Darhaqiqat, “Tilni yaratish mumkin emas, chunki uni xalq ijod qiladi. Filologlar faqat uning qonuniyatlarini ochadilar va uni bir tizimga tushuradilar, yozuvchilar esa shu qonunlar orqali o‘ziga xos tarzda unda faqat ijod qilishadi”²⁷. Shuning uchun dialektologlarning faoliyatini o‘zbek shevashunosligining ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha yangi bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan boyitib borish lozim. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga keltiramiz”, deb bekorga aytmagan²⁸.

O‘zbek dialektologiyasi geografiya bilan ham uzviy bog‘liq, ya’ni har bir sheva haqida ma’lumot to‘planganda, shu sheva vakillari joylashgan hududning ko‘lami, aholining miqdori, shu hudud iqlimi va boshqa ma’lumotlar ham to‘planadi, ya’ni geografik muhit ham yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi o‘zbek xalqi tarixi, adabiyoti, etnografiyasi, san’ati fanlarining ma’lumotlariga hammasiga tayanadi va ular uchun boy material beradi.

Bizning tadqiqotimizning asosiy urg‘usi badiiy adabiyotda uchraydigan dialektizmlarning stilistik xususiyatlari bo‘lganligi uchun endi e’tiborimizni badiiy adabiyotdagi dialektal so‘zlarga bag‘ishlangan tadqiqotlarga qaratamiz. O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab dialektizmlarning badiiy asar tilidagi semantik-stilistik xususiyatlari o‘rganila boshlandi²⁹. Badiiy asar tilini o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan

²⁶ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. –Тошкент: Фан, 1979. –В.152.

²⁷ Беленский В. Г. Литературные мечтания. ПСС, т.1. –Москва: Изд-во АН, 1953. –Стр.44.

²⁸ Мирзиёев Ш. Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –В.14

²⁹ Назиржонова Ф. Миртемир шеърятда диалектизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. – №1. –Б. 82-84; Файзуллаев Б. Диалектизмлар ва уларнинг бадий адабиётдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. –№4. – Б. 34-38; Йўлдошев Б. Саид Аҳмад асарларида диалектизмларнинг стилстик хусусиятлари // Ўзбек тили стилстикаси ва нутқ маданияти масалалари. –Самарқанд, 1979. – Б. 29-34; Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. –Тошкент: Фан, 1982. –Б. 53-57. Охунов Н. Фафур Ғулом асарларида диалектизм ва эскирган сўзларнинг қўлланилиши // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2003. –№4. –Б. 37-40 ва бошқ.

bo‘lib, ular asosan mashhur adiblarning asarlarini tadqiq qilishgan. Bunga misol tariqasida: Nazirjonova F. Mirtemir she‘riyatida dialektizmlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. –№1. –B. 82-84; Fayzullaev B. Dialektizmlar va ularning badiiy adabiyotdagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1977. –№4. – B. 34-38; Yo‘ldoshev B. Said Ahmad asarlarida dialektizmlarning stilistik xususiyatlari // O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari. – Samarqand, 1979. –B. 29-34; Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent: Fan, 1982. –B. 53-57. Oxunov N. G‘afur G‘ulom asarlarida dialektizm va eskirgan so‘zlarning qo‘llanilishi // Til va adabiyot ta‘limi. –Toshkent, 2003. – №4. –B. 37-40 va boshq. Bulardan tashqari boshqa adiblarning badiiy mahorati tadqiq qilingan: I. Qo‘chqortoyev “Abdulla Qahhorning frazeologiyalardan foydalanish mahorati”³⁰ni, A. Jalolova “Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining lingvistik tahlili”³¹ O‘zbek tilshunosligida linvopoetikaning oyoqqa turishida va rivojlanishida prof, X. Doniyorov, S. Mirzayev, M. Yo‘ldoshev kabi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Ular badiiy asar tilining uslubiy tomonlarini, badiiy estetik jihatlari va yozuvchining so‘z qo‘llash, individual tili, umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati kabi tomonlarni chuqur o‘rgandilar. Ayniqsa, M. Yo‘ldoshev tomonidan lingvopoetik xususiyatlarning o‘ziga xos tomonlari o‘zbek tilshunosligida ilk marotaba ilmiy nuqtayi nazardan ochib berildi.³² Olim badiiy matnni lingvistik tahlil etishning yangi tamoyilini aniqlab berdi. Ular shakl va mazmun birligi, makon va zamon birligi, matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash, badiiy matnga badiiy estetik butunlik sifatida yondashish va asarda badiiy poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash, eksplitstillik va implitstillik nisbatini aniqlash, badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash kabi tamoyillarini ishlab chiqdi. Olimning bu qarashlari nazariy jihatdan mukammal bo‘lib, har qanday badiiy asarni linvopoetik tahlil qilish munosabatini ochib berishi mumkin.

³⁰ Qo‘chqortoyev I A Qahhorning frazeologizimlardan foydalanish mahorati NDA,T

³¹ Djayeva L Qodiriyning O‘tkan kunlar romanining lingvistik Ta‘lqini NDAT 2007

³² Yo‘ldoshev M Badiiy matning lingvopoetik tadqiqi.DDA-T,2009

Chunonchi, akademik V. V. Vinogradov ta'kidlaganlaridek, individual uslub tushunchasi badiiy til tadqiqotining asosiy kategoriyalaridan biri sifatida tan olinadi.³³ Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so'z tanlash san'ati bilan belgilanadi. Bu o'z o'rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, badiiy tafakkurini, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqatini, lingvistik mahoratini namoyon etadi. Albatta, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi. Chunki yozuvchi uslubida san'atkor tomonidan estetik jihatdan qo'llanilgan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan chambarchas ichki bog'liqlik asosida birlashadi. Shuning uchun ham badiiy asar tilini o'rganish keng qamrovli jarayon hisoblanadi. Yozuvchi Tog'ay Murod asarlari tilida ham leksik, fonetik, grammatik dialektizmlar ko'p uchraydi. Uning asarlarida Surxondaryo vohasidagi sheva vakillarining tilidan aytilgan dialektal so'zlar, ularning qanday ijtimoiy guruhga mansubligi personajlar tilida aks etgan. Masalan: *Do'rjiroq zot qo'ying, kelbatidan ikkoviyam katta polvonga o'xshayapti!* "Yulduzlar mangu yonadi" Tog'ay Murod. *Bo'rining onasi qo'y-echkilarni ko'ganladi.* "Yulduzlar mangu yonadi" Tog'ay Murod. *Oshna, to'ylarimda, betob bo'lib qolganlarimda seni ko'p yodladim. Ayniqsa, burnog'i yili ko'p qo'msadim.* "Yulduzlar mangu yonadi" Tog'ay Murod.³⁴ *Bechora choli hali eshitmadi. Eshitsa, ot qo'yib keladi.* "Momo Yer qo'shig'i" Tog'ay Murod .

Enag'arni bir qamchi ostiga olayin!

Onasi oracha qildi. "Momo Yer qo'shig'i" Tog'ay Murod³⁵. *Burnoch bilan Saman quloqlarini quyon quloqlari misol chimirib chopdi, zinkiyib chopdi. Uloq oralarida shalvirab bordi.* "Ot kishnagan oqshom" Tog'ay Murod. — U kishi ishdalar. *Kirib o'tirib turing, hamzamat kelib qoladilar, — dedi zaifa.* "Ot kishnagan oqshom" Tog'ay Murod³⁶. *Anaglundan keyin Botir firqa o'zini...*

³³ Vinogradov.B.B Izbranniy trudi. Moskva.: 1975 – B. 23.

³⁴ Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 232.

³⁵ Tog'ay Murod. Momo Yer qo'shig'i. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 122.

³⁶ " Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B, 42.

odam his etdi. O'zini erkin his etdi. Odamga o'xshab nafas oldi. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” Tog‘ay Murod. *Ammo-lekin hayot uchun kullan ziyon avlod bo‘ldi. Xalq uchun xayf-xatar avlod bo‘ldi.* “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” Tog‘ay Murod. *To‘r quyushib-qyushib, boshmaldoqday-boshmaldoqday g‘anak hosil bo‘ldi.* “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” Tog‘ay Murod³⁷. Mana shunday parchalarda ko‘rishimiz mumkinki, har qanday badiiy asarning o‘z uslubi va yo‘nalishi mavjud. Tog‘ay Murod uslubi esa shevaga xos so‘zlarni badiiy asarda keltirib o‘sha hududda yashovchi aholining turmush tarzi va his tuyg‘ularini badiiy asarga uyg‘unlashtirib yuborishdir. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslar badiiy asarlarda keltirilgan misollar asosida muallif va personajlar nutqida qo‘llaniladigan dialektal so‘zlarning uslubiy vazifalarini o‘zaro farqlab: “dialektizmlarning haqiqiy estetik mohiyati, asosan, personajlar nutqida yaqqol ko‘rinadi, dialektlar harakatlarini ochishda va ekspresivlik imkoniyatlarini ana shu personaj nutqida haqli ravishda namoyon qila oladi”, deb ko‘rsatadilar³⁸. Demak, til birligining uslubiy imkoniyatlari kabi dialektlarda ham semantik-stilistik imkoniyatlari ham matn doirasida oydinlashadi. Bu asosan, yozuvchining fikr doirasi bilan bog‘liq bo‘lib, qahramonlar qiyofasida ochib beriladi. Asarlarda qo‘llanilgan dialektizmlarni quydagi turlarga ajratish mumkin:

1. Leksik dialektizmlarning uslubiy qo‘llanishi: mo‘rcha – qumursqa – chumoli; uzangi – shoti – narvon kabi.
2. Morfologik dialektizmlarning uslubiy qo‘llanishi: ikkinchi shaxs egalik shaklining o‘rniga uchinchi shaxs shaklining qo‘llanishi: Qoplon ishiga otlandi. Uyiga oqshomda qaytib keldi. Otasi(ingiz) aytib ketdi, - dedi ayoli³⁹.
3. Fonetik dialektizmlar ham ko‘p uchraydi. Ular turli fonetik jarayonlar bilan bog‘liq yuz beradi.

Yozuvchi Tog‘ay Murod asarlarida dialektizmlar o‘zbek adabiy tilidagi leksik-grammatik vositalardan juda farq qiladi. Buni Tog‘ay Murod asarlarini

³⁷ Tog‘ay Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi, – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 112.

³⁸ Abdirahmanov H.Maxmurov N. So‘z estetikasi, – Toshkent.: Fan, 1981. B.lar. 5-26

³⁹ Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 67.

o‘qish orqali aniq bilish mumkin. Adib mahalliy koloritni berish, personajlar nutqida individuallashtirish maqsadida mahalliy shevalardan foydalanadi. Yozuvchi asarlarida shuni ko‘rishimiz mumkinki, adabiy tilda mavjud bo‘lmagan dialektizmlardan o‘rinli foydalangan. Shu o‘rinda adibning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida qo‘llangan “**lo‘pchik**” so‘ziga e‘tiborimizni qaratamiz: *Yerga suqig‘lik odam bo‘yi temir uchida lo‘pchik lov-lov yonib turdi.* Yulduzlar mangu yonadi» Tog‘ay Murod⁴⁰.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa bu so‘zga quyidagicha ta‘rif beriladi: Lo‘pchik 1. Uchiga paxta o‘ralgan cho‘p (siqilgan o‘sma, yod kabi suyuq narsaga surtish uchun ishlatiladi). Lo‘pchik bilan o‘sma qo‘ymoq. 2. Paxta yoki lattani yumaloqlab, cho‘pga suqib yoki simga bog‘lab, kerosin, qoramoy shimdirib, mash‘ala sifatida ishlatiladigan narsa. Bir bola lo‘pchikka er moyi sepib turdi. Tog‘ay Murod. “Ot kishnagan oqshom”. Yerga suqig‘lik odam bo‘yi temir uchida lo‘pchik lov-lov yonib turdi. Tog‘ay Murod. “Ot kishnagan oqshom”⁴¹. Izohli lug‘atda “lo‘pchik” so‘ziga ikki xil izoh beriladi: birinchisi, qiz va ayollarning qoshiga qo‘yiluvchi o‘sma va boshqa shunga o‘xshagan suyuqlikni qo‘yuvchi bir cho‘p bo‘lsa, ikkinchisi, mash‘ala sifatida ishlatiladigan katta tayoqni anglatyapti. Tog‘ay Murod asarlarida bunday ma‘nodagi so‘zlar juda ko‘p uchraydi: — Bo‘ri, o‘lay agar, **hundisan, hundi!** — dedi. — Ichimdagini top, deb bezrayib tura berasan! “Yulduzlar mangu yonadi” Tog‘ay Murod⁴². Yuqoridagi badiiy matndan keltirilgan parchada shuni ko‘rimiz mumkinki, “**hundi**” so‘zi yomon so‘z va aytilgan fikrni tezda anglamaydigan kishilarga nisbatan aytilishini personaj nutqidan anglab olamiz. Bu so‘zning izohi hatto “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham mavjud emas. Yozuvchi bu orqali o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtning tili va xalqining qanday ahvolda ekanligi, kishilar o‘rtasidagi muloqotda his tuyg‘uning qanday ifodalanishini ko‘rsatib o‘tgan. Demak, yozuvchi o‘z

⁴⁰ Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 248.

⁴¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

⁴² Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 256.

asarlarida Surxondaryo shevalariga mansub soʻzlardan unumli foydalangan. Yozuvchi asarlarida dialektizmning barcha turi qatnashadi, oʻzi ham shu xalq vakili boʻlganligi uchun bunday jarayonni yurak-yuragidan his etgan. Surxondaryo hududidagi aholining koʻpchiligi qipchoq lahjasida gaplashishadi, bu holat yozuvchining asarlarida ham oʻz aksini topgan. Yozuvchi Togʻay Murod asarlari tilining badiiyligini taʼminlovchi leksik-grammatik vositalar xilma-xil boʻlib, ulardan dialektizmlar ham salmoqli oʻrin egallagan. Chunki yozuvchi hayot haqiqatlarini ishonarli va taʼsirchan qilib tasvirlashida, oʻz qahramoni tili, urf-odatlarini hatto qaysi yurt farzandi ekanligini koʻrsatishda shevaga xos soʻz va iboralardan foydalanishi tabiiydir

Shevaga xos soʻzlarni qancha saqlasak bahosi shuncha oshib boraveradigan qimmatli javohirlarga qiyos qilish mumkin. Shuning uchun ularni badiiy uslubning muhim lingvistik alomatlaridan deb aytishga asoslar bor. Umumxalq tilining muhim qismi boʻlgan dialektizmlar, garchi asosan soʻzlashuv uslubiga xos birliklar sanalsa-da, ulardan badiiy adabiyotda foydalanishga yoʻl qoʻyiladi.

Ilmiy adabiyotlarda adabiy til meʼyorlariga mos kelmasligi tufayli nutqda, xususan, adabiy nutqda chegaralangan dialektizmlar alohida holatlarda qoʻllanishi, yaʼni personajlar nutqini individuallashtirish, mahalliy koloritni, ruhni berish uchun qoʻllanishi qayd qilinadi. Shu bilan birga, ularni qoʻllashda chegara boʻlishi, nutqda suiisteʼmol qilishga yoʻl qoʻyib boʻlmasligi haqida soʻz yuritiladi.

Keyingi yillar oʻzbek prozasida dialektizmlarni qoʻllashda birmuncha erkinlik sezilmoqda. Bunday holni biz badiiy adabiyotni real hayotga yaqinlashtirish, tasvirda tabiiylikni taʼminlash deb baholash tarafdorimiz. Dialektizmlar tilning boshqa elementlari kabi badiiy uslubda estetik vazifani bajarishga xizmat qiladi va badiiy asarlar ularning adabiy tilga oʻtib turishida koʻprik vazifasini oʻtaydi.

Dialektal soʻz maqomi haqida gapirganda quyidagilar eʼtiborga olinishi lozim: Shevalarga xos soʻz, soʻz birikmasi va iboralar adabiy tilda juda kam

qo‘llanishi yoki umuman qo‘llanmasligi bilan ajralib turadi. “O‘zbek tili”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek tili leksikologiyasi” kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalarda dialektal so‘z va dialektal ma’nolar to‘g‘risida mulohaza yuritilmagan. Bir o‘rinda “dialektal xususiyatli so‘z” degan jumla uchradi⁴³.

Sheva so‘zlari termini uslubiy xususiyatlarga ko‘ra takroriylikning oldini olish uchun ikkinchi bir termin bilan dialektal so‘z deyiladi. Ularning badiiy asarlarda qo‘llanish shakli esa dialektizmlar hisoblanadi. Shuning uchun ham O. Madrihimovning “Jonli shevalar leksikasining adabiy til leksik qatlamlariga munosabati masalasi tekshiruvchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilishi tabiiydir”, degan fikrlari ham e‘tiborga molik.

Shuni ta’kidlash joizki, “dialektal so‘z maqomi” termini Tolib Enazarovning 2020-yilda yaratilgan “Dialektologiya metodologiyasi” nomli monografiyasida qo‘llangan. Dialektal so‘z maqomi sheva so‘zlari ichida uning leksik-semantik va semantik xususiyatlari bilan farqlanishi, adabiy tildagi so‘zlarga nisbatan orfoepik va orfografik me‘yorlari bilan adabiy til me‘yori va talablariga bo‘ysunmasligi, unda kam ishlatilishi yoki umuman qo‘llanmasligi, ularning tarkibidagi leksik ma’no esa ma’nolar tizimida kam uchraydigan dialektal ma’no ekanligi bilan adabiy tildagi leksik birliklardan ajralib turadi. Tadqiqotimiz davomida shuni aniq ayta olamizki, badiiy matndagi dialektal so‘z tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni unchalik ko‘p emas. Lekin dialektal matnlardan dialektal so‘zlarning ma’no va shakl tomonlari o‘rganilgan. Bunga misol tariqasida hurmatli olimimiz Tolib Enazarovning “Dialektal so‘z maqomi”⁴⁴ maqolasidagi misollarni aytishimiz mumkin. Dialektal so‘z matn ichidagina o‘z real ma’nosini ko‘rsatadi. Bunga misol tariqasida maqolada **kal** so‘zi olinadi. **Kal** so‘zi adabiy tilda sochi tushgan kishiga nisbatan aytilsa, shevada esa hech narsa o‘smaydigan dalaga

⁴³ “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari 2021-yil 22-may

⁴⁴ “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari 2021-yil 22-may

nisbatan aytiladi: “šü žerlärđä ällinan birär gijäh unmajjdi, hāzijam. Shünčün käl dälä dejišädi”. - Bu jerlarda biror giyoh unmaydi, shu uchun uni **kal** dala deyishadi. Ushbu gapda kal so‘zi dala so‘zi bilan birikib kelib, o‘tlar o‘smaydigan erni anglatgan. Lekin adabiy til doirasida bu ibora qo‘llanmaydi. Chunki bu ibora dialektal nutq doirasida qo‘llanadi. Demak, sheva so‘zining dialektal maqomini oydinlashtirish uchun eng birinchi vosita bu – dialektal matnlar hisoblanadi. Maqolada yana bir misol keltiriladi: **g‘ilvindi** sheva so‘zi bo‘lib, somsaning bir turi sanaladi. U gap ichida qo‘llanganda unga dialektal ma‘no yuklaydi: [“Enäm bečārä, että türip, xämir qārıp, süt piširip, širin vä gošlī masalliqla billä xilvindini ikki türini joqqa täšläp, piširip äpti. ätäm esä tüšdä pälävdän äldinrāq nājāb āvqät bogän jačmičči issiq nän va sārjāxdän tajjārläp bedilä”. - Onam bechora, erta turib, xamir qorib, sut pishirib, shirin va go‘shli masalliqlar bilan g‘ilvindining ikki turini yoqqa tashlab, pishirib olibtilar. Otam esa tushda palovdan oldinroq noyob ovqat bo‘lgan yachmichni issiq non va saryog‘dan tayyorlab berdilar.] Bu dialektal matndan shu narsa anglashib turibdiki, g‘ilvindi, yachmish so‘zlari sheva vakillaridan birining nutqida qo‘llangani uchun hamda ularni shevaning boshqa vakillari tushunishgani uchun ham u dialektal ma‘noga ega bo‘lgan. Demak, dialektal so‘z o‘zida shakllanmaydi, balki dialektal matnlar va ularning tarkibida shevaga xos leksik birliklar bilan birga qo‘llangani uchun hamda ularni shevaning boshqa vakillari tushunishgani uchun dialektal ma‘noga ega bo‘ladi. Mana shu jarayonlardan keyingina u dialektal so‘z hisoblanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, dialektal so‘zning maqomi bir jihatdan uning boshqa so‘zlar o‘rtasidagi mavqeyi va ahamiyatidir.

Sheva so‘zlari haqida gapirilganda dialektal so‘z, dialektizm va dialektal xususiyatlarning xilma-xilligi haqida o‘z davriga mos holda maxsus to‘xtalilgan, ammo shevaning dialektal leksikasidagi dialektal ma‘nolar termini va tushunchasi haqida biron-bir mulohaza yo‘q. O‘ylashinmizcha, sheva leksikasining leksik birliklarida, albatta, dialektal ma‘no mavjud.

Shuning uchun ular sheva va lahjalararo farqlangani kabi adabiy til leksikasidan ham ma'lum darajada tubdan farqlanib turishi tabiiydir.

Olim yana shu o'rinda yana bir narsaga to'xtalib o'tadi, ya'ni dialektal so'zlarning qo'llanishiga ko'ra turlari ikkiga bo'linishini aytib o'tadi. Bular:

- 1) tarixiy dialektal so'zlar (tarixiy dialektologiya yoxud til tarixiga oid materiallar);
- 2) hozirgi kunda sheva vakillari nutqida faol qo'llanayotgan dialektal so'zlar (tavsifiy dialektologiya yoki hozirgi dialektologiya materiallari). Ularning bunday tasniflanishini o'zbek shevalarining qadimdan xilma-xilligini va keyingi taraqqiyotini o'zida belgilaydi.

Keyingi yondushuv esa olim tomonidan dialektal so'zlarning maqomiga yondashuv bo'lib ularni ham ikkiga bo'ladi: 1) dialektal so'z maqomining amaliy jihati; 2) dialektal so'z maqomining nazariy jihati. Amaliy jihati shundan iborat ekanki, tarixiy dialektologiyaning materiallari tosh bitiklarida, tarixiy va yozma yozma adabiyotlarda, shuningdek, xalq dostonlari kabi turli folklor asarlarida maxsus matnlar ko'rinishida o'z ifodasini topgan. Faqat sho'rolar davrida ba'zi bir yozma manbalar nashr etilishi munosabati bilan undagi ancha dialektal so'zlar boshqa so'zlar bilan majburiy tuzatilganini aytib o'tish mumkin. Bunga misol tariqasida olimimiz "Alpomish" dostonining qayta nashrida undagi sheva so'zlarining noo'rin tarzda olib tashlanganligini aytib o'tadi. Shu masalaning ijobiy yakunlanishiga, shuningdek, ushbu dostonning o'zi ham xalq dostoni ekanligini to'liq asoslab berishda taniqli dialektolog olim professor Xudoyberdi Doniyorovning ham xizmatlari beqiyosdir. Mustaqillik davrida bu dostonning mazmun mohiyatini ifodalovchi dialektal so'zlarning anchagina qismi avvalgi holatga keltirilib, qayta nashr etilgani o'rinli bo'lgan. Bundan kelib chiqadiki, xalq folklori materiallari va matnlarisiz dialektal so'zlar maqomi haqida aytishga hojat yo'q.

Modomiki, o'zbek dialektal leksikasini birinchi o'rgangan olim sifatida Mahmud Qoshg'ariyni aytib o'tishimiz mumkin. Chunki Mahmud Qoshg'ariy

turkiy tillarda mavjud bo‘lgan dialektal so‘zlarni arab tilida izohlab, o‘zining “Devoni lug‘at-it turk” asarini yaratganligi hammamizga ma’lum. Bu soha bo‘yicha ilk tadqiqotchi olim desak hech adashmagan bo‘lamiz.

XX asrga kelib esa sho‘ra hukumatining mafkurasi tufayli faqat o‘zlashgan so‘zlarning izohlanganligini va shevaga xos so‘zlarni qo‘llaganlar millatchi sifatida ayblanganligini ko‘rishimiz mumkin. Tolib Enazarov o‘zining tadqiqotlari davomida shuni anglab etganligini aytib o‘tadiki: “Xuddi shu holat tufayli katta ilmiy xodim, filologiya fanlari nomzodi Ahmad Ishaev eshik yoki deraza ochilganda kirib kelayotgan mayin shamol, shabadani “yelvizak” so‘zi bilan atash mumkinligini o‘zining bir maqolasida bayon qilgani uchun XX asrning 70-yillari boshida millatchilikda ayblanib, ishdan haydalganligini shu olimning o‘zi biz yoshlarga aytib bergandi”⁴⁵ Bundan ma’lum bo‘ladiki, sho‘rolar davrida sheva xos so‘zlarga e’tibor unchalik yaxshi bo‘lmagan.

XX asrning 50-yillaridan boshlab dialektal lug‘at tuzish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Bunga misol tariqasida ham ijodkor, ham lug‘atshunos olim sifatida Abdulla Qodiriyni aytishimiz mumkin⁴⁶. Dialektal so‘z va uning ma’nosi haqida gapiradigan bo‘lsak, buni Alibek Rustamov “el ma’no” ya’ni sheva xos ma’no deb atagan⁴⁷.

XX asrning 50-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab dialektal so‘zlar masalasiga amaliy jihatdan e’tibor berish boshlangan. Natijada yosh dialektolog olimlarning sheva so‘zlarini jamlagan katta-kichik ilmiy maqolalari o‘sha davr mafkurasi tomonidan va mavqeyi o‘sha davr ilmiy jurnallari darajasida e’tirof etilgan. Ilmiy to‘plamlarda birin-ketin nashr etilla boshlangan. Shu ilmiy to‘plamlarda bosilgan ko‘p maqolalar o‘rganilayotgan shevalarning fonetikasi va morfologiyasiga oid materiallar bilan birga shu

⁴⁵ “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari 2021-yil 22-may

⁴⁶Нормаматов С. Э. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни. 10.00.01 – Ўзбек тили. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2019. – В. 19-21.

⁴⁷ Рустамов А. Сўз хусусида сўз.. – Тошкент: Extremum press, 2020. – В. 94.

sheva leksikasiga oid dialektal soʻzlarning talqini, tavsifi va ilmiy tahlillarga asoslangan izohlari berilganki, goʻyo shevaning fonetikasi, leksikasi va morfologiyasining materiallarini ilmiy kitob boʻladigan hajmdagi katta hajmli bir maqolada jamlay olishgani ham dialektal soʻz masalasiga oydinlik kiritadigan dalillardan biridir.

Shu davrda esa dialektal soʻz muammosi boʻlgan “Sheva(lar) lugʻati qanday boʻladi?”, “Dialektal lugʻat qanday tuziladi?” degan savvollarga F.Abdullayev, M. Mirzayev, A. Gʻulomov va Ishayev kabi taniqli olimlarning tavsiya va mulohaza mazmunidagi maqolalari ham eʼlon qilingan⁴⁸. Goʻyo mana shu maqolalarning mohiyatida sheva soʻzi, dialektal soʻz, dialektal soʻz turlari, dialektal lugʻat maqola va dialektal lugʻat kabilarning qisman nazariy va koʻproq amaliy ahamiyatiga molik boʻlgan fikr-mulohazalari mavzuga doir ilk tezislar shaklida berilgan. 1971-yilda “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati”ning qisqa hajm va mazmunda berilishi bilan yanada kuchaygan. Bu lugʻatda dialektal soʻzlar qisman boʻlsa ham yoritib berilgan. Undan keyingi dialektal lugʻatlar olimlarning shaxsiy mablagʻiga chiqqanligi uchun leksik va leksikografik nuqtayi nazaridan xatolari boʻlsa ham, soha, qishloq, mahalla, guzar, shahar va viloyatlarning shevalariga oidligi bilan alohida ajralib turgan. Toʻgʻri, 1971-yilda yaratilgan “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati”da sheva terminlari va sheva turlariga ham toʻxtalib oʻtilgan, lugʻat tuzishga Ahmad Ishayev boshchilik qilgan. 1988-yilda “Shevalar lugʻatiga kiritiladigan soʻzlar” deb nomlangan maqola va 1989-yilda “Oʻzbek dialektal leksikografiyasi” nomli monografik tadqiqot katta ilmiy xodim Ahmad Ishayev tomonidan tayyorlanib, nashr etilgan⁴⁹ Muallif oʻzining dialaektal soʻz, dialektal leksika, dialektal leksikografiya toʻgʻrisidagi fikrlarini meʼyor darajasida keltirishga harakat qilgan.

Bulardan shunday xulosaga kelish mumkin. Dialektal soʻzlar hali qisman tadqiq etilgan, uning ichiga kirib oʻrganishimiz kerak boʻlgan

⁴⁸ Абдуллаев Ф. А. Дialektal луғат тузиш принциплари // ЎТА. – Тошкент: 1966.2-сони.– В. 35-41.

⁴⁹ Ишаев А.Шевалар луғатига киритиладиган сўзлар. Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. 2-сони. – Б. 37-42.

masalalar juda ko'p. Hozirgi paytdagi vaziyat bizdan shuni talab qilib turibdi, fan-texnika taraqqiyoti natijasida eski avlod tilidagi dialektal so'zlarni asrab qolish bizning vazifamiz hisoblanadi. Badiiy asar tilidagi dialektizmlar ana shu tilning kitoblarga yoyilgan oltin, kumush, javohirlaridir. Yozuvchi va shoirlarimiz esa xuddiki kondagi konchiga o'xshab er qaridan qimmatbaho tosh va qimmatbaho qazilmalarni to'plab, bizga saralashga beruvchi mutaxassisdir.

2.1. Dialektal leksikaning adabiy tilga munosabati

Umumxalq tilining ikki tomoni mavjud: adabiy til va jonli til. Adabiy til tarixan shakllangan, asos e'tibori bilan umumxalq tilining so'z ustalari tomonidan ijodiy boyitilgan va qayta ishlangan, sayqal berilgan, me'yoriy va jamiyatda kishi faoliyatining hamma sohalari bilan bog'langan badiiy-publitsistik, ilmiy adabiyot tilidir. Adabiy til grammatik qurilishi va lug'at tarkibi jihatidan me'yorlashtirilgandir. Adabiy til so'zlarni qonun-qoidaga muvofiq so'z ma'nosidan kelib chiqib, morfologik va sintaktik xususiyatlariga ko'ra, orfografik va orfoepik xususiyatlarni hisobga olib me'yorlashtiradi. Sheva esa m'lum hududdagi aholining so'zlashuv tilidir. U yozuv bilan maxsus ta'minlanmagani, ma'lum me'yorga tushirilganligi, qoidalashtirilmagani, qo'llanish doirasining cheklanganligi bilan farqlanadi. Adabiy me'yor ongli aralashish orqali qayta ishlangan, tanlangan baholangan xususiyatlardir. Leksik, fonetik, orfoepik, orfografik, grammatik me'yorlar mavjud.

Shevalar har bir xalqning umumiy milliy tarkibiga kiradi, lekin ular shu milliy adabiy tildan o'zining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanadi. Demak, sheva milliy adabiy tilning bir tarmog'i sanaladi. O'zbek adabiy tili murakkab tarixiy jarayonda tashkil topgan. Eski o'zbek tilida yozilgan asarlar umumxalq o'zbek tilida yozilgan bo'lib, ularda turli mahalliy shevalarning xususiyatlari aks etgan edi. Masalan: bir asarda yaqin

soʻzi uchrasa, ikkinchi asarda esa shu maʼnoda yovuq soʻzi uchraydi⁵⁰. Demak, shevalarga xos boʻlgan soʻzlarda ham maʼnoviy oʻzgarishlar boʻlib turadi. Adabiy tilning orfoepik qoidalari hamma shevalar uchun umumiy boʻlgan bir xil talaffuz meʼyorlarini hosil qiladi. Aynan shuningdek, adabiy tilning orfografik qoidalari shevalarimiz uchun soʻzlarni toʻgʻri yozish meʼyorlarini amaliy jihatdan kuchaytirishga yordam beradi.

Oʻzbek adabiy tili xalq shevalaridan oʻziga quvvat oladi, chunki sheva boʻlmasa adabiy tilimizning kelajagi boʻlmaydi. Hayotiy energiya olib turadigan asosi boʻlmasa, har qanday adabiy til vaqt oʻtishi bilan oʻlik tilga aylanadi. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosiy va rivojlanish poydevoridir. Bularni ilmiy adabiyotlarda sheva va dialekt terminlari bilan atash hollari kuzatiladi. Shu oʻrinda shevashunosligimizning buguni hamda kelajagi haqida oʻylab koʻrib, shuningdek, bu sohada ilmiy ishlari bilan tanilgan bir qancha tadqiqotchi olimlarning fikr mulohazalarini eʼtiborga olib, bu mulohazamizni yoritdik.

Shevashunosligimizning tarixi XI asrning mashhur tilshunosi Mahmud Qoshgʻariyga borib taqaladi. Uning “Devoni lugʻatiit turk” asari turkiy xalqlar shevalarining soʻzligini arab tilida izohlab, oʻzida jamlagan mukammal va bebaho lugʻatlardan biri hisoblanadi. Shu asarning “Indeks lugʻati” ham olimlarimiz tomonidan yaratilgan. Mana shu lugʻat bahona turkiy qabila urugʻlarning tillari bir bobo tildan rivojlanib, taraqqiy etganligi haqidagi ilmiy nazariy qarash dalillar asosida tasdiqlandiki, bu hol ona tilimizning oʻziga xos nufuzini va tarixiy taraqqiyotini dalillar vositasida tasdiqlab turibdi. Buyuk matafakkir hazrat Alisher Navoiy ham bundan sal kam olti asr oldin mana shu turkiy tilda, yaʼni eski oʻzbek adabiy tilida sheʼrlar yozib, olamni quolsiz holda, qalam bilan egallagan. Shuning natijasida oʻsha vaqtda Xuroson hukmdori boʻlgan Husayn Boyqaro tilimizga davlat tili darajasini berish toʻgʻrisidagi davlat farmonini bergan. Xonliklar

⁵⁰ Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. Gʻ. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent.: Universitet, 2012. – B. 20.

davrida ham garchi o'sha vaqtda tilimiz bo'yicha chuqur ilmiy asoslarda tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsa-da, tilimiz ijtimoiy hayotdagi mavqeyini saqlab qolganligi va kuchaytirganligi tarixda hech ham rad qilib bo'lmaydigan dalillar orqali o'z ifodasini topgan. XX asrning 20-80-yillarida tilimizga sho'rolar tomonidan erkinlik berilmagan bo'lsa ham, bir qancha rus sharqshunos olimlari bilan bo'lgan harakatlarda ona tilimiz hamda uning asosiy manbasi bo'lgan shevalarimizni ham ilmiy, ham amaliy asoslarda o'rganishni tadqiq qilib boshlashgan edi. Bu olimlar shevalarimiz haqidagi ilmiy ishlari bilan adabiy til haqida gapirish uchun shevalarini o'rganish lozimligi masalasini dalillar vositasida ko'ra olishdi. Natijada, E. D. Polivanov, K. K. Borovkov, I. I. Zarubin, K.K. Yudaxin kabi o'nlab sharqshunos hamda dialektolog olimlarning shevalarimiz to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlari bugungi kunda ham shevalarimizni o'rganish bo'yicha bebaho manbalar qatoridan ularning ilmiy ishlari o'rin olganligini tan olish shart. Rus olimlarining tadqiqotlari natijasida o'zbek dialektologlari ham katta ilmiy yutuqlar erishishdi. Hatto, bu davrda o'zbek dialektologiyasi va umuman, o'zbek tilshunosligi masalalari bo'yicha bir qancha ilmiy anjumanlar ham bo'lib o'tgan.

1989-yilning 21-oktabrida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Shu maqomni bergan qonun ona tilimizga, o'zbek xalq shevalariga jiddiy etibor berib, ilmiy tadqiqotlar olib borishga qonuniy imkoniyatlarni yaratib berdi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng davlatimiz miqyosida dunyo jamoatchiligi e'tiborini tortadigan darajada xalq manfaati nuqtayi nazaridan juda ko'p ishlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda. Ammo ba'zi bir sohalar e'tiborimizdan qolib ketmoqda. Mana shunday sohalardan biri, albatta, o'zbek shevashunosligi hisoblanadi. Shunday holatga sabab nima? Bu holga bizningcha quyidagi holatlar sabab bo'ldi: 1. Mustaqillik bizga ko'p narsa berdi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng shevalarimizni ilmiy asoslarda nazariy va amaliy jihatlardan o'rganish masalasiga katta e'tibor kerak bo'lib qoldi. Shevalarimiz ham tilimiz singari taraqqiyotda ekan, ularni

ma'lum bir davrlarda ham amaliy, ham nazariy jihatlardan o'rganish, ular asosida ma'lum nazariy xulosalarga kelishning zarurligi tabiiy hol. Chunki Mahmud Qoshg'ariy o'z asarida qo'llagan so'zlar bugun shevalarimizda kam qo'llanmoqda va ba'zilari umuman ishlatilmayapti va hatto XX asrning 70-yillarida qayd etilgan dialektal so'zlar ham qo'llanmayapti. Sababini olimlarimiz qirq yildan beri ilmiy tadqiqot ishlari shevalarni va dialektal so'zlarni o'rganish bo'yicha yaxshi ish olib borilmayotganligini asos qilishadi. XXI asr olimlarining zimmasida Mahmud Qoshg'ariydan ham yuqoriroq turib sheva va dialektal so'zlarni o'rganish kutib turibdi. Davlatimiz tomonidan hozirda barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ona tilimizning o'zagi bo'lgan shevalarimizni o'rganib, ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etish uchun bamaslahat holda ish yuritib, xalq ommasiga ham, rahbariyatimizga ham tushuntirishimiz zarur. Bunday masalada erishilgan yutuqlarimizdan biri: o'zbek xalq shevalarining lug'aviy boyligini o'zida jamlagan va umumiy holni ifodalaydigan bor yo'g'i bittagina "O'zbek xalq shevalar lug'ati" yaratilgan. Uni etakchi olim, etakchi ilmiy xodim Ahmad Ishayev tuzgan. O'zbek shevalarida qarindosh-urug' nomlari bilan birga 9500 (to'qqiz yarim ming) atrofida shevalarimizga oid dialektal so'z mavjud. Bu lug'atning sobiq sho'ro davrida yaratilganiga e'tibor bersak, bunday lug'atning yaratilishi ham o'sha vaqtdagi dialektolog olimlarning katta muvaffaqiyatlaridan biri bo'lganligini e'tirof etish kerak. Shu bilan birga tadqiq etilgan har bir sheva bo'yicha so'zlar o'sha tadqiqotlarda hali hanuz qolib ketmoqda. Bizningcha, ular leksikografik nuqtayi nazardan saralangan holda kelajakda yaratiladigan ko'p tomli "O'zbek xalq shevalari lug'ati"da qayd etilishi maqsadga muvofiqdir.

Globalashuv va integratsiya avj olayotgan bugungi davrda har bir millat o'zligini, madaniyatini, qadriyatlarini va tilini saqlab qolishga intilmoqda. Bu tabiiy jarayonda har bir xalq o'z o'tmishining kelajak bilan bo'ylasha olishi uchun o'z ona tilini avlodlarga imkon qadar sof va asl holda etkazishi zarur. Aks holda millatning nomi ham, uning tili ham tarix

qa'rida yo'q bo'lib ketishi mumkin. Xalqimiz asrlar mobaynida til sofligi va ravnaqi uchun kurashib kelgan.

Tilshunosligimizning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik lakuna (bo'shliq)larni to'ldirish, bu borada shevalardagi so'zlarni adabiy tilga olib kirish va shu asosda til leksikasini boyitishdir. Bu borada ayrim ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, til leksikasining bo'shliqlarini sheva so'zlari bilan to'ldirishga alohida diqqat qaratilmagan. So'nggi yillarda o'zbek adabiy leksikasining xalq shevalari bilan boyitish masalalari mazkur jarayonda amal qilinadigan qonuniyatlar, lingvistik va ekstralingvistik omillar kabi masalalarni o'rganishga maxsus bag'ishlangan ishlar oz. Mazkur masalaga bog'liq va qisman aloqador ishlar sanoqli. Masalan: F.Abdullayevning "Til qanday rivojlanadi?"⁵¹, G. Muhammadjonovanning "O'zbek tili leksikasi taraqqiyotining ta'siri haqida", N. G'ulomovanning "Русские лексические заимствования в узбекском языке" nomli ishlarida mazkur masalalarga u yoki bu darajada murojaat qilingan. Ammo mazkur tadqiqotlar ancha yillar oldin amalga oshirilgan. Bu esa hozirgi paytda til leksikasini sheva so'zlari bilan boyitish masalasiga jiddiy ahamiyat qaratish majburiyatini yuzaga keltiradi. Mazkur holat tilshunosligimizda quyidagi muhim vazifalarning bajarishini taqozo etadi:

- Adabiy me'yor darajasiga ko'tarilgan sheva so'zlarining lisoniy xususiyatlarini uning barqarorlashuv jarayoniga bog'lab o'rganish;
- Til lug'at tarkibiga kiruvchi sheva so'zlarining omma tomonidan qabul qilinish jarayonlarini o'rganish;
- Sheva so'zlarning qo'shimcha vazifalarni bajarishdagi imkoniyatlari va ularning yuzaga chiqish jarayonlarini tadqiq etish;
- Sheva so'zlarining hozirgi o'zbek adabiy tilida leksikasini boyitish manbayi sifatidagi ahamiyatini yoritish;
- Sheva so'zlari va milliy madaniyat munosabatini tavsiflash;

⁵¹ Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? –Тошкент.: 1972..

- Sheva soʻzlarida qadimiy va zamonaviy til xususiyatlarining namoyon boʻlishini tahlil etish;

- Turli sohalarga oid leksik lakunalarni sheva soʻzlari bilan toʻldirish borasida ilmiy takliflar ishlab chiqish va uni asoslash;

- Yangi tushunchalarni nomlash jarayonida shevaga oid soʻzlardan unumli foydalanish mezonlarini ishlab chiqish va hokozolar. Tilning taraqqiyotida uning leksikasi boshqa sathlariga nisbatan tez va sezilarli darajada oʻzgarishlarga uchrashi koʻpgina adabiyotlarda qayd etilgan⁵². Chindan ham, borliqda sodir boʻladigan har-xil oʻzgarishlar natijasida yuz beradigan, paydo boʻladigan narsa va hodisalar, jarayon va holatlar, eng birinchi navbatda, tilda uni nomlovchi maxsus atamalar boʻlishini talab etadi. Ana shunday sabablar tilda yangi-yangi soʻzlarni paydo qiladi va til lugʻat tarkibi boyib boradi. Shubhasiz, bu jarayonda sheva soʻzlarning adabiy til leksikasini boyitishda asosiy manba boʻlishi oʻz-oʻzidan ayon. Ammo har qanday sheva soʻzlari ham adabiy til birligi darajasiga koʻtarila olmaydi. Buning ustiga koʻp shevalarga ega boʻlgan oʻzbek tili uchun bu holat tabiiy tartibni keltirib chiqaradi: bir tushunchani ifodalash uchun bitta soʻzni adabiy tilga qabul qilish etarli.

Oʻzbek adabiy tiliga baho berilganda XX asrgacha va undan keyingi davrni inobatga olish zarur. Dialektologlarimiz tomonidan bu yoʻnalish oʻrganilganda ikki farqli tomon aytib oʻtiladi: 1. Adabiy tilning barqarorlashuvi (normalashuvi)da OAV hamda soʻz ustalari shoir va adiblar asarlari katta ahamiyatga ega boʻladi. 2. Tilning boyish va rivojlanish jarayonlariga boshqa tillarning faol taʼsiri salbiy natijaga olib keladi⁵³. Taʼkidlash joizki, XX asr boshlarida oʻzbek tilining boshqa tillar bilan boʻlgan aloqasi bu jarayonni biroz orqaga tortdi, ayniqsa, rus tili bilan boʻlgan aloqa u til orqali boshqa chet soʻzlar oʻzbek tiliga oʻzlashdi. Lekin

⁵²Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари.—Тошкент.: Фан, 1982.

⁵³ Hasanov Abdumannon Majidovich Dialektlar – til leksikasini boyitish manbayi “Oʻzbek tilini dunyo miqyosida keng targʻib qilish boʻyicha hamkorlik istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2020-yil 19-20-oktabr

XX asrning boshlaridan dialektolog olimlarimiz tomonidan barcha o'zbek shevalaridan so'z olishimiz mumkinligi aytib o'tganlar⁵⁴.

Albatta, adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli bo'lgan shaklni qabul qiladi. Barqarorlashgan adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda jamiyatning dolzarb muammolari adabiy til sanaladi. Adabiy til deganda ba'zan uni turli ko'rinishlari bilan qorishtirib yuboradilar. Masalan: yozma adabiy til va og'zaki adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan adabiy tilni ayni bir deb bo'lmaydi. U ham yozma, ham og'zaki shakllarda amalda qo'llanadi. Badiiy asar tili ham adabiy tilga bo'ysunsa ham, lekin ko'plab xususiy jihatlari bilan undan farq qiladi. Turli xalqlarda hamma davrlarda adabiy til bilan badiiy asar tili bir yaxlitda bo'lmagan. Adabiy til bilan milliy til o'rtasida ham tafovut bor. Milliy til shu tilning egasi bo'lgan xalq millat bo'lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasini o'taydi, lekin har qanday adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi. Adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabat alohida muammoni tashkil etadi.

Shevalar qanchalar barqaror bo'lsa, adabiy til uchun shu tilda muloqot qiluvchilarni birlashtirish shunchalar murakkablashadi. Bunga misol tariqasida: Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Italiya va boshqa davlatlarni aytish mumkin. Chunki bu davlatlarda shevalar bilan adabiy til birday ishlatiladi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o'zbek adabiy tili rivojini ta'minlovchi muhim voqea bo'ldi. O'zbek adabiy tili turli xalqlar adabiy tili rivojlanishi tajribasini yanada takomillashtirib bormoqda. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 34-yil to'ldi. O'tgan davr ichida o'zbek adabiy tilini shakllantirish, uning maqomini yanada oshirish yo'lida xayrli va e'tiborga molik ishlar qilindi. Davlatimizning rasmiy hujjatlari o'zbek tilida rasmiylashtiriladigan bo'ldi. O'zbek tili ilmiy til sifatida ilm-fanning deyarli

⁵⁴Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. –Тошкент.: 1960.

barcha tarmoqlarida foydalaniladigan, ilmiy tadqiqotlar shu tilda bajariladigan va himoya qilinadigan darajaga ko'tarildi.

Hozirgi paytda o'zbek adabiy tilidagi shevadan so'z olish ham tilning ichki imkoniyati deb yuritiladi. Bunda umumadabiy tilga shevadan olinadigan so'zlar ikki xil xususiyatga ega bo'lishi mumkin: 1) ma'lum hududdagi mavjud bo'lgan narsalarni ifodalovchi so'zlar ham bo'ladi. Adabiy tilda biron sohadagi atamani ifodalash zarurati tug'lsa shu soha rivojlangan joydan so'z olish mumkin, chunki bu soha rivojlanganligi uchun nomlash imkoniyati mavjud bo'ladi. 2) ma'lum bir hudud bilan chegaralanmagan narsa-hodisani ifodalovchi so'z barcha shevalarda emas, balki ularning ayrimlarida bo'lishi mumkin. Bunday so'zlar vaqti kelib adabiy tilga qabul qilinadi. Masalan: Ruscha skvoznyak so'zi bildirgan hodisani bildiradigan so'z 50-yillargacha ham o'zbek adabiy tilida yo'q edi. R.Abduraxmonov tahririda 1954-yilda nashr etilgan "Ruscha-o'zbekcha lug'at"da *сквозняк* so'zi "g'o'rillagan shamol" bir yoqdan kirib ikkinchi yoqdan chiqadigan shamol deb tarjima etilgan. Keyinchalik shevalarda bu hodisani bildiradigan "yelvizak" so'zi borligi ma'lum bo'ladi va u adabiy tilga kirdi. Bu so'zning adabiy tilga kirishida etakchi ilmiy xodim Ahmad Ishayevning xizmatlari katta hisoblanadi. Lekin shuni alohida qayd etish kerakki, adabiy tilning boyishida dialekt va shevalar yuqorida ko'rib o'tilgan yo'llarga nisbatan affiksatsiya usuli bilan va kalkalash orqali so'z hosil qilishga nisbatan u qadar sermahsul emas. Bunday bo'lishi ham tabiiy. Chunki dialektal so'zlar ma'lum hududdagi narsa-hodisalarni, ularga oid tushunchalarni ifodalovchi bo'ladi. Dunyo miqyosida paydo bo'layotgan narsa-hodisalarni ifodalash uchun dialektal so'zlarni qo'llash imkoni bo'lmaydi. Shunday holatlarda yangi paydo bo'lgan tushunchani ifodalash uchun tilning o'z imkoniyatlari asosida yangi so'z yaratiladi yoki boshqa tilda shu narsa tushunchaning ifodachisi bo'lgan so'z o'zlashtiriladi. Xuddi shu boisdan bundan buyon leksikaning boyishida shevalarning adabiy tilga ta'siridan ko'ra adabiy tilning shevalarga ta'siri ko'proq bo'ladi. Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili

leksikasining boyishida o‘zbek shevalarining roli haqida gap borganda yuqorida ko‘rib o‘tilgan holatlarni aniq hisobga olish va bu hodisani obyektiv baholash kerak bo‘ladi. XX asrda o‘zbek tili leksikasining rivojlanishi bilan maxsus shug‘ullangan o‘zbek tilshunosi N. G‘. G‘ulomovanning bu haqdagi qarashlariga e‘tibor beraylik. Muallif o‘zbek adabiy tilida malina so‘zining qo‘llanishi nominative hodisa deb, ayrim shevalarda bu ma’noda xo‘jag‘at yoki maymunjon so‘zi qo‘llanishini aytadi. va shundan kelib chiqib malina so‘zini xo‘jag‘at so‘zi bilan almashtirish mumkinmi? Degan savol qo‘yadi va faqat rad javob bo‘lishi mumkin deydi. Buni asoslash uchun barcha sheva vakillari uchun tushunarli emasligi va bu ma’noda hammaga tushunarli bo‘lgan malina so‘zi qo‘llanayotganligini aytadi. qarag‘at – smorodina so‘zlari haqida ham muallif xuddi shunday fikr bildiradi, ya’ni qarag‘at emas, smorodina so‘zini adabiy tilga qabul qilish to‘g‘ri deb biladi. Shu o‘rinda e‘tiroz tug‘iladi: birinchidan, qanday yo‘l bilan adabiy tilga malina so‘zi mos kelishini isbotlandi? Ikkinchidan, barcha sheva vakillari uchun malina so‘zi tushunarli ekanligini qanday dalillash mumkin? Uchinchidan, o‘z tilida mavjud bo‘lgan so‘zning ifodasini boshqa tilda ifodalash qanday mantiqqa to‘g‘ri keladi? Keyingi rejalarimizda bu masalaga yana qayta yondashamiz.

1.3. Dialektizm va unga yondosh hodisalar

Tog‘ay Murod asarlarida dialektizmlarning barcha turidan unumli foydanilgan. Zero, yozuvchi asarlarining eng birinchi ko‘zga tashlanadigan xususiyati ham dialektizmlar orqali badiiy jozibadorlikka erishilganligidir. Shuningdek, badiiy asar qahramonining hududiy mansubligini ta’kidlab, nutqining individualligini ta’minlaydi. *Ha, shuyakan! Ashurboy, qo‘ylarni ushlab, og‘ilxonaga qamang!* (Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»). *Bo‘rining onasi qo‘y-echkilarni ko‘ganladi.* («Yulduzlar mangu yonadi» Tog‘ay Murod).

Jamiyat o‘sib-o‘zgarib borar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayotdagi ba’zi tushunchalar tamomila eskirib, chiqib ketadi. Badiiy asarda muayyan davr voqealari tasvirlanar ekan, ana shu davrga oid bo‘lgan eski tushunchalarga murojaat qilmaslikning also iloji yo‘q. Tilshunoslikda bunday tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlar “arxaizmlar” va “istorizmlar” degan nomlar ostida umumlashtiriladi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan til birligi arxaizm deb yuritiladi. “Arxaizm o‘zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik birlik bilan yonma-yon yashaydi.”⁵⁵ Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini aniq tasvirlash, asarning tarixiy ruhini ta’minlash maqsadida qo‘llanadi. O‘rdu-qo‘shin, handasa-geometriya, tilmoch-tarjimon, mirza-kotib, sadr-rais, lak-yuz , ming kabi so‘zlar ishlatilganda davr ruhi ta’kidlangan hisoblanadi. Arxaik so‘zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham uslubiy vosita sifatida ishlatiladi. *Ana shunda bobomiz Oqpodsho ketida turmish Xoliqul mingboshi **tilmoch**ini tanib qoladi.* (Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”). Parchada qo‘llangan **tilmoch** so‘zi arxaik so‘z hisoblanadi.

Hozirgi kunda uchramaydigan faqat badiiy asarlarda tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi so‘zlar (istorizm “tarixiy so‘zlar”) deyiladi. Istorizmning arxaizmdan farqi shundaki, bugungi kunda o‘sha tarixiy voqelikning o‘zi ham uni anglatuvchi boshqa leksik birlik ham bo‘lmaydi, xullas, istorizm o‘zi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir. Masalan: amin, pristav, mingboshi, noyib, ellikboshi, ponsad kabilar badiiy matnda ishlatilganda kitobxon tarixiy voqelikni ko‘z oldiga keltiradi. Tarixiy so‘zlar ham tarixiy voqelikni aniq ifodalash maqsadida qo‘llanadi⁵⁶.

Badiiy asar tilidagi eskirgan so‘zlarni tahlil qilishda asar yozilgan davrni chetda qoldirmaslik zarur. Chunki “so‘zlar yozuvchi yashagan, ijod etgan davrdayoq eskirgan bo‘lishi mumkin bo‘lganidek, asar yozilgan davrda

⁵⁵Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент, Университет, 2006, – В. 45.

⁵⁶ Muhabbat Kurbanova, Ma’rufjon Yo‘ldoshev. Matn tilshunosligi. – Toshkent.: Universitet, 2014. –B. 11.

faol iste'molda bo'lib, keyinchalik iste'moldan tushgan"⁵⁷ bo'lishi mumkin. Yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida ham istorizm va arxaizm so'zlar talaygina.

Masalan, ***Oqpodsho** kadiga egilib qaraydi. Qatiqqa tupuradi. Balg'amlab-balg'amlab tupuradi:*

— *Tuf, ah, tuf!*

***Oqpodsho** etik uchi bilan Ibodin soqov iyagiga turtadi.*

— *Bo'ldimi, chuchela? — deydi. — Qani, endi yur.* (Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar"). Bu badiiy matndan berilgan parchada qo'llangan **oqpodsho** istorizm so'z bo'lib tushuncha bilan shakl ham eskirgan, faqatgina yozuvchi tomonidan shu jarayonni jonli tasvirlash uchun qo'llanmoqda.

— *Ayollar, erkagingiz **bosmachi** bo'p ketibdi, shu chinmi, deydi. — Dehqonqul! Bosmachi demanglar. Necha marta aytaman, **bosmachi** demanglar deb. — Bari ayol shunday deydi. — Desa deya beradi-da. Bosmachi bo'lib, qaysi yurtni bosib olibmiz? Bosmachi bo'lib, qaysi elni talon-toroj etibmiz? Dehqonqul! **Bosmachi** degich gapni ular o'ylab topdilar. — Kimlar? — Kimlar bo'lardi — qizillar-da. Kimlar bo'lardi — padar la'nat cho'chqalar-da. Cho'chqalar o'zlari yurtimizga bostirib keldi. Yana tag'in, bizni **bosmachi** deb atadi. Padar la'nat cho'chqalar o'zlarini yorliqlarini bizning peshonamizga yopishtirdi.* (Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar") Mana shu badiiy parchamizdagi "bosmachi" so'ziga e'tibor beramiz, yozuvchi tomonidan bayon qilinayotgan voqea-hodisada bu so'z neologizm sifatida ishlatilmoqda. Lekin hozirgi kunda bu so'z ham u anglatgan tushuncha ham eskirgandir.

— *Bu safar hayallab qoldi?*

— *Ko'lobda bo'ldik. Ibrohimbek qo'rboshi hazratlari qo'lida mashq oldik.*

— *U kishi kim bo'ldi?*

— *U kishi islom lashkari sorboni bo'ladilar.*

Ibrohimbek hazratlarini qo'rboshimiz desak-da bo'ladi, amirimiz desak-da bo'ladi. Boisi, amirimiz o'z joylariga Ibrohimbek hazratlarimizni tayinlabdilar-

⁵⁷ Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи. — Самарқанд, НД, 2003. — В. 38.

da, o'zlari Afg'oniston sari siporish beribdilar. (Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar"). Badiiy matndan keltirilgan parchada **qo'rboshi, amir** so'zlari tarixiy so'zlar hisoblanadi.

Vulgarizm, varvarizmlar qo'llanish darajasi chegaralangan so'zlar guruhiga kiradi. Vulgarizmlar – haqorat ma'nosida qo'llanadigan so'zlar. Bunday so'zlar adabiy tilning birligi sanalmaydi, ular nutqqa olib kirish madaniyatsizlik sanaladi, ammo badiiy matnda bunday so'zlardan uslubiy vosita sifatida foydaniladi.

Ushbu leksik qatlam nutqda ko'p hollarda ekspressivlikni ifodalaydi, ya'ni bunday vositalar so'zlashuv nutqida ishlatiladi. Yozuvchilar tomonidan ekspressivlikni ko'rsatish uchun badiiy matnga olib kiriladi. Mana shunday yo'l bilan yozuvchi badiiy asaridagi qahramonning dunyoqarashi va saviyasini ko'rsatadi.

Vulgarizmlarda o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko'rinib turgan bo'ladi. Bunday so'zlar ko'proq nominativ ma'nolariga ko'ra emas, ayni shu konnotativ ma'nolariga ko'ra nutqda yashaydi⁵⁸.

Yozuvchi Tog'ay Murod o'zining asarlarida vulgarizmlardan o'rinli foydalangan. Masalan, *Botir firqa bir qimirlab oldi. Uyoq-buyog'iga qaradi. Madievni nutqidan hayron bo'ldi. «Galvars... gapni olisdan boshladi. Yaxshilikka bo'lsin... — deya o'yladi. — Baribir, gapini bizga olib kelib taqaydi. Ishqilib, otimni atamasa bo'ldi. El-yurt oldida sharmanda qilmasa bo'ldi».* *Botir firqani ko'ngli... shomdan-da shom bo'ldi. Botir firqani ko'ngli... shomdan-da ma'yus bo'ldi, shomdan-da mungli bo'ldi.* (Tog'ay Murod "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi").

— *Juvonmarg bo'lgur muslimlar!* — dedi Botir firqa. — *Ha, biz Qizilmiz, Qizil! Ammo-lekin biz Qizil bo'lib, yaratdik! Biz Qizil bo'lib, qurdik!* (Tog'ay Murod "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi").

— *Bilaman, bilaman... — deya ming'illadi.*

⁵⁸ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent.: 2007. – B. 60.

— *Nimani bilasan, nimani bilasan?— deya bidilladi Botir firqa.*

— *S privetom... anaqaroq bo‘lib qolganingizni.*

— *He, enangni... — deya o‘dag‘ayladi Botir firqa.*

Kampiri hovliga yugurgilab chiqdi. Hovli o‘rtasida kaft dunyoda o‘lib b ini og‘ziga qo‘yib kuldi. Ko‘zlarini artib-artib kuldi. (Tog‘ay Murod “Bu o‘lmaydi”). *G‘animat g‘arniki, deydilar,-dedi Botir firqa.* (Tog‘ay Murod “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”). - Dehqonqul! Shu **enag‘arga** aytib qo‘y, qadamini tortsa tortdi, tortmasa, o‘z qo‘lim bilan kallasini olaman. (Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”). - Ay, **kofir!** – deydi. – Bir dalamni harom qilding! Endi bu dalamni-da bulg‘ama! (Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”). Badiiy parchada ko‘rib o‘tganlarimiz vulgarizmlarga misol bo‘ladi. Yozuvchi personaj saviyasini, xulqini ko‘rsatish maqsadida shu so‘zlardan foydalangan. Vulgarizmlar ko‘pincha so‘zlashuv nutqiga xos hisoblanadi. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma‘nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo‘llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so‘zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi⁵⁹. Yozuvchi benihoya hissiy holatni, g‘azab, alam, qayg‘uni ifodalash uchun haqorat so‘zlardan foydalanadilar.

Badiiy matnda muayyan tasvir maqsadi bilan o‘zga tilga oid so‘z va iboralar ishlatilishi mumkin. Tilning lug‘at tarkibiga kiritilmagan, ular og‘zaki nutq doirasida ishlatiladi. Badiiy nutqda voqealar bo‘lib o‘tayotgan vaziyatga ishora qilish uchun, asar qahramonlari xarakterini jonli berish maqsadida bunday so‘zlardan foydalanadi. Bunday birliklar varvarizmlar deb yuritiladi. Varvarizmlarni qo‘llanishiga ko‘ra shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin: 1) atayin tilni buzib qo‘llash orqali yozuvchi shu muhitda yashovchi qahramon xarakterining salbiy holatlarini ko‘rsatish maqsadi; 2) boshqa chet so‘zlarni aynan keltirish orqali ana shu til vakilini o‘z tilida gaplashishga undaydi, bu holat ijobiy qabul qilinadi. Yozuvchi Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan varvarizmlar holat va jarayonga mos tushgan.

⁵⁹ Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2005. – B. 203.

— *Chto za baran?! — deya baqirdi. Men bir qo‘lim bilan qayishimni ushladim, bir qo‘lim bilan betimni ushladim. — Ay, o‘ldim-ay! — deya shahd burildim. Ketimdan bir mallasoch ayol quvib keldi. Xaltachasi bilan elkam oralatib urdi. — Ux, ti baran! — deya urdi. Bir tarafdin erkaklar chiqib keldi. Erkaklar orasida bir melisa-da bo‘ldi* (Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”).

- *Ta-ak*, endi navbatdagi yangi mashinani sinovdan o‘tkazamiz kabi varvarizmlar badiiy asar uslubini yanada yorqin ochgan. (Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”). Tog‘ay Murod asarlarida asarlarida varvarizmlar ham o‘rinli qo‘llangan. Bu orqali yozuvchi ana shu tuzum va holatni aniq oydin ochib bergan. Adib mahorati ana shu til birliklaridan o‘rinli foydalanishida namoyon bo‘ladi. Ko‘rib o‘tganimiz badiiy matndan olingan parchalar ham bunga yaqqol misoldir

Bob bo‘yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, biz bu bobda badiiy matndagi dialektizmlarning xususiyatiga atroflicha to‘xtaldik. Badiiy matndagi dialektizmlar o‘zining ma‘lum vazifani bajarishiga ko‘ra boshqa til birliklaridan kam emasligiga amin bo‘lamiz. Nafaqat, badiiy matn, balki o‘zbek tilshunosligida ham olib borilgan tadqiqotlarni birma-bir ko‘rib chiqdik. Bu sohada erishilgan yutuqlar talaygina, lekin ochilmagan muammo va masalalar ham ko‘pligini olimlarimizning fikr mulohazalaridan bilishimiz mumkin. Badiiy matn bo‘yicha tadqiqotlar XX asrning 70-yillariga borib taqalishini aytadigan bo‘lsak, hali bu yo‘nalishda unchalik katta tadqiqotlar mavjud emas.

Adabiy tilning dialektal leksika bilan bo‘lgan munosabatiga to‘xtaladigan bo‘lsak bu ikki termin bir-biridan ayro tushuncha emas. Shevaga xos so‘zlar adabiy tilning boyishida katta manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda ham sheva va adabiy til o‘rtasida uzviy aloqa mavjudligini bildik.

Uchinchi rejaga qaraydigan bo‘lsak, bu rejada mavzumiz bo‘yicha biroz amaliy yondashdik. Dialektizm va unga yaqin bo‘lgan til birliklari haqida ma‘lumot va fikrlarga ega bo‘ldik. Fikrimizni dalillash maqsadida

yozuvchi Tog‘ay Murod asarlaridan parchalar keltirib o‘tdik. Bob bo‘yicha ko‘rib o‘tilgan adabiyot, dissertatsiya, maqoladan ma’lumot olib o‘zimizning amaliy, ilmiy va nazariy xulosamizni chiqardik.

II BOB. BADIY MATNDA DIALEKTIZMLARNING

TURLARI BO‘YICHA TAHLIL

2.1. Fonetik dialektizmlar

Ma’lumki, umumxalq tili adabiy tildan tashqari o‘z ichiga bir qancha shevalar, dialektlarni ham oladi. Bular fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va boshqa xususiyatlari bilan umumadabiy tildan farq qiladi. Ayrim mahalliy dialektlarga xos bo‘lgan so‘z dialektizm deyiladi. Dialektizmlarning yig‘indisi dialektal leksika hisoblandi. Badiiy adabiyotda badiiy ruhni berish, qahramonlarni aniq ifodalash uchun dialektizmlardan foydaniladi. Ammo

bunday qo'llash bilan dialektal so'z adabiy tilga oid bo'lib qolmaydi. "...badiiy adabiyotda uchraydigan va muayyan sheva vakillari tomonidagina qo'llaniladigan so'zlar dialektal so'zlar deyiladi"⁶⁰.

Dialektizmlar bo'yicha tadqiqot ishi olib borgan B. Fayzullayevning fikricha, ayrim sabablarga ko'ra va ma'lum maqsadni ko'zlab, adabiy til tarkibida qo'llaniladigan, unda ma'lum bir vazifani bajaradigan alohida biror dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan so'z va so'z birikmalari dialektizmlardir⁶¹ Olim keyingi fikrlarida dialektizmning xususiyatlariga to'xtalib o'tib, dialektizmlar milliy tilning bir bo'lagi ekanligini, badiiy asarda mavjud bo'lmagan bunday til birliklari badiiy asar saviyasiga ta'sir qilishini, o'quvchilar tomonidan maroq bilan o'qilmasligini, negaki badiiy asar tili xalq hayoti bilan uyg'un ekanligini yozadi⁶².

Yozuvchilar o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan joy va muhitdan ayirmagan holda hayotdagidek ishonarli va tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib, dialektal so'zlarni ishlatadi. Dialektal so'zlar hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirishi bilan birga "badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi"⁶³ lekin ularning qanday estetik funksiya bajarishi, badiiy nutqda qo'llanish me'yori va dialektizmlarning turiga bog'liq bo'ladi

Badiiy asar tilining boy va jozibador bo'lishida dialektizmlarning o'rni va roli asosiydir. Badiiy asarning jonli va o'qishli bo'lishi yozuvchining badiiy asarda til birliklarini o'rinli qo'llash mahoratida namoyon bo'ladi. Personajlar nutqi orqali o'sha davr mafkurasi, til tuzilishi yaqqol ko'rinadi

"Yozuvchilar o'z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo'lgan holatning

⁶⁰O'zbek tili leksikologiyasi. "Fan", Toshkent, 1981, – B. 17.

⁶¹Fayzullayev B. Dialektizmlar va ularning badiiy adabiyotdagi o'rni. "O'zbek tili va adabiyoti". 1977, 4-son, – B. 35.

⁶² Fayzullayev B Badiiy adabiyotda dialektizmlarning stilistik vazifalari. Tilshunoslik masalalari. "Fan", Toshkent, 1978, – B. 212.

⁶³Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. Toshkent, Fan. 1981. – B. 24.

mahalliy belgisini bildirsagina dialektal soʻzlardan foydalanishi mumkin”⁶⁴. Togʻay Murod asarlarida oʻzbek tilining barcha boyligi oʻz oʻrnini topgan. U asarlari uchun maxsus soʻz tanlab oʻtirmagan, voqeani ifodalashga qaysi soʻz toʻgʻri kelsa oʻsha soʻzni asar ichiga singdirgan. Tan olish kerak, adib asarlarida dialektizmlarning soni ancha miqdorda. Sababi asarni jonli va qalbga yaqin qilib tasvirlash uchun yozuvchi bunday vositalardan koʻproq foydalangan. Shuning uchun yozuvchi asarlaridagi personajlar jonli va hayotiy chiqqan.

Baʼzi manbalarda dialektizmlarning uch xil turi farqlanadi:

1. Lugʻaviy dialektizmlar;
2. Grammatik dialektizmlar;
3. Fonetik dialektizmlar;

Togʻay Murod oʻzining barcha asarlarida bu turdagi dialektizmlarning hammasidan foydalangan. Yozuvchining asarlaridagi eng birinchi koʻzga koʻrinadigan xususiyati ham sheva elementlari orqali badiiy jozibadorlikka erishilganligidir. Masalan, yozuvchi asarlarida fonetik, leksik va grammatik shevaga xos soʻzlar obrazlilikni taʼminlab, jozibadorlik va uslubiy rang baranglikni yuzaga keltirgan.

Fonetik dialektizmlar, asosan, tovushlarni oʻzgartirib qoʻllash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qoʻllash koʻrinishlarida namoyon boʻladi⁶⁵.

Fonetik dialektizmlar adabiy tildagi soʻzlardan oʻziga xos fonetik xususiyatlari – unlilarning choʻziqligi va yumshoqligi, bir tovush oʻrnida boshqa tovushning ishlatilishi, tovush orttirilishi, tovush tushirilishi kabilar bilan farqlanadigan hodisa hisoblanadi⁶⁶. Mana shunday fonetik hodisalar Togʻay Murod asarlarida koʻplab uchraydi.

⁶⁴ Shomaqsudov A. va boshq. Oʻzbek tili stilistikasi. T., Oʻqituvchi, 1983, – B. 57

⁶⁵ Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Fan, Toshkent, 2007. – B. 59.

⁶⁶ Ibrohimova F. Omon Matjon poeziyasida dialektizmlar. Xorazm shevalarini areal oʻrganish. Toshkent, 1988, – B.lar. 32-39.

Ma'lumki, fonetik dialektizmlarda emotsional bo'yoq kuchli bo'lmaydi. Bundan tashqari, shevaga xos bo'lgan tovushlar sistemasini faqat transkripsiya orqaligina aniq berish mumkin⁶⁷. Lekin shunga qaramasdan, shevadagi fonetik o'zgachalikdan badiiy matnda estetik maqsad bilan foydaniladi. Chunki bunday o'zgachalik, avvalo, nutqqa jonlilik baxsh etadi, qolaversa, hududiy mansublikni ta'minlaydi.

Nutqda tovushlar yakka holda emas, balki so'z tarkibida birikkan holda keladi. So'zlarni talaffuz qilganingizda ayrim tovushlar o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi, natijada tovush o'zgarishi ro'y beradi. Masalan, ikki so'ziga jamlovchi son shakli qo'shilganda asos tarkibidagi bir unli talaffuz jarayonida tushib qoladi va yozmada ham shunday yoziladi. Nutq oqimida yuz beradigan bunday jarayonlar **fonetik jarayonlar** deyiladi. Fonetik jarayonlar tovushlarning bir-biri bilan bo'lgan aloqasida sodir boladi. Bu jarayon talaffuz boshlanishidan uning davom etishi va tugallanishi bilan tugaydi. Shunga ko'ra fonetik jarayonlar ikki xil: kombinator o'zgarishli va pozitsion o'zgarishli bo'ladi. so'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'siriga ko'ra o'zgarishi kombinator o'zgarishlar deyiladi. Bunday o'zgarishlarga assimilyatsiya, dissimilyatsiya, proteza, epiteza, ependeza, sinkopa, apokopa, reduksiya, eliziya kabi fonetik hodisalar kiradi.

Assimilyatsiya lotincha so'z bo'lib, "o'xshash bo'lish" degan ma'noni anglatadi. U tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida birining ikkinchisiga o'xshab qolishiga aytiladi. Odatda unlilar unlilarga, undoshlar undoshlarga assimilyatsiya qilinadi. Tovushlarning bir-biriga ta'siri yo'nalishiga ko'ra progressiv va regressiv asssimilyatsiya farqlanadi. Oldin kelgan tovush keyin kelgan tovushni o'ziga o'xshatsa progressiv assimilyatsiya, aksincha, keyingi tovush oldingisiga ta'sir qilib, o'ziga o'xshatsa regressiv assimilyatsiya deyiladi.

⁶⁷ Fayzullayev B. "Oltin vodiyan shabadalar" romanida dialektizmlar. O'zbek tili va adabiyoti, 1975. – B. lar. 62-65.

Yozuvchi Togʻay Murod asarlaridan koʻrib oʻtilgan hodisalarga misol keltiramiz. Regressiv assimilyatsiya:

— *Yo lchi yulduzlarini bola-chaqasi-yu, qarindosh-urugʻlariyam zindonimda yotibdi!* — *deya iljaydi.* — **Poshshong** *Usmonxoʻjaevni yigirma uchta bola-chaqasi bilan qarindosh-urugʻi yotibdi!* (Togʻay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”) **Poshsho podsho** yoki **podshoh** soʻzining oʻzgargan shakli boʻlib, keyingi **sh** tovushining taʼsiri natijasida oldingi tovush ham shunday tovushga aylangan.

Qaysi soha boʻlmasin, inson hamisha qulaylikka intiladi. Undagi bu xususiyat nutq jarayonida ham koʻzga tashlanadi. Agar talaffuz meʼyoriga eʼtibor berilsa, ayrim holatda baʼzi soʻzlardagi tovushlarning tushib qolganligi, yo ularning oʻrni almashganligi, yo soʻzning oldidan bir tovush orttirilganligi kabi turli fonetik jarayonlarning guvohi boʻlamiz. Shubhasiz, bu kabi tovushlarning oʻzgarishi kishilarning nutq jarayonida osonlikka, qulaylikka intilishi natijasida kelib chiqadigan hodisadir. Tilda bu kabi jarayonlar juda koʻp boʻlib, albatta, ular bir-biridan farq qiladi.

Dialektal soʻzlar qoʻllanilish jihatdan ikki guruhga boʻlinadi:

Progressiv dialektizmlar.

Regressiv dialektizmlar.

Progressiv dialektizmlarning tilda ekvivalenti boʻlmaydi. Predmet yoki hodisaning yagona ifodasi sifatida adabiy tilga oʻzlashib, adabiy tilni yangi soʻz bilan boyitadi. Regressiv dialektizmlarning esa tilda aniq ekvivalenti boʻladi: ogʻiz – ovuz, buzoq – buzov.

Fonetik dialektizm – tovush talaffuzi va tovush oʻzgarishiga bogʻliq turi (masalan, ovoz tovushlarining baʼzi dialektlarda choʻziqroq va yumshoqroq talaffuz qilinishi, ayrim dialektlarda bir tovush oʻrniga boshqa tovushning kelishi va boshqalar)”⁶⁸

⁶⁸ Носиров Ш. Шевага оид сўзлар ҳақида // Тил ва адабиёт таълими. №2, 1996, – В. 58.

Badiiy asarlarda shevalarning o‘ziga xosligi turli darajada namoyon bo‘lishi mumkin. Dialekt so‘zlarida qanday o‘ziga xos xususiyatlar uzatilishiga qarab, ularni to‘rtta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

1. Dialektning tovush tarkibi xususiyatlarini bildiruvchi so‘zlar - fonetik dialektizmlar.
2. Adabiy tildagi so‘zlardan grammatik shakllari jihatidan farq qiluvchi so‘zlar – morfologik dialektizmlar.
3. Badiiy asarning adabiy tilida uzatiladigan gap va iboralar yasalish xususiyatlari, shevalarga xos - sintaktik dialektizmlar.
4. Badiiy adabiyot tilida sheva lug‘atidan qo‘llangan so‘zlar leksik dialektizmlardir.

So‘zda bir yoki bir necha tovushning almashinishi fonetik dialektizmlarga xos. Bunday hodisalar Tog‘ay Murod ijodini ham chetlab o‘tmagan.

Quyida Tog‘ay Murod asarlarida uchraydigan fonetik dialektizmlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga harakat qildik.

Bobomiz bo‘yrachini gapga soladi.

— Sizdan oldin **ashiyoqqa** bir balo o‘tdi, — deydi bobomiz.

Salohiddin bo‘yrachi ariq o‘ngida oyoq iladi.

Badiiy matndagi **ashiyoqqa** so‘zi *ravish so‘z turkumiga mansub bo‘lib, ana shu yoqqa* degan so‘zining shevadagi ko‘rinishi hisoblanadi. Asar qahramoni tomonidan fonetik o‘zgartilib talaffuz etilmoqda. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)⁶⁹.

— *Qo‘qondan Olimquli lashkarboshi Chimkanga lashkar tortib ketibdi, deyatib edi-yu?* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)⁷⁰ **Chimkentga- Chimkanga** tarzida aytilmoqda, **a** va **e** tovushlari almashib qo‘llangan bitta **t** tovushi tushib qolgan, fonetik dialektizmga misol bo‘la oladi.

⁶⁹ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 2.

⁷⁰ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 3.

El Oqpodsho qarorgohilab kelgunichayin olaqaroq tun bo'ladi. (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar")⁷¹. **Kelgunicha** so'zida qo'shimcha tarkibida tovush ortishi mavjud. Tovush ortishi orqali fonetik dialektizm yasalgan.

Masjid qop-qora to'pon bo'ladi. (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar")⁷² Bu erda **to'pon-to'fon** tarzida yozilishi kerak. Tovush almashishi hodisasi sodir bo'lgan.

— *Ana, ol, o'zbek,* — *deydi Qurbon.* — *Qoraqirg'izda dala bo'lmaydi*⁷³ (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar"). O'zbek so'zida bir o'rta keng unli quyi keng unliga almashgan. Aslida **o'zbek** yozilishi kerak edi. Yozuvchi tomonidan muloqotni jonli tasvirda ko'rsatish uchun shunday yo'l tutilgan.

Bobomiz Oqpodsho yo'q yurt izlab yuradi-yuradi — Dushanba(e) keladi. Tovush almashishi mavjud⁷⁴.

— *Ayting, Sho'ro qanday odam, ayting!* — *deyman. Otamiz qoboq uyub ichkarilaydi*⁷⁵. Ushbu badiiy parchada **qovoq** so'zi **qob(v)oq** tarzida talaffuz qilinmoqda.

— *Bir o'zim qayoqda — o'nta jigit. O'zimizdan Rashid bor. Boshqalari boshqa qishloqdan. Hali tag'in ko'payamiz. Tevarak qishloqlardan jigitlar kelib qo'shilayapti*⁷⁶. Parchada **y** tovushining o'rniga **j** tovushi talaffuz etilmoqda **j(y)igit**, badiiy asar qahramoni nutqi orqali til xususiyatlari ochib berilyapti.

— *Bo'lmasa, nima deyin? Kofir deyin desam — bari o'zbek bo'zbolalar. O'zbek deyin desam — bari kofirlar yo'lidan yuribdi. Musulmon bo'p — musulmon emas, kofir bo'p*

— *kofir emas. Bundaychiknlarni kim deydi? Xunasa deydi-da!*⁷⁷. Badiiy parchada **bo'lib** so'zi **bo'p(lib)** tarzida aytilib, tovush tushishi va almashishi orqali fonetik dialektizm yasalmoqda.

⁷¹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 5.

⁷² Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 7.

⁷³ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 10.

⁷⁴ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 12.

⁷⁵ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 15.

⁷⁶ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 17.

⁷⁷ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 19.

*Otamiz o'ng qabatida ikkita Qizil boradi. Otamiz chap qabatida ikkita Qizil boradi*⁷⁸. Yonida so'zi yoki yonboshida so'zi o'rnida **qab(v)atida** so'zi ishlatilmoqda, ham uslubiy, ham fonetik jihatdan so'z o'zgartirilib qo'llanmoqda.

Direktorimiz barchamizni ulkan sinfxonaga soladi.

— *Maylis bo'ladi!* — *deydi*⁷⁹. Yozuvchi tomonidan qahramonning jonli tasvirini berish uchun asar qahramoni tilidan gapirmoqda. **Majlis** so'zi **may(j)lis** tarzida badiiy matnda berilgan.

*Bir chanoq paxtani cho'zib-cho'zib tortaman. Kaftlarimda uqalab-uqalab olaman. Puflab-puflab shudringini quritaman. So'g'in — etagimga solaman*⁸⁰. Ushbu parchada **so'ng** so'zi **so'g'in** tarzida asar qahramoni tilidan aytilmoqda. Ham tovush almashishi, ham tovush ortishi hodisasi sodir bo'lgan, bu esa fonetik dialektizmning yasalishiga asos bo'ladi.

— *Ertaminan g'ayrat qilaman, — deya so'z beraman*⁸¹. Bu erda mustaqil so'z va yordamchi so'z o'rtasida qo'shilish paydo bo'lgan. **Ertaminan** so'zi **erta bilan** tarzida yozilishi adabiy til me'yoriga mos tushadi. Asar qahramonining til tasviri parchada berilmoqda.

— *Raykom? Qanday raykom?*

— *Qanday raykom bo'lardi — Mavlonov bova-da*⁸². Bobo so'zi bova tarzida sheva xos talaffuz etilmoqda.

*Direktorimiz bundaychikin ishlar uchun oz teruvchilarni jo'natadi*⁸³. Tovush ortirilishi orqali fonetik dialektizm yasalmoqda.

*Qirq santimdan chuquri havo ko'rmagan er bo'ladi. Suv ko'rmagan er bo'ladi*⁸⁴. **Santimetr** so'zi shevaga xos tarzda talaffuz etilib, fonetik dialektizm yasalmoqda.

⁷⁸ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 21.

⁷⁹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 26.

⁸⁰ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 29.

⁸¹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 30.

⁸² Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 35.

⁸³ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 37.

⁸⁴ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 44.

*Ko'nglim hadik oldi. Eshagimni mindim-da, Rasul do'xtirga bordim. Rasul do'xtir qutisini kovladi. Oldimga bir-ikkita dori tashladi*⁸⁵. **Doktor** so'zi sheva xususiyatiga ko'ra **do'xtir** tarzda aytilmoqda. Tovushni almashtirib qo'llash orqali fonetik dialektizm yasalgan.

*Jo'ya cho'nqayib o'tirdim. Siljib-siljib g'o'za yaganaladim*⁸⁶. Badiiy parchada yaganalamoq so'zi fonetik dialektizm hisoblanib, tovush almashishi orqali dialektizm yasalgan. Bir keng unli o'rniga boshqa keng unli qo'yilgan: **yaga(o)naladim**.

S a g ' a l o ' t d i - c h a q a l o g ' i m i z t i n d i .

*Ko'zim ketdi*⁸⁷. Bu parchada tovush ortishi orqali fonetik dialektizm yasalgan, ya'ni ravish so'z turkumiga oid so'z: **sal-s a g ' a l** tarzida q o ' l l a n m o q d a .

— *Yo'q bo'lsa nima qilayin? Mol zarilmi, paxta zarilmi?*

— *Paxta zaril!*⁸⁸. Tovush almashishi orqali fonetik dialektizm hosil qilingan.

Zarur-zaril ko'rinishida badiiy parchada berilgan. *Raisimizni ayoli mana munday demishday bo'ldi: «Muncha ko'zingni lo'q etib qaraysan? Nima, umringda yalang'och ayol ko'rganing yo'qmi?»*⁸⁹. Olmosh so'z turkumiga oid so'z tovush almashishi orqali berilmoqda, yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida ko'proq personajlar tomonidan aytilgan jumalalarda fonetik dialektizmlar uchraydi. Bu ham yozuvchining shu hududda yashovchi aholining til elementlarini berishda ko'rinadi. *Shonalar o'z-o'zidan qurib-qovjiradi. Shonalar o'z-o'zidan to'kilib-chochildi*⁹⁰. **Sochildi** so'zi shevada **ch(s)ochildi** tarzida aytilmoqda. *Ha, shuyakan! Ashurboy, qo'ylarni ushlab, og'ilxonaga qamang! «Yulduzlar mangu yonadi»*⁹¹. **Shu ekan** so'zining shevadagi ko'rinishi **shuyakan** tarzida aytilmoqda.

⁸⁵ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 60.

⁸⁶ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 61.

⁸⁷ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 61.

⁸⁸ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 80.

⁸⁹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 83.

⁹⁰ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 89.

⁹¹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 336.

— *Abraymi? Nasim polvonning uli bo'ladi. Yaqinda armiyadan keldi.*» Yulduzlar mangu yonadi» Tog'ay Murod⁹². **O'g'li** so'zi **uli** tarzida aytilmoqda, asar qahramoni nutqida shu hudud shevasining xususiyatlari namoyon bo'lgan.

— *O'lmak, o'lmakni ishi ko'mmak, deydilar.*

— *O'rtoq Lenin esa, etmish yil... etmish yildan buyon... ko'milmaydi!* “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» Tog'ay Murod,⁹³. Qo'shimcha tarkibida fonetik o'zgarish mavjud: **o'lmak(moq)**. *Shu bois, oqtuproq er bulayga sillasi qurib qoladi. Oqtuproq er bulayga darmonsiz bo'lib qoladi. Oqibat — oqtuproq g'o'za eldan burun pishadi.*⁹⁴. Bu erda unli tovush va undosh tovush o'zgarishi mavjud: **bu(o')la(i)y(sh)ga-bo'lishga**.

— *Madaniyat uyi qaerda-qaerda?.. — dedim.*

— *Shatta-shatta!* — *dedi bir yo'lovchi chol*⁹⁵. Bu erda asar qahramoni tomonidan ma'lum shevaga mansublikni ilg'ashimiz mumkin. **Shu erda** ravishi fonetik o'zgartirilib talaffuz etilmoqda.

— *O'zi, nima bo'ldi, ayting qanikayin?*

— *Ochiq mozor bo'ldi, ochiq lahad bo'ldi!*⁹⁶. Badiiy parchada tovush ortishi orqali fonetik dialektizm qo'llanmoqda. Parcha orqali asar qahramonining tili va dunyoqarashini bilib olishimiz mumkin.

— *Shu tevarakni mehmoni bo'lsa go'rga edi. Moskovdan mehmon kelayapti, Maskovdan. Bari nozik mehmon. Raisimiz aytdi*⁹⁷. Ushbu badiiy matnda **Moskva** so'zi tovush almashishi va tovush tushishi orqali erli xalqning talaffuz me'yorlaridan kelib chiqqan holda talaffuz etilmoqda.

— *Birinchi terim ertamatan boshlanadi. Ertamatan olib kelardilaringiz-da?*⁹⁸. Yozuvchi tomonidan asar qahramonlarining jonli chiqishi uchun fonetik dialektizmlarni juda ko'p qo'llagan. Misol tariqasida berilgan badiiy parchada bunga guvoh bo'lamiz: **erta bilan** so'zi fonetik jihatdan so'zning ikkinchi

⁹² Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 395.

⁹³ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 247.

⁹⁴ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 93.

⁹⁵ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 97.

⁹⁶ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 103.

⁹⁷ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 120.

⁹⁸ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 134.

qismi o'zgartirilib parchada keltirilgan. *Ro'znoma qo'shaloq betida uyum-uyum oltin tangalar suvrati bo'ldi. Uyum-uyum oltin uzuklar bilan oltin sirg'alar suvrati bo'ldi. Qat-qat yuz so'mlik bilan qat-qat ellik so'mliklar suvrati bo'ldi*⁹⁹. Badiiy matnda **surat** so'zi tovush ortirilishi orqali fonetik dialektizmga aylangan. Tog'ay Murod asaridagi bu parchada ham asar qahramonining til xususiyatlari shu qahramon tomonidan aytilgan fikrlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Nimani so'rasa —»Usmonxo'jaevga javob beraman, Usmonxo'jaevga javob beraman», deb turib olib edi. Oxiri...olgichini oldi! **O'limichi** etib urdilar! Tepib-tepib — muzxonaga olib kirib tashladilar! Yetmish yashar chol muzxonaga bardosh berarmidi? Ana, o'ldi-ketdi!¹⁰⁰. Bu badiiy parchadagi ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosini izohli lug'atdan topishga harakat qilib ko'rdik. Shu so'zga mos tushadigan so'z izohli lug'atda **o'las** so'zi bilan berilmoqda, ma'nosi o'lar holatga keltirish, chala o'lik qilib tashlamoq manolariga to'g'ri kelmoqda. Badiiy matndagi **o'limichi** so'zida ham fonetik dialektizm, ham leksik dialektizm xususiyatlari uchraydi. So'z tarkibi tovush almashishi hisobiga fonetik dialektizmga o'xshaydi, lekin ma'noning boshqa so'z shaklida berilishiga ko'ra leksik dialektizmga misol bo'ladi.

Juft so'zlarda **s** undoshining **ch** undoshiga almashishi: yog'in-sochin.

“Yog'in-chochindan ayting.

–Yog'in-chochin...qor kam yog'adi, aqlar. Yil oxirida sel ko'p keladi” “Oydinda yurgan odamlar”¹⁰¹. So'z o'rtasidagi **n** undoshi **m** ga almashadi: sunbula-sumbula. *“Avji saratonda boshlab, **sumbula** tuqqanida qazib bo'lib edik”* “Momo er qo'shig'i”¹⁰². So'z oxiridagi **r** tovushi **l** tovushiga almashadi: zarur-zaril. Bunda dissimilatsiya hodisasi kuzatiladi, ya'ni ikki o'xshash tovushdan biri noo'xshash tovushga aylanadi. Birga-billa. *“Avtobusda bolalikdan **billa** o'smish Sadir bo'yinsasi bo'ldi”* “Bu dunyoda

⁹⁹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 139.

¹⁰⁰ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 153.

¹⁰¹ Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Ziyoyi, 2020. – B. 68.

¹⁰² Tog'ay Murod. Momo yer qo'shig'i. – Toshkent.: Ziyoyi, 2020. – B. 69. .

o'lib bo'lmaydi"¹⁰³. So'z oxirida **y** tovushi orttiriladi: obro'-obro'y. "*Obro'y bor-da, misol uchun obro'y bor, ha!*" "Ot kishnagan oqshom"¹⁰⁴. Ushbu pragmatik nutqda shu so'z orqali personajning ruhiy holati, uning biroz maqtanchoqlikka moyilligi aniq ko'rinadi. "*Xalq holdan toyib, Toshkanni mudofaa qilolmay qolibdi. Oqposhsho saharlayin Toshkanni bosibdi.*

—*Ila-bila, Qo'qongacha kelibdimi-a?*" Badiiy parchadagi **ila-bila** so'zi fonetik dialektizm bo'lib, adabiy tildagi ko'rinishi **illo-billo** so'ziga to'g'ri keladi. Izohli lug'atda shunday ta'rif beriladi: Aslo; hech, sira; xudo haqqi. **Illo-billo** bu gapni gapirganim yo'q. fotihani buzadigan bo'lsalaring, **illo-billo** eshiklaringga qaytib bosmaganimiz bo'lsin, deb pisanda qilib ketishdi. M. Mansurov, Yombi. Men sizga aytsam.. bu pul tushmagur bo'lmasa, odam **illo-billo** gapdan ham adashib qoladi. S. Karomatov, "Bir tomchi qon"¹⁰⁵. Dialektizmدا til oldi, sirg'aluvchi undosh **l** tovushi tushishi va bir keng unlining boshqa keng unliga almashishi sodir bo'lgan.

Yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida fonetik dialektizmlar juda ko'p o'rinlarda uchraydi. Badiiy asar qahramoni o'z hududining shevasida gapirish jarayonida ana shu hudud aholisining orzu-armonlarini ham aytib o'tib ketadi. Yozuvchi Tog'ay Murod asarlari tili juda engil, bu ham bo'lsa yozuvchining mahorati orqali namoyon bo'ladi. Asar qahramoni tilidan aytilgan fonetik dialektizmlar ham yozuvchi tomonidan asar ichiga mohirona kiritilgan.

2.2. Morfologik dialektizmlar

Keyingi rejamizda dialektizmlarning morfologik xususiyatlarini tahlil etamiz. Badiiy matnda dialektizmlarning morfologik turi ham o'z o'rniga ega vosita hisoblanadi. Samixon Ashirboyev o'zining "O'zbek dialektologiyasi" nomli qo'llanmasida bunga to'xtalib o'tadi: "O'zbek shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida to'la ma'lumot berish qiyin, lekin bu

¹⁰³ Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. – Toshkent.: Ziyoyi, 2020.– B. 73.

¹⁰⁴ Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent.: Ziyoyi, 2020. – B. 92.

¹⁰⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдди, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида . – Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

masalalarning eng umumlashadigan, tadqiqot obyektni o'rganishga asos bo'ladigan o'rinlarini qayd qilish mumkin. O'zbek adabiy tilidagi so'z turkumlari, gap bo'laklari shevalarda alohida xususiyatga ega emas, balki uning ichki shakl va kategoriyalari, yozib olingan matnlarning sintaksisi haqida fikr yuritish mumkin"¹⁰⁶. Samixon Ashirboyev o'zining qo'llanmasida shevaga xos son shakllari, kelishik shakllari va fe'l shakllariga alohida-alohida to'xtalib o'tadi.

Adabiy til va shevalardagi so'z o'zaklariga forma yasovchi affikslarni qo'shish orqali vujudga kelgan morfologik-dialektal so'zlar turli xil bo'lib, ular, odatda, forma yasovchi affikslarning birgalikda qo'llanishi, turli xil fonetik o'zgarishlarga uchrashi yoki faqat shevalarga xos forma yasovchi affikslarning qo'shilishi natijasida shevalarda (adabiy til uchramaydigan) *āpaṅlä* - opanglar; *ātäluv' // ātäluy'* - otalari; *hämmäl'isi'* - hammalari singari anchagina morfologik dialektal so'zlar paydo bo'lgan.

Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi. "Badiiy asar tilining ifodaliligi, qahramonlar nutqining individuallashtirishga ko'p jihatdan o'rinli va me'yorida qo'llanilgan sheva unsurlariga bog'liq"¹⁰⁷.

Yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida shevaga xos so'zlarning morfologik xususiyatlari ham to'laligicha namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, adib hududga xos dialektizmlarni morfologik kategoriyalarning o'ziga xos tarzda qo'llanishini asardan olingan materiallar bilan chiroyli dalillab bergan. Bu holatni quyidagi o'rinlarda ko'rish mumkin: "*Men farg'onachi Jamoliddin ketmon nabirasi bo'laman*". (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar"¹⁰⁸). Morfologik dialektizm: **farg'onachi** so'zidagi **-chi** shakli ot, shaxs oti yasovchi qo'shimcha. Bu erda o'rin-joyga mansublik shakli **-lik** o'rnida qo'llangan. Bu yozuvchining sheva unsurlaridan kelib chiqqan

¹⁰⁶ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent.: Navro'z, 2016. – B. 21.

¹⁰⁷ Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining turlari. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2002. – B. 29.

¹⁰⁸ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 3.

holda qo‘llagan morfologik qo‘shimchasi hisoblanadi. “*Bobomiz urmish ketmonni o‘zidan o‘zga erdan tortib ololmaydi*”. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”¹⁰⁹). Urmish so‘zidagi **-mish to‘liqsiz fe‘l shakli -gan o‘tgan zamon shakli o‘rnida ishlatilgan**. Bu orqali yozuvchi o‘qish qulayligini yanada osonlashtirgan. “*Shunda, bobomiz ketmonini er(ga) botiradi*”¹¹⁰. **-ga** jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi badiiy matn tarkibida qo‘llanmagan, bu yozuvchining asarni oson o‘qilishi uchun qo‘shgan hissasi hisoblanadi. “*Bobomiz bo‘yrachini gapga soladi*. —

Sizdan oldin ashioqqa bir balo o‘tdi,—deydi bobomiz. Salohiddin bo‘yrachi ariq o‘ngida oyoq iladi”¹¹¹.

Badiiy matndagi **ashioqqa** so‘zi *ravish so‘z turkumiga mansub bo‘lib, ana shu yoqqa* degan so‘zning shevadagi ko‘rinishi hisoblanadi. Asar qahramoni tomonidan fonetik o‘zgartirilib talaffuz etilmoqda. Bu dialektizm ham fonetik, ham morfologik dialektizmga misol bo‘ladi.

“— Qo‘qondan Olimquli lashkarboshi Chimkanga lashkar tortib ketibdi, **deyatib** edi-yu?”¹¹² Badiiy parchadagi **deyatib** shevaga xos so‘zining zamon qo‘shimchasi shakli tushirib qoldirilgan, **deyayotib** tarzida yozilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ham yozuvchi asar qahramonini jonli ko‘rsatish maqsadida qo‘llangan.

“— *Olibdi, Toshkanniyam olibdi. Saidazimboy degich savdogar boy Oqposhshoga Toshkanni sotibdi*”¹¹³. **-gan** sifatdoshning o‘tgan zamon shakli o‘rnida shevaga xos **-gich** qo‘shimchasi ishlatilmoqda. Asar qahramoni tilidan aytilayotgan morfologik dialektizm. “*Bobomiz ohista-ohista to‘rkaladi. Ketmonini elka(ga) oladi. So‘qmoq bo‘ylab boradi*”¹¹⁴. Bu o‘rinda ham **-ga** jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi tushirib ketilmoqda, yozuvchi o‘qish qulayligiga erishish va asar qahramoni tomonidan hikoya qilinayotgan

¹⁰⁹ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 5.

¹¹⁰ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 7.

¹¹¹ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 7.

¹¹² Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 11.

¹¹³ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 12.

¹¹⁴ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 16.

voqeaning haqqoniy chiqishi uchun shu uslubdan foydalangan. *“Bobomiz ariq labida muztar bo‘lib-muztar bo‘lib o‘tiradi. Betlarini changallab-changallab o‘tiradi. Bobomiz nima ko‘rdi, qachon ko‘rdi — aqli-da bovar etmaydi”*¹¹⁵. So‘zda **-da** yuklamasi ortiqcha qo‘llangan, yozuvchi asar qahramonini jonli tasvirlash maqsadida shunday yo‘ldan foydalangan. *“Iyya-iyya! — deya, bobomizni mayna etib-etib **suv(ga)** g‘arqob bo‘ladi. — Iyya-iyya! — deya xoxolashib-xoxolashib **suv g‘arqob bo‘ladi”***¹¹⁶. Bu o‘rinda **-ga** jo‘nalish kelishigi qo‘llanmagan sheva yo‘sinidan yozuvchi shu uslubni tanlagan. Yozuvchi Tog‘ay Murod asarlarida bunday o‘rinlar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Biz faqat shulardan ayrimlarini tahlilga tortdik. Ayniqsa, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi bilan bog‘liq o‘rinlar adib asarlarining deyarli hammasida mavjud. Tog‘ay Murod o‘zi yashab, ulg‘aygan yurt tili va urf-odatlarini qissa va romanlariga singdirgan.

*“— Suv? Suv qoldimi! Oq to‘ng‘izday **ariq(qa)** ag‘nay berib, **suvni-da haromladi!”***¹¹⁷. Yozuvchi tomonidan Surxon vohasining eng yaxshi fazilatlarini so‘zni kam qo‘llash, so‘zlovchining his-tuyg‘ulari orqali yuzaga chiqarish ko‘zga tashlanadi. *“El mulla Namozni oppoq **kigiz(ga)** soladi. **Kigiz(ning)** to‘rt burchidan oladi”*¹¹⁸. Ushbu bu parchada jo‘nalish kelishigidan tashqari qaratqich kelishigi ham qo‘llanmagan. Bu yozuvchi tomonidan qilingan o‘qish qulayligidir. *“Bobomiz bola-baqrasi omon-esson **Denovlab(ga)** keladi”*¹¹⁹. Badiiy matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zga **-la** fe‘l yasovchi qo‘shimcha va **--b** ravishdosh yasovchi qo‘shimcha qo‘shilgan. Badiiy parchada **-ga** jo‘nalish kelishigi o‘rnida yuqoridagi qo‘shimchalar qo‘llangan. *“Bug‘doyzor **adog‘i(da)** daryocha oqadi”*. 21- bet¹²⁰. Sheva xususiyatidan kelib chiqib badiiy parchada o‘rin-payt kelishigi qo‘llanmagan. Ot so‘z turkumining erkalash va kichraytirish shakli **-cha** ham so‘zlashuv uslubiga ko‘ra badiiy matnda

¹¹⁵ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 17.

¹¹⁶ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. 1994. — B. 20.

¹¹⁷ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 21.

¹¹⁸ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 23.

¹¹⁹ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 21.

¹²⁰ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 21.

qo‘llangan. “*Oqkaltak-qorakaltak el-da o‘zlarini eshik(ka) uradi*”¹²¹. Jo‘nalish kelishigi belgisiz qo‘llagan bo‘lib, yozuvchining uslub nuqtayi nazaridan asarni engil o‘qilishini ta‘minlagan. “*Mo‘min-mazlum peshonasini er(ga) qo‘yadi — misoli namoz o‘qimish bo‘ladi*”¹²². Bu parchada ham **-ga** jo‘nalish kelishigi asar o‘qilishini osonlashtirgan. “*Tong saharlab ko‘chalayman*”¹²³. Badiiy parchada yozuvchi tomonidan “**ko‘chalayman**” so‘zi fe‘l so‘z turkumiga aylantirilib shevaga xos yo‘sinda aytilmoqda.

“— *O‘zi — bo‘lgan-bo‘ldigi shul, xolasi*”¹²⁴. Badiiy parchadagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zning ikkinchi qismi birinchi qismining aynan takrori bo‘lmay, ma‘lum o‘zgarishga uchramoqda. Bu esa sheva vositasi hisoblanadi. Yozuvchi Tog‘ay Murod asarlarida kelishik qo‘shimchalarining belgisiz qo‘llanishidan tashqari yuklamalarning ham o‘rniga ko‘ra almashinib qo‘llanishiga ko‘zimiz tushadi. “*Qiytiqda etak to‘shayman. To‘shagim-da(ham) etagim bo‘ladi, dasturxonim-da(ham) etagim bo‘ladi*”¹²⁵. Yozuvchining bu uslubdan foydalanishi sheva xususiyatiga ko‘ra Surxondaryo vohasining so‘zlashuv nutqida qo‘llanadigan til unsuridir. Ham yuklamasining o‘rnida **-da** yuklamasining qo‘llanishi asar qahramonining nutqini ravonlikka olib kelgan. “— *O‘-o‘, domla, berman haydang! — deydi. Direktorimiz shlyapali odamga qaraydi-qaraydi — taniyolmaydi. Taniyolmasa-da, shlyapali odam taraf yuradi*”¹²⁶. Asar qahramoni nutqidan aytilayotgan “**berman haydang**” so‘zi ravish so‘z turkumiga oid birlik bo‘lib, shu so‘zning boshqa shaklda berilishiga guvoh bo‘lamiz. **Bu yoqqa keling** so‘zi shevada shunday qo‘llanmoqda. “*Direktorimiz shlyapali odam ketidan qarab turadi-turadi — brigadirga o‘ngaladi*”¹²⁷. **O‘girilmoq** so‘zi shevaga xos tarzda qo‘llanmoqda: **o‘girilmoq-o‘ngaladi**.

¹²¹ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 17.

¹²² Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 23.

¹²³ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 26.

¹²⁴ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 26.

¹²⁵ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 30.

¹²⁶ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 34.

¹²⁷ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 35.

“— *Bari kolxozdan **birovdan** ilg‘or borayapti.*

— *Men borolmayman, rais bova, borolmayman*”¹²⁸.

“**Birovdan**” so‘zi badiiy matn mazmunidan bilishimiz mumkinki, **bittadan** borish kerakligi ma‘nosini bermoqda, shuningdek, bu erda jamlovchi son yasovchi qo‘shimcha **bir** so‘ziga qo‘shilib, shevaga xoslikni yuzaga keltirgan. Aslida bir so‘ziga qo‘shilgan **-ov** qo‘shimchasi matndan tashqari holatda ko‘proq gumon ma‘nosini anglatadi. “*To‘rdagilar chapak chalsa, **men-da(ham)** chaldim. To‘rdagilar oyoqqa tursa, **men-da(ham)** turdim*”¹²⁹. Badiiy matnda qo‘shimcha kuchaytiruv-ta‘kid yuklamasi so‘z yuklamasidan ko‘ra yozuvchi tomonidan afzal ko‘rilgan. Bu esa badiiy asar qahramonining muloqot jarayonidagi til xususiyatini ko‘rsatadi.

“— *M a d a n i y a t u y i q a e r d a - q a e r d a ? . . - d e d i m .*

— *S h a t t a - s h a t t a ! - d e d i b i r y o ‘ l o v c h i c h o l*”¹³⁰. Ravish so‘z turkumiga oid so‘z sheva xos tarzda aytilmoqda: **shatta - shu yoqda**. Yozuvchi qaysi hudud aholisining vakilini asarga kiritsa, shu personajning shevasida gapiradi.

“— *Uyamas-da-buyamas — taqdir-peshona! — dedi.*”¹³¹. Ko‘rsatish olmoshi va to‘liqsiz fe‘l o‘rtasida tovush almashishi hamda tovush ortishi kuzatilmoqda: **Uyamas-da-buyamas- u emas-bu emas**.

“*Oq xalatl yigit telefonda birov bilan **gapirishdi(gaplashdi)**.*

— *Bir chetga? Bo‘pti, bir chetga, bo‘pti, — dedi*”¹³².

Keltirilgan parchada **gapirishdi** so‘zi asar qahramoni yashaydigan kishilar jamiyatida qo‘llanadigan morfologik dialektizmi hosil qilmoqda. Adabiy til me‘yoriga ko‘ra **gapirishdi** so‘zi **gaplashdi** tarzida yozilishi kerak. Fe‘l yasovchi qo‘shimcha uslubiy jihatdan sheva vakili tomonidan so‘zlashuv uslubiga xos ishlatilmoqda va harakat nomi qo‘shimchasi ortiqcha

¹²⁸ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 94.

¹²⁹Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 95.

¹³⁰ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 97.

¹³¹ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 123.

¹³² Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 103.

qo‘llanmoqda. “*Kelin oynadan mo‘raladi. Kaftlarini oyna tutib mo‘raladi. Men o‘zimni uxlamishga olib yotdim*”¹³³. O‘tgan zamon qo‘shimchasi **-gan** o‘rnida yozuvchi asar qahramoni yashayotgan muhitning sheva xususiyatini berish maqsadida shevaga xos **-mish** qo‘shimchasini ishlatmoqda.

“*Falokat, falokat, — dedi. — O‘rtoq brigadir, Dehqonqulova... kasal edimi?*

— *Yo‘q, sog‘lom edi, — dedim. — Ayolimiz umri mehnat bilan o‘tdi.*

— *Balki... yoshligida kasal-pasal bo‘lgandir?*

— *Ayolini yoshligini bu qaerdan biladi, — dedi bir katta*”¹³⁴.

Sheva vakili tomonidan qaratqich kelishigi o‘rnida tushum kelishigi qo‘llanmoqda. Bu esa sheva vakilining jonli muloqotdagi so‘zlashuv uslubi sanaladi. “— *Unda... nimaga o‘ziga o‘zi o‘t qo‘yadi? — dedi. Men barmoqlaringa yig‘lab-yig‘lab qo‘ya berdim*”¹³⁵. Bu erda ajratib ko‘rsatilgan so‘zdan so‘ng fe‘l so‘z turkumiga oid so‘z qo‘llanishi kerak bo‘lgan. Yozuvchi asar qahramoni hissiy holatini tasvirlash maqsadida so‘zni tushirib qo‘llagan. “*Tevaragim(ga) alangladim — biron nima izladim. Qo‘limga makkajo‘xori poyasi ilashdi. Kattalar joyidan turib ketdi. Raisimiz qo‘limdagi makkapoyaga yopishdi*”.110-bet¹³⁶. Asardan olingan parchada jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘llanmagan so‘zlashuv uslubida bunday holatni ko‘plab uchratish mumkin. Ajratib ko‘rsatilgan **ilashdi** so‘zi leksik dialektizm bo‘lib, sheva xususiyatiga ko‘ra ishlatilmoqda.

“*Shu bois — lik etib joyimdan turdim. Qo‘llarimni qovushtirib turdim.*

Katta do‘xtir elkamga kaft qo‘ydi. Meni joyimga o‘tirtg‘izdi.

O‘zi-da — *qabatim o‘tirdi. Qo‘lini qo‘lim qo‘ydi.*

Do‘xtir — do‘xtirday diltang-diltang bo‘lib o‘tirdi.

O‘tirdi-o‘tirdi — qayg‘udosh hamroz bo‘ldi:

— *Dehqonqul, — dedi. — Tag‘in, mendan o‘pka-ginador bo‘lma. Men bir faqir*

¹³³ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 105.

¹³⁴ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 107.

¹³⁵ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 107.

¹³⁶ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 110.

do'xtirman. Endi... kasalingni olib ketadigan bo'lding"¹³⁷. **Ham** yuklamasi o'rnida **-da** kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi ishlatilgan.

“Madrasa poyida ro'molim **birovgina... birovgina** boshimdan uchib tushsa ekan»...”¹³⁸. Ushbu badiiy matndan olingan parchada ajratib ko'rsatilgan so'z tarkibidagi **-ov** qo'shimchasi shu o'rinda shevaga xos qo'shimcha bo'lib kelmoqda, ya'ni asar qahramoni tomonidan erishmoqchi bo'lgan orzusi **-gina** yuklamasi va ko'rsatilgan qo'shimcha orqali yanada kuchliroq ifodalanmoqda. “Ammo anorchi bildi — miyig'ida kuldi. — **Dashnobodi anor, pulingiz o'zingiz bilan ketadi, — dedi. — Yaxshi anorlikka yaxshi anor...**”¹³⁹. Moslashuvli so'z birikmasi sheva xos tarzda qo'llanmoqdada. Egalik qo'shimchasi hokim qismda tushirilib, tobe qismda qaratqich kelishigi o'rnida shevaga xos qo'shimcha **-i** ishlatilgan. “**O'g'limiz** yig'lay-yig'lay — oxiri holdan toydi. O'pkasini bosolmay hiq-hiq nafas oldi. O'g'limiz qalt-qalt etdi. Yelkalari pir-pir uchdi. Boshi sarak-sarak bo'ldi. Bola qo'rqdi!”¹⁴⁰. Asar qahramoni tilidan egalik qo'shimchasining ko'plik shakli **-imiz** ishlatilib, o'g'liga bo'lgan achinish, rahm-shafqat munosabatini ifodalamoqda. “O'g'limiz og'zini kappa-kappa ochib entikdi. Bir **chapi(ga) o'ngarildi, bir o'ngi(ga) o'ngarildi. Ko'rpasini tepkilab-tepkilab tushirdi. 123-bet**¹⁴¹. Keltirilgan parchada **-i** egalik qo'shimchasi shevaga xos tarzda qo'llanilgan bo'lib, **-ga** jo'nalish kelishigi vazifasini bajarmoqda. **O'ngarildi** so'zi **o'girildi** so'ziga to'g'ri keladi, bu erda esa sheva oid so'z sifatida yozilgan. O'ngarilmoq so'zida o'girilmoq so'ziga qaraganda salbiylik bo'yog'i yuqoriroq.

Yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida morfologik dialektizmlar, leksik va fonetik dialektizmlardan kam emas. Ko'rib o'tilgan tahlilimizda ham bunga amin bo'lamiz. Tahlil davomida morfologik qo'shimcha va so'z turkumlarining

¹³⁷ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 110.

¹³⁸ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 115.

¹³⁹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 119.

¹⁴⁰ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 122.

¹⁴¹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 123.

shevaga xos ko‘rinishlari bilan tanishdik. Ko‘plik, kelishik, zamon, shaxs-son qo‘shimchalarining asarda tilga olinayotgan xalq tili bilan shakl va mazmun jihatdan farqliligiga guvoh bo‘ldik. Yozuvchi Tog‘ay Murod asarlarida ijtimoiy munosabat masalalari ham etakchi o‘rin tutadi. “Otamdan qolgan dalalar” romanida Tog‘ay Murod bizning Surxon tomonda ayolini va erini ismi bilan emas, o‘g‘li yoki qizining ismi bilan chaqiradi, deb asar qahramoni tilidan aytadi. Bu jarayonda qo‘llanayotgan shaxs-son qo‘shimchalalari o‘z shaxs ma’nosida emas, boshqa shaxs ma’nosida qo‘llanadi. “*Bir erta Abil jarchi ko‘chama-ko‘cha jar soladi: — ...Barcha-barcha hovuz bo‘ylab borsin! Yo‘qsillar hukumati bilan ko‘rishuv bo‘ladi!*”

— *Yuvuqsizlar hukumati deydimi? — deydi onamiz. Otamiz onamizdan betini burib-burib kuladi.*

— *Dehqonqul! — deydi otamiz. — Yuvuqsizlar hukumati desang-da bo‘ladi, Sho‘rolar hukumati desang-da bo‘ladi! Bizning Surxon tarafda xo‘jalar bekalar otini atamaydi. Bekalar-da xo‘jalar otini atamaydi. Birbirlarini yo qizlari oti bilan ataydi, yo o‘g‘illari oti bilan ataydi. Otamiz bilan onamiz birbirlarini mening otim bilan ataydi*¹⁴². Fikrimizga dalil sifatida yana boshqa misol keltiramiz:

“*Otamiz uch kundan keyin qaytib keladi.*

Odaticha — etigi poylarini qo‘li bilan sug‘urmaydi.

O‘ng oyog‘ini bir taraf silkiydi — o‘ng poyi o‘sha taraf borib tushadi.

Chap oyog‘ini bir taraf silkiydi — chap poyi sandiq ostiga borib tushadi.

Paytavalari chuvalab-chuvalab qoladi.

Ko‘ksi bilan ko‘rpacha tashlaydi. Bolish quchoqlaydi. Betlarini bolish botiradi.

— *Bir joyi og‘riyaptimi? — deydi onamiz.*

— *Dehqonqul! Men senga aytib edim-ku, qizillar el bo‘lmaydi, deb. Enag‘arlar meni Yurchiga olib bordi. Yurchining qo‘rg‘onida qarorgohi bor ekan.*

Oqchurin degich kattasi bir terqamoqlik qildi-e, bir terqamoqlik qildi-e!

¹⁴² Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 23.

*Qizillar sha'niga tag'in bir yomon gap qilsang, Sibir surgun bo'lasan, dedi.
Birikkita qog'ozga barmoq bostirib oldi.*

— *Sibiri qaerda bo'ldi?*

— *Kim biladi, qaerda bo'ldi.*

Men otamiz etiklarini terib-terib olaman. Bo'sag'ada juft-juftlab qo'yaman.

Paytavalari yig'ib yigib olaman. Etiklariga o'rab-o'rab solaman.

— *Dehqonqul! — deydi otamiz. — Endi qizillar meni qo'ymaydi.*

— *Endi qaytadi, Dehqonqul?*

— *Endi ketaman. Yomondan qoch-da qutul, yo, ton-da qutul, deydi. Otamiz bir*

kechada yo'qoladi-qoladi”¹⁴³. Keltirilgan misolda shaxs-son qo'shimchasi

boshqa-boshqa ma'noda kelmoqda. Ma'no jihatidan ikkinchi shaxs berilib,

shakl tomondan uchinchi shaxs shaklida turibdi. Parchada dialektizmlarning

*boshqa turlari ham uchraydi: **degich** so'zi morfologik dialektizmga misol*

bo'ladi. -gan sifatdosh qo'shimchasi shevaga xos tarzda qo'llanmoqda.

“Qoplon oyog'ida og'riq turdi.

Iliklarida bir nimalar g'imirlab yurdi. Iliklari qizidi, iliklari zirqiradi.

Qoplon chalqanchadan yonbosh bo'ldi. Ayoli tarafga o'girildi.

— *Havo sevalab o'tadi, momosi, — dedi.*

— *Bu kishi qayerdan biladi? — dedi ayoli.*

Qoplon oyog'ini aytmadi.

— *Bilaman-da, — dedi. — Ko'rshapalaklar inlaridan uchib chiqmasa, havo
ayniydi. Bugun oqshom ko'rshapalaklar uchmab edi.*

Og'riq zo'raydi. To'piqlari, bebilchaklari ichi zirqiradi.

Qoplon tashqarilab keldi” 518-bet¹⁴⁴.

Tog'ay Murodning barcha asarlarida o'ziga xoslik tezda ko'zga tashlanadi. Asar tuzilishi jihatidan xalq og'zaki dostonlariga o'xshab ketadi. Faqat tuzilish jihatidan emas, ma'no jihatdan ham bunga guvoh bo'lamiz. Adib asarlarining ravon o'qilishi, qisqa-qisqa gaplardan foydalanishi, shevaga

¹⁴³ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 27.

¹⁴⁴ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 18.

xos soʻzlarning oʻrniga mohirona joylashtirilishi badiiy asar jozibasini yanada oshirgan.

Yozuvchi asarlaridagi yana bir xususiyat soʻzlarning takror holda qoʻllanishidir. Bu orqali yozuvchi asr qahramoning ruhiy va jismoniy holatini yanada taʼsirliroq ifodalagan. “*Otamiz Qizil miltiq tigʻida **boradi-boradi** — ana shu daryocha boʻyida oyoq iladi. Chap elkasi osha qiblagohda qolmish qishlogʻiga boqadi. **Boqadi-boqadi** — botinan-botinan inqillab-inqillab oladi*”.^{22-bet¹⁴⁵}. “*Chanishev shunday deya, **vazmin-vazmin** otdan tushadi. Bir qoʻlida yugan Chanishev otamiz qoshida **bosh epib-bosh egib turadi***”.^{25-bet¹⁴⁶}. Yuqorida keltirilgan parchada asar qahramonining hissiy va jismoniy holati takrorlar orqali yanada kuchliroq ifodalangan. Yozuvchi Togʻay Murod asarlarining hammasida bunday uslub mavjud. Bu orqali yozuvchi oʻz yoʻlini va badiiy mahoratini namoyish etgan. Surxon vohasining yashash tarzi, odamlarinning bir-biri bilan boʻlgan munosabati yozuvchi Togʻay Murod asarlarida oʻz aksini topgan. Asar qahramonlari ham koʻproq siz-u bizga oʻxshagan oddiy odamlar hisoblanadi. Togʻay Murod bu orqali hayotiylikni, hozirgi kun qiyofasini berishga harakat qilgan.

2.3. Leksik dialektizm

Yozuvchilar oʻz qahramonlarini oʻzlari yashaydigan hudud va muhitdan ajratmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli, tasvirlash maqsadida shevaga xos soʻzlarni ishlatadilar. Sheva soʻzlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni oʻzida aniq aks ettirish bilan birga badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi meʼyori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qoʻllanishi bilan bogʻliqdir.

¹⁴⁵ Togʻay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 22.

¹⁴⁶ Togʻay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 25.

Faqat ma'lum bir hududda uchraydigan, ma'nosini faqat kontekstdan anglash mumkin bo'lgan so'zlar leksik dialektizmlar deyiladi. Leksik dialektizmlar ham o'z navbatida ichki guruhlariga bo'linib o'rganiladi: sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar va semantik dialektizmlar. Masalan: *Jiyaningiz qishloqdan zig'ir moy olib keldi. Shuni **chuchityapman**.* (T.Murod) *Tok osti so'ri **olachalpoq ko'laga bo'ldi**.* (T.Murod).

Sof leksik dialektizmlar umumiy adabiy til so'zlari bilan umumiy ma'noga ega, ammo imlo jihatidan ulardan farq qiladigan dialektizmlar.

Muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o'zlariga xos bo'lgan urf-odatlarining nomlari etnografik dialektizmlar deb yuritiladi.

Biror so'z adabiy tilda ham shevada ham mavjud bo'lib, shevada adabiy tilda bo'lmagan ma'nosi bilan qo'llana oladigan so'zlar semantik dialektizmlar deb yuritiladi.

“Ayrim leksemalar adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma'noda ishlatiladi. Masalan, (pashsha) leksemasi sememasi lug'atda “yozma qo'sh parda qanotli hasharot” deb berilgan. Biroq ayrim shevalarda u (chivin) leksemasi o'rnida ishlatiladi. “Ikki qanotli, uzun mo'ylovli qon so'ruvchi mayda hasharot” sememasi esa (pashsha) leksemasi o'rnida ishlatiladi”¹⁴⁷.

“Dialektizm umumtil lug'at boyligining nisbatan oz miqdorini tashkil etadi. Shu oz miqdor leksemalardan ham adabiy tilga saylab kiritiladi”¹⁴⁸.

Leksik dialektizmlar, ko'pincha, og'zaki so'zlashuv nutqiga hamda badiiy asar personajlari nutqiga xos bo'lib, qalam ahli asarning yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlashda ulardan unumli foydalanadi. Tog'ay Murod qissa va romanlarida ham shevaga xos so'zlarni o'z qahramonlari nutqiga mohirlik bilan singdirishga harakat qilgan. M.Yo'ldoshev shevaga xos leksik dialektizmlarni uch turga bo'lib o'rganishni taklif etadi va ularni sof leksik, etnografik va semantik dialektizmlar turlarini farqlaydi¹⁴⁹. Yozuvchi o'z asarlarida ularning har uchala turidan ham o'rinli va unumli foydalangan.

¹⁴⁷ Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent.: 2005. – B. 143.

¹⁴⁸ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. – B. 89.

¹⁴⁹ M.Yo'ldoshev. Cho'lpon so'zining sirlari. –Toshkent.: 2002 – B. 48.

Odatda, adabiy tilda ma'nodoshi mavjud bo'lganlari sof dialektizmlar hisoblanadi. “*Beg‘ubor bolalik, bebosh yoshlik, yaqin olislarda–sochlarning oqi, yuzlarning **bujuri**, ko‘zlarning nuri, ko‘ngilning tub-tubida qoldi...*” (“*Yulduzlar mangu yonadi*”,12)¹⁵⁰. “*Kuyganimdan gapiraman-da, Sora momo, kuyganimdan! –dedi Qimmat momo. –**Bo‘lam-da**, ming qilsayam, bo‘luginam-da!*” (“Oydinda yurgan odamlar”, 176)¹⁵¹. *Serjant Orziqulov xayol qildi... Quroldoshlar **bo‘ysira** bo‘ldi. Qurol-yaroqlar jangir-jungur bo‘ldi.* (“Momo er qo‘shig‘i”, 269). Ushbu matnlardagi shevaga xos so‘zlar (**bujur-burishiq, bo‘la-opa-singil bolasi, xolabachcha, bo‘ysira-atrofini o‘rab olmoq**) ma‘lum hududga xos milliylikni bo‘rttirib ko‘rsatish hamda ma‘noni kuchaytirish maqsadida qo‘llanilgan.

Yozuvchi Tog‘ay Murod qissa va romanlarida dialektizmning leksik turi ham salmoqli qo‘llangan. Adibning shu kungacha yozgan asarlari o‘zbek milliy adabiyotining etuk namunalaridan bo‘ldi desak adashmaymiz. Bu asarlarning har birida adib Surxon vohasining sodda va kamtar xalqini, uning ichki va tashqi qiyofasini, dard-u alamlarini, orzu va armonlarini qo‘shiq qilib kuylagan. Adib nutqqa munosib rang berish, individual til va obraz yaratish, obrazlar xarakterini ochish uchun **baycha, jigit, bova, xamsoya, og‘il, korson, iyarmak, angib yotmoq, yonashtirmoq** kabi shevaga xos so‘zlardan unumli foydalangan. Quyida yozuvchi asarlarida uchrovchi leksik dialektizmlarni sharhlaymiz: “*Bobomiz ana shu yo‘ldan sahar-sahar **dalalaydi***”. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)¹⁵² Yozuvchi tomonidan so‘zlashuv uslubi jihatidan so‘z yasalishini ko‘rishimiz mumkin. “Saraton **jingirtob-jingirtob** kuydirmish bir mahal yo‘ldan ajabtovur ovozlar eshitiladi”¹⁵³. Jingirtob so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uch ma‘noda izohlangan. Birinchisi, jazirama oftobda yoki o‘tda obdon qizigan, qaqragan, qayishgan, qovjiragan. *Nusratbek o‘q ariq yoqasidagi gulxayrilarga tikilib qaradi. Yaproqlari*

¹⁵⁰ Tog‘ay Murod. *Yulduzlar mangu yonadi*. –Toshkent.: Ziyo, 2020. – B. 24.

¹⁵¹ Tog‘ay Murod. *Oydinda yurgan odamlar*.–Toshkent.: Ziyo, 2020. – B. 156.

¹⁵² Tog‘ay Murod. *Otamdan qolgan dalalar*. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 5.

¹⁵³ Tog‘ay Murod. *Otamdan qolgan dalalar*. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 9.

jingirtob, tugmasimon gullari ilma-teshik. S. Nurov, “Narvon”. Ikkinchisi, birdan ko‘tariladigan, o‘ta nishab, tik. *O‘ktam rang-barang mayda toshlar bilan to‘la soylikdan jingirtob tepaga ko‘tarildi*. Oybek. “Oltin vodiyan shabadalar”. Uchinchisi, bir-biriga kirishib, ajratish qiyin, chigal holga kelgan, jingala holatli. *Ko‘chalar g‘isht, tuproq, temir-tersak, ko‘mirlangan yog‘och, jingirtob simlar bilan to‘la edi*. Oybek, “Quyosh qoraymas”¹⁵⁴. Mana shu uchta izohdan bilishimiz mumkinki, sheva vakili o‘zining nutqiy vaziyatidan kelib chiqib so‘zni o‘rinli qo‘llaydi. Keltirilgan parchadagi misol semantik dialektizmga oid bo‘lib, yozuvchi asar mazmunidan kelib chiqqan holda badiiy matnga kiritgan. “*Saidazimboy Oqposhshoga ana shu Kaykovusni chippa bo‘g‘ib, Chirchiqqa burib yuborishni maslahat beribdi*”¹⁵⁵. **Chippa** so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday izohlanadi: **Chippa: chippa bitmoq. Butunlay tom bitmoq (quloq haqida)**. *Gulnor desam, quloq chippa bitibdi*. “Gulnorpari”. **Chippa yopishmoq 1) yaxshi, zich yopishmoq**. *Yaktagi ikki kuragining o‘rtasiga chippa yopishib, elkasi achishadi*. “Yoshlik”. *Palkalga kirsangiz, etikka loy chippa yopishib, oyog‘ingiz bilan qo‘shib sug‘urib olaman deydi*. O‘. Hoshimov, “Ikki eshik orasi”. 2) **quyib qo‘yganday, o‘lchaganday loyiq kelmoq**. *Uzun sambitdek qomatiga, keng yag‘riniga harbiy forma chippa yopishib turibdi. Oydin. Sadag‘ang bo‘lay, komandir*¹⁵⁶. Ushbu parcha orqali bilishimiz mumkinki, chippa so‘zi ham semantik dialektizmdir. “*Bobomiz ohista-ohista to‘rkaladi. Ketmonini elka oladi. So‘qmoq bo‘ylab boradi*”¹⁵⁷. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da **to‘rkamoq** so‘zining izohi mavjud emas. Shunday ekan, bu so‘z *sofleksik dialektizmga misol bo‘ladi*, adabiy tilda ma‘nosi **turmoq** so‘ziga to‘g‘ri keladi. “*Erkakzot Oqpodshoda aqalli bir enlik lungi bo‘lmaydi*”¹⁵⁸. Bu dialektizm izohli lug‘atda shunday izohlanadi: Lungi — bel va songa

¹⁵⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁵⁵ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 11.

¹⁵⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁵⁷ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 13.

¹⁵⁸ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 13.

o‘raluvchi mato parchasi. 1. Hammonga kirganda, beldan pastni berkitish uchun bog‘lanadigan mato. *Afandi bir kuni hammonga tushgan edi, hammomchi uni nazarga ilmiy, eski toc, yirtiq lungi berdi.* “Latifalar”. 2. Sartaroshlikda soch-soqol oldiruvchi kishining ko‘ksiga tutiladigan sochiq. *Mo‘ysafid sartarosh uni (Yo‘lchini).. kursiga o‘tkazib, kirdan qatirmalanib yaltiragan lungini bo‘yniga ilib, boshini ishqalay boshladi.* Oybek. Tanlagan asarlar. 3. Sochiq, piyola sochiq. *Samovarda choyfurushning bir o‘zi mog‘or lungisi bilan elpinib o‘tirar edi.* M. Ismoiliiy “Farg‘ona tong otguncha”¹⁵⁹. Lungi so‘zi semantik dialektizmga misol bo‘ladi. Bu so‘zni qo‘llash orqali asar qahramonining fe‘l-atvorini, dunyoqarashini bilishimiz mumkin. *“Iyya-iyya! — deya, bobomizni mayna etib-etib suv g‘arqob bo‘ladi. — Iyya-iyya! — deya xoxolashib-xoxolashib suv g‘arqob bo‘ladi”*¹⁶⁰. Izohli lug‘atda bu so‘zga shunday ta‘rif beriladi. 1. **G‘arqob** — suv aylanishi, girdob. O‘z ma‘nosida girdob. ko‘chma ma‘noda: 2. Biror hodisa jarayon davrasida, qamrovida, ta‘sirida bo‘lish. *Xayollarga g‘arqob bo‘lib, yonboshlab yotib edim...* T. Murod, “Ot kishnagan oqshom”¹⁶¹. Badiiy matnda cho‘milmoq, shung‘imoq ma‘nosini anglatmoqda.

“Oqpodsholar qiyqirib-qiyqirib cho‘miladi.

Tollarda tushlamish chumchuqlar gurr-gurr uchadi.

*Gavhar suv bo‘tana bo‘ladi”*¹⁶². **Bo‘tana** so‘zi izohli lug‘atda loyqa, qum, tuproq kabilar aralashgan suv. Shevada **bo‘tanoq** ham deyiladi, lekin u juda kam qo‘llanadi¹⁶³.

Parchadagi ajratilgan so‘z sof dialektizm hisoblanib, yozuvchi voqea-hodisani aniq va ta‘sirliroq ko‘rsatish uchun bu so‘zni ishlatgan. *“Elga kadida qatiq tutadi. «Ap-ap-ap», deydi. «Qatiqdan ichib ketinglar, qatiqdan», demoqchi*

¹⁵⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁶⁰ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 13.

¹⁶¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁶² Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 15.

¹⁶³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

bo'ladi"¹⁶⁴. Shevada kadi so'zi qovoq, oshqovoq; ularning po'stloq qismidan tayyorlangan idish. Suv kadi. Qimiz kadi. "*Bo'rining onasi kadini chuqurchaga yaxshilab joylashtirib qo'ydi*". T. Murod, "Yulduzlar mangu yonadi"¹⁶⁵. Parchadan ma'lumki, asar ichida boshqa ma'noda, izohli lug'atda boshqa ma'noda kelmoqda. "*El Oqpodsho qarorgohilab kelgunichayin olaqaroq tun bo'ladi*"¹⁶⁶. Izohli lug'atda **olaqaroq** so'zi shunday izohlanadi. 1. Yakkam-dukkam, ola-kula, siyrak, chala. *Uning (To'laganning) kultivatsiya qilgan g'o'zalarida olaqaroq joylari uchramaydi*. X. Nazir, "Mexanizator To'lagan"

2. Ot va mollarda bo'ladigan bir turli miya kasalligi. *Xosa tulpor bir erda turib qolsa, olaqaroq bo'lib qotib qolar edi*. "Go'ro'g'lining tug'ilishi"¹⁶⁷. Badiiy parchada qo'llangan **olaqaroq** so'zi kechquruning boshlanish paytini anglatmoqda. Badiiy parchada yozuvchi semantik dialektizm qo'llagan. Bu orqali Surxon vohasining til xususiyatlarini asar ichiga mohirona kiritib, asar qiymatini yanada oshirgan. "*Ketidan ushoq o'g'lonlari iyaradi*"¹⁶⁸. Izohli lug'atda **iy** so'zi elini bo'shab ravon sut bermoq (sigir, qo'y, echki va shunga o'xshash narsalar) degan ma'noda kelmoqda. Bu orqali yozuvchi yanada ta'sirliroq so'z qo'llagan. Badiiy matnda ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi **ergashmoq** so'ziga to'g'ri keladi, bu so'z sof leksik dialektizm hisoblanadi.

"— *Aytingiz, bu osiylik ham bog'iylik qaerda qo'zg'oldi?*
Chaykovskiy boshi bilan muhtasham binoga imo beradi.
 — *Manavi choldevorxonada qo'zg'oldi, janobi oliylari, — deydi.*
 — *Bu qanday choldevorxonada bo'ldi?*
 — *Bu masjid bo'ldi, janobi oliylari!*"¹⁶⁹ Badiiy matnda **choldevorxonada** so'zi eski, tashlandiq joy degan ma'noda kelmoqda. Izohli lug'atda uch asosdan tashkil topgan bu so'zning izohi berilmagan.

¹⁶⁴ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 17.

¹⁶⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. — Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁶⁶ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 20.

¹⁶⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. — Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁶⁸ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 23.

¹⁶⁹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 25.

“**Bolish** yonboshlab ich tortadi. Ship tikilib uh tortadi”¹⁷⁰. Izohli lug‘atda (yostik so‘zi) o‘z ma‘nosida: har bir ayvonning tokchasida behisob bahmal, ipak ko‘rpachalar, bolishlar. J. Sharipov. Xorazm. *Mamat qassob bolish chetini mahkam changallagan ko‘yi o‘g‘liga qattiq tikilib qoldi*. “Yoshlik”. *O‘tgan kuni Bobur o‘ziga keldi, bolishga suyanib, bir oz boshini ko‘tardi*. H. Hasanov. Ekvatordan o‘tganda. *Bolish mo‘g‘ullar qisman turklar orasida 13-14-asrlarda muomalada bo‘lgan tilla yoki kumush pul*¹⁷¹. Bu parchada ajratib ko‘rsatilayotgan so‘z sof leksik dialektizm hisoblanadi.

“— *Dehqonqul!* — *deydi otamiz*. — *Endi qizillar meni qo‘ymaydi*.

— *Endi qaytadi, Dehqonqul?*

— *Endi ketaman. Yomondan qoch-da qutul, yo, ton-da qutul, deydi*.

Otamiz bir kechada yo‘qoladi-qoladi”¹⁷².

Ushbu badiiy matndan olingan parchada **qaytadi** so‘zi tag ma‘noda **nima qiladi, qanday chora ko‘radi** ma‘nosiga to‘g‘ri keladi. Asli adabiy tilda bu so‘z o‘z manosida **ketmoq, burilmoq** ma‘nosida keladi. Yozuvchi tomonidan hudud aholisining so‘zlashish uslubini berish maqsadida shunday qilinmoqda.

“*Qizillar apil-tapil bug‘doyzor miltiq buradi. Ammo otamiz yo‘qlamish Dehqonqul... bosmachidan shovur bo‘lmaydi*”¹⁷³. “O‘zbek tilining izohli lug‘at”da ajratib ko‘rsatilgan so‘zning izohi shunday beriladi: **Shobir** folklor. Sharpa, javob sadosi. *Hech shobir bo‘lmadi, “shular nima derkan”, deb Novkal ham bir joyda quloq solib turdi*. “Bahrom va Gulondom”. *Ot solib jo‘nadi shunday falakka, Shobiri bilinmay, yashinday oqib*. “Murodixon”¹⁷⁴.

Bu parchada ko‘rsatilgan so‘z sof leksik dialektizm bo‘lib, *ovozi, tovushi, sadosi* kabi so‘zlarning shevadagi ko‘rinishidir. “*Men onamiz berib yubormish bo‘xchani olib qarayman: bo‘xchada ikkita ko‘rpacha bo‘ladi. Ikkita non bo‘ladi. Mayiz bo‘ladi, to‘rtta moyak bo‘ladi. Men moyaklarni archib-archib eb*

¹⁷⁰ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 15.

¹⁷¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁷² Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 16.

¹⁷³ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 23.

¹⁷⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

*olaman*¹⁷⁵. Badiiy parchadagi **bo'xcha** va **moyak** so'zlarining izohiga to'xtalib o'tamiz. Izohli lug'atda **bo'xcha** so'zi **bo'g'cha** tarzida yozilib eski shaklda shundayligi ko'rsatib o'tiladi. Badiiy matnning mazmunidan biladigan bo'lsak, narsalar solingan ro'mol yoki belbog'ni tushunishimiz mumkin. Moyak so'zi qipchoq shevalarida ishlatiladi, tuxum ma'nosi bilan asar qahramoni tomonidan qo'llanilgan. *"Yotarda to'shagimni yoyib yotaman. Birov gapirishib yotadi. Birov matal aytishib yotadi. Birov uxlab yotadi"*¹⁷⁶. **Matal** so'zi adabiy tilda ertak janrini anglatadi, asar qahramoni tomonidan o'zining yashash muhitidan kelib chiqib, shevaga xos o'rinda so'zni ishlatgan. *"Jiva qo shig 'imni yo 'qotib qo 'yaman, Oshpaz qizdan qo shiq so 'rayin deyma n - direktorimizga aytadi, deya qo 'rqaman"*¹⁷⁷. Izohli lug'atda ajratib ko'rsatilgan so'zning izohi mavjud emas. Asar qahramoni tomonidan aytilayotgan qoshiq yog'ochdan qilingan bo'lib, o'zining yashash tarzi va urf-odati aks etgan. *"Men Zulayho bilan irgama-irga egat tushaman"*¹⁷⁸. Ma'nosi yonma-yon degan so'ziga to'g'ri keladi. *"Men temirtish bilan dalalarimni palaxsalab-palaxsalab haydadim"*¹⁷⁹. **Palaxsa** 1. Yer chopganda yoki haydalganda uvalanmay, butun holda ko'chgan katta yapoloq kesak. *Yer palaxsa-palaxsa bo'lib ko'chyapti. Yerni palaxsa-palaxsa qilib ag'darib haydamoq. Cho'l qushlarining qiligi qiziq: ular palaxsa-palaxsa ag'darilib, qalayday yiltirab yotgan shudgorda o'lja talashadi.* H. Nazir. Bir tup g'o'za. 2. Umum har qanday qattiq narsaning undan ajralgan yaxlit, yapaloq parchasi. Bir palaxsa marmar. *G'ulomjon har gurzi urganda, tog' palaxsa-palaxsa bo'lib ag'darilar, odamlar qiyqirishib, yugurishib tashishar emish.* M. Ismoiliiy. "Farg'ona tong otguncha" *Tog'ning toshlari palaxsa-palaxsa ushalib, xuddi tirik mavjudotdek pastga siljiydi.* "Yoshlik". Badiiy matndan olingan parchada **palaxsa** so'zi

¹⁷⁵ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 23.

¹⁷⁶ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 28.

¹⁷⁷ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 28.

¹⁷⁸ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 42.

¹⁷⁹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 44.

sof leksik dialektizm hisoblanadi. “*Denovdan besh-olti qur keldi. Qurlar ana shu qamishzorni tep-tekisladi*”¹⁸⁰. Qur so‘zi asar boshqa ma’noda izohli lug‘atda boshqa ma’noda kelmoqda: 1. Ish-harakatning takrorlanish sonini bildiradi; marta, dafa, topqir. 2. Davra, partiya, gal(ba’zi o‘yinlarda). 3. Guruh, davra. Qur II Tovuqsimonlar turkumiga mansub, o‘rmonda yashaydigan, ov qilinadigan qush. Qur III aynan quray cho‘ponlar qur-haytlab qo‘yni haydagan. “Alpomish”. Qur IV taqlid so‘z Baqa, turna kabilarning sayrashiga o‘xshagan tovushni bildiradi. Qur V Davra, davra o‘rtasidagi joy, maydon¹⁸¹. Mana shu izohlardan bilish mumkinki, asar ichidagi, to‘g‘rirog‘i, erni tekislovchi katta ulkan mashina nomi asar qahramoni tomonidan shunday atalmoqda va bu semantik-leksik dialektizmga misol bo‘la oladi.

“— *Ha, paxtalarining qiyomat ketsin-a, paxtalarining qiyomatgina ketsin-a! Men paxta deb nima bo‘ldim? Bir belangi bo‘ldim! Ulapam o‘ttiz so‘m pensiya bo‘ldi*”¹⁸². Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zning izohi izohli lug‘atda mavjud emas. Badiiy matnning mazmunidan kelib chiqqan holda izohini bilishimiz mumkin, ya’ni *nasiba, topgan boylik, erishilgan yutuq* ma’nosini anglatmoqda. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z sof leksik dialektizmdir.

“ — *Bir jo‘rasi qanchadan ekan?*

— *Bir jo‘ra atlas ikki yuz so‘m ekan.*

— *Uh-o‘-o‘...’*¹⁸³.

Izohli lug‘atda **jo‘ra** so‘ziga ikki xil ta’rif beriladi: *bir kiyimlik ipakli mato. Teng o‘rtoq, do‘st ma’nosida keladi*. Shundan bilishimiz mumkinki, bu so‘z semantik-leksik dialektizm.

“*Dalalarimga xonqizi degich hasharot aylandi. Biz surxonilar xonqizini gulligich deymiz*”¹⁸⁴. Asar matnidan ma’lumki, yozuvchi shu o‘rinda sof leksik dialektizmni aytib o‘tmoqda, ya’ni **xonqizi** shevada **gulligich** ekanligini

¹⁸⁰ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 45.

¹⁸¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдди, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. – Toshkent.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁸² Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 54.

¹⁸³ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 57.

¹⁸⁴ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 63.

bilishimiz mumkin. Bu soʻz asar qahramoni tomonidan aytib oʻtilishi orqali oʻzi yashayotgan hududning sheva unsurlari ham bildirilib ketilmoqda. “*Dasturxonda bir korson taom boʻldi. Taom usti non bilan yopigʻlik boʻldi*”¹⁸⁵. 1. Yogʻochdan ishlangan katta tovoq. 2. Ayrim musiqa asboblarning tovush kuchaytiradigan maxsus kovak qismi. 3. Egarning orqa qismi shunday nomlanadi¹⁸⁶. Uchta izohdan ham bilishimiz mumkinki, birinchi izoh badiiy matn mazmuniga toʻgʻri keladi. **Korson** soʻzi semantik-leksik dialektizmdir. “*Gʻoʻzalarim gunogun-gunogun gulladi*”¹⁸⁷. Izohli lugʻatda ajratib koʻrsatilgan soʻzga shunday izoh beriladi: **gunogun** – xilma-xil, rango-rang. Xilma-xil, turli xil. *Har qadami yangi kundir, Har bahori gunogundur.* Mirtemir¹⁸⁸. Shu izohlardan bilishimiz mumkinki, badiiy matndan olingan parchadagi **gunogun** soʻzi sof leksik dialektizm hisoblanadi.

“— Sizni Toshkanga uch kunlik koʻrikka joʻnataman, Dehqonqul aka, —dedi raisimiz. — Bir koʻngilni **cherini** yoyib kelasiz”¹⁸⁹. Badiiy matndan olingan parchadagi **cher** soʻzi izohli lugʻatda shunday izohlanadi: Cher folklor. Alam, qaygʻu; dogʻ. *Koʻp chopilsa otingizdan ter kelar, Yomon gapga yuraklardan cher kelar.* “Oysuluv”. *Yuragida cher edi, Gurkuragan er edi.* “Hasanxon”. Izohdan maʼlumki, badiiy matndagi **cher** soʻzi sof leksik dialektizmga misol boʻla oladi. “*Tuman qishloq xoʻjalik boshqarmasi boshligʻi oʻtogʻamiz boʻldi. Oʻtogʻa bizni bosh-adoq qarab koʻrdi. Bir-bir qarab koʻrdi. — Boʻladi! — deya bosh irgʻadi.*” 95-bet¹⁹⁰. Izohli lugʻatda oʻtogʻa soʻziga taʼrif shunday beriladi: 1. Maʼlum toʻda yoki guruh ichida boshqalarga gapi oʻtadigan, obroʻli kishi, toʻda etakchisi; sardor. 2. Kishilarga murojaat shakli. Izohlardan shuni bilamizki, yozuvchi asar ichiga soʻzning maʼnosini teran anglagan holda joylagan. Bu soʻz sof leksik dialektizmning namunasidir. “*Molimiz illa*

¹⁸⁵ Togʻay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 84.

¹⁸⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдди, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. – Toshkent.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁸⁷ Togʻay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 89.

¹⁸⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдди, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. – Toshkent.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁸⁹ Togʻay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 93.

¹⁹⁰ Togʻay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 95.

bir kadi sut beradi — shuni-da men ichib olsam, bolalar nimani ichadi? Men sut o‘rnida yaxday suv ichib oldim”¹⁹¹. Izohli lug‘atda **illa** so‘ziga shunday ta’rif beriladi: **Ill** **sheva**. Arang, zo‘rg‘a. *Illa qutulib qoldim men ularning qo‘lidan*. “Oysuluv”¹⁹². Izohdan ayonki, **illa** so‘zi sof leksik dialektizmning yorqin namunasi. Yozuvchi asar qahramonining jonli til vakili ekanligini ko‘rsatish maqsadida ana shunday til unsurlaridan foydalangan. “— *Mehmon kelgan uydan baraka arimaydi, Dehqonqul, baraka arimaydi. Mehmon rizqi o‘zidan oldin keladi, deydi. Maskovchi mehmon bo‘lsa, unda, bunday qil: bozorga xurmo kiribdi. Hay, anavi erda sotayapti, hayla!*”¹⁹³.

Badiiy matndan olingan parchada **hayla** so‘zi sof leksik dialektizmga namunadir. Izohli lug‘atda bu so‘zning izohi berilmagan, lekin matn mazmunidan bu so‘zning qaysi ma’nodagi kelayotganligini bilishimiz mumkin. Ya’ni **hayla** so‘zi ma’no jihatdan ko‘rsatish olmoshi **ana, mana** kabilarga yaqin turipti.

“Endi... bolalarni ust-boshini qaytasan?” — dedi.

— *Davlat paxta terim uchun ana-ana pul berarman emish.*

Onamiz mol-holni ko‘z ko‘rinarli er qantardi.”¹⁹⁴.

Izohli lug‘atda bu so‘zga shunday ta’rif beriladi: **Qantarmoq**. Ovqatga, em-xashakka etolmaydigan qilib, arqonni kalta qilib bog‘lamoq (asosan ot haqida). Ajratilgan so‘z sof leksik dialektizmga misoldir. Undan oldingi ajratilgan so‘z ham dialektizmga misol bo‘ladi, Surxon vohasining gaplashish uslubi mana shu parchada ko‘ringan. Ona va bolaning o‘rtasidagi suhbat orqali shuni bilib olishimiz mumkin. “*Olibsotar azonlab qo‘yni bozor soladi. Molbozorda moljallob degich kimsa bo‘ladi. Moljallob uchun kirim bo‘lsa bo‘ldi — buzoqni ho‘kiz deya sotib beradi. Moljallob uchun kirim bo‘lsa bo‘ldi — echkini qo‘y deya pullab beradi*”¹⁹⁵. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da ajratib

¹⁹¹ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 117.

¹⁹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида. — Toshkent.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

¹⁹³ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 120.

¹⁹⁴ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 123.

¹⁹⁵ Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 123.

ko'rsatilayotgan so'zning izohi berilmagan, lekin matn mazmunidan bu so'zning qaysi ma'noda kelayotganligini bilishimiz mumkin. Ma'nosi **dallo**l so'ziga to'g'ri keladi. *"Avtomatchilar avtomat qo'ndog'i bilan sandiq usti bo'g'jomalarni ag'darib-ag'darib tashladi"*¹⁹⁶. Izohli lug'atda parchadagi ajratilgan so'zning ma'nosi quyidagicha izohlanadi: kiyim-kechak, kiyimlik gazlamalar, eski-tuskilar tugib qo'yiladigan katta mato; choyshab. 2. Shunday matoga tugilgan bo'xcha, tugun. Ko'rib o'tilganidek kiyim-kechaklarni solib qo'yadigan mato **bo'g'joma** deyiladi ekan. Yozuvchi Tog'ay Murod mana shu o'rinda ham o'zi tug'ilib o'sgan yurtni tasvirlash uchun uning sheva xususiyatlarini asar tarkibida berib o'tgan. *"Uy-ich itirqin-itirqin bo'ldi!"*¹⁹⁷. Asarda kelayotgan **itirqin** so'zining izohi izohli lug'atda izohlanmagan, lekin matn orqali ma'noni bilishimiz mumkin. Ya'ni *tartibsiz, alg'ov-dalg'ov ekanligini* matn mazmunidan bilishimiz mumkin.

*"— Beradi! O'zidan xolis yashirib saqlash uchun beradi! O'rtoq Jamoliddinov, siz ana shu oltin ko'mmangiz qaerdaligini aytsangiz bo'ldi — sizga javob berib yuboraman!"*¹⁹⁸. Shevada ifodalanadigan bu so'z fonetik jihatdan ham, leksik jihatdan ham tahlil etishimiz mumkin. Fonetik jihatdan ko'mma so'zi bitta **m** bilan yozilishi kerak edi, lekin sheva xususiyatidan **m** tovushi ikkilantirilib qo'llanmoqda. Leksik jihatdan izohli lug'atda 1.Uyum, to'plam. Qovun ko'masi. *Ikki qum ko'masi orasidan borayotgan otliq otini to'xtatib, undan tushdi.* Sadridin Ayniy "Qullar"¹⁹⁹. Bu o'rinda yozuvchi sof leksik dialektizm ishlatgan.

*"— O'lla o'layin agar-a, pora bergan bo'lsam-a!
— Bergansan! Sen — raisingga uzatasan, raising — tumaningga uzatadi,
tumaning — viloyatingga uzatadi, viloyating — Markazkomga uzatadi!"*²⁰⁰. Bu

¹⁹⁶ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 133.

¹⁹⁷ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 135.

¹⁹⁸ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 139.

¹⁹⁹ Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдди, 80 000 дан ортик сўз А. Мадвалиев тахрири остида. — Toshkent.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

²⁰⁰ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. — Toshkent.: Sharq, 1994. — B. 150.

parchadagi ajratib ko'rsatilgan so'z qasam ma'nosida kelmoqda, farqi shevada ifodalangan.

“— O'ynab qo'yay, «Lenin»dan, o'ynab qo'yay! Yo'q «Lenin»ni qaerdan olaman? Ivan Ivanovich **ho'ppaklab-ho'ppaklab** quloq-chakkam soldi.”²⁰¹.

Badiiy parchadagi **ho'ppaklamoq** so'zini izohlaymiz. Izohli lug'atda bu so'zga shunday ta'rif beriladi: Ho'ppak 1. Ikki qo'l shapalog'ini biriktirib, orqasi bilan urish. 2. Paxtasi etilib, yaxshi ochilgan ko'sak. Ho'ppak paxta. ko'rib o'tganimiz izohdan shuni aytishimiz mumkin: ho'ppaklamoq so'zi sof leksik dialektizmning namunasi. Yozuvchi o'z asarining ta'sirli chiqishi uchun shunday dialektal so'zlardan foydalangan.

“— Tag'in... meni kechasi bir mahalda olib kelib edilar. Men **bediramdan-bediram** kelib edim. Shu bois... ayta berayinmi?”²⁰². Izohli lug'atda badiiy matndan olingan parchadagi so'zning izohi berilmagan. Matn orqali bu so'zning ma'nosini yaratamiz. *Daraksiz, xabarsiz, bexabar bo'lmoq* so'zlari ma'nosiga to'g'ri keladi.

Bob bo'yicha xulosa

Yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida tahlil qilib o'tganimizdek dialektizmlarning barcha turi o'rni bilan qo'llangan. Tog'ay Murod o'z tug'ilib o'sgan yurt xalqini qanday tasavvur qilsa asarlarida ham shunday yoritadi. Surxon vohasining tabiatiga o'xshash odamlari ham yozuvchi qalamida jonlanadi. Uning shu yurt farzandi ekanligi esa o'sha yurt odamlarining armon va orzularini tasvirlashida qo'l kelgan. Asar qahramoni oddiy xalq ichidan chiqqan mehnatkash inson bo'lib, unda samimiyatdan va ishonuvchanlikdan bo'lak narsa mavjud emas.

Tog'ay Murod asarlaridagi fonetik dialektizmlarning ko'pchiligi bir tovush almashishi orqali kuzatiladi. Bundan tashqari morfologik va leksik dialektizmlarda fonetik o'zgarishlar mavjud. Bu orqali yozuvchi o'z qahramonining xalqqa yaqinligini uning dunyoqarashi va bilimini

²⁰¹ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 150.

²⁰² Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 157.

ko'rsatishga harakat qilgan. Morfologik dialektizmlarning qo'llanishi Tog'ay Murod asarlarining deyarli barchasida bir xil. Bu orqali yozuvchi o'z yo'nalishini yaratgan. Ayniqsa zamon va shaxs-son qo'shimchalarining ishlatilishi barcha asarlarda deyarli bir xil qo'llangan. Leksik dialektizmlar Tog'ay Murod asarlarining boyligi hisoblanadi, chunki yozuvchi asarlarida leksik dialektizmlar salmoqli qo'llangan. Bu ham bo'lsa yozuvchining til ilmini juda yaxshi egallaganidan darak beradi. Asarlarda shunday leksik dialektizmlar uchraydiki, ularning izohini izohli lug'atdan topib bo'lmaydi. Yozuvchi asar qahramonning jonli chiqishi, uning orzu-istaklarini ko'rsatish va yana uning qanday odob-axloqda ekanligini bildirish maqsadida shunday yo'ldan foydalangan.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi Tog'ay Murod asarlari o'zbek xalqining bitmas-tuganmas boyligiga aylandi. Kelajak avlod oldida ana shu boyligni asrab avaylash kabi yuksak vazifa turibdi. Fan-texnika rivoji tabiiy ravishda eski va shevalarda qo'llanilayotgan so'zlarning ishlatilmasligiga hamda keyinchalik yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Badiiy asarlar esa ana shunday boyligimizni asrashimizda bizga yordam beradi. Til millatning ko'zgusi bo'lganidayin, undagi sheva va lahjalar ana shu ko'zguning asosi hisoblanadi.

III BOB. BADIY MATNDA DIALEKTIZMLARNING LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

3.1. Badiiy matnda dialektal barqaror birikmalarning qo‘llanilishi

Barqaror birikmalar. Ikki va undan ortiq so‘zlaming o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Iboralar, maqol-matallar va hikmatli so‘zlar barqaror birikmalar hisoblanadi.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalani qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma’no nozikliklari bilan boyib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma’no talqini berishning yo‘llari juda xilma-xildir. Bunga «umumtil iborasi zamiridagi ma’noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma’nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin.

Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yo‘ldoshev tomonidan keng o‘rganilgan. Badiiy asarda qo‘llanilgan iboralarni o‘rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo‘ladi.

“O‘zbek shevalaridagi barcha leksik o‘ziga xosliklarni o‘rganish lug‘at boyligimizni, til imkoniyatlarimizni kengaytirishimizga yordam beradi va shuning uchun adabiy tilga bunday so‘zlarni o‘rni bilan qabul qilib borish zarur”²⁰³.

Yillar davomida shakllangan frazeologizmlar og‘zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda matbuotda o‘tkir, ta’sirchan tasviriy vosita sifatida keng qo‘llanadi. Yozuvchilar o‘z asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalanish bilan birga mavjud frazeologizmlarni asar ruhiga moslagan holda qisman o‘zgartiradilar, shu yo‘l bilan yangi iboralar yaratadilar. Kishilar til vositasida aloqaga kirishar ekan, til birliklari turli mazmundagi fikrlarni nutq qaratilgan shaxsga etkazish, uni harakatga yo‘naltirish, ta’sir etish vazifalarini bajaradi. Til tizimida muhim o‘rin tutuvchi birliklardan biri frazeologizmlar sanaladi. Sababi frazeologizmlar har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qarashlari, xalqning donoligi, milliy kolorit o‘z aksini topgan bo‘ladi, ya’ni frazeologizmlar xalqlarning urf-odatlarini, an’analarini, siyosat, din kabi barcha qirralarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bilan birga ibora yordamida o‘sha xalq haqida ko‘pgina ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Frazeologizmlar so‘zlardan farqli holda aniq muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan ko‘chma ma’noni ifodalash maqsadida yuzaga keladi va insonning jismoniy hamda ruhiy tabiatini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Qolaversa, insonning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, his-

²⁰³ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent.: Navro‘z, 2016. – B. 136.

tuyg‘ulari, o‘y-fikrlari, faoliyatini baholash va munosabat ifodalashda frazeologizmlar muhim vosita hisoblanadi.

Turkiyshunoslikda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar Sh.Rahmatullayev, I.Qo‘chqortoyev, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Albatta, bu tadqiqotlar frazeologiya sohasida erishilgan muvaffaqiyatlardir²⁰⁴. Endi mavzumiz bo‘yicha dialektal frazeologizmlarga to‘xtalib o‘tsak. Masalan, yozuvchi Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida frazeologizmlarning baho ifodalanishiga e‘tibor qarataylik: *“Yomonni ana shu... she‘r yozish qilg‘ini «Golos Amerika» do‘mbira qilib chalibdi! Bir kuni radioni qo‘yib edim, qayta quruvchilar radiodan... Xrushchevga mag‘zava to‘kdi. Tuxumdan chiqqan zumrashalar... sovet tuzumi arboblari tagini kovlaydi.* (Tog‘ay Murod).

Keltirilgan misollarda qo‘llanilgan “do‘mbira qilib chalmoq”, “mag‘zava to‘kmoq”, “tagini kovlamoq” frazeologizmlari so‘zlovchining salbiy munosabatini ifodalashdan tashqari nutq obyektini salbiylik nuqtayi nazaridan baholab kelmoqda. Har uchala frazeologizm ham semantik jihatdan “g‘iybat”, “bo‘hton” ma‘nolarini ifodalamoqda.

Adib tabiat o‘zgarishlarini qahramonlarning kayfiyatiga bog‘lab o‘zgacha uslubda mahorat bilan ifodalangan. *“O‘ynab qo‘yay, bundayin havoni oti nima bo‘ldi? Qor yog‘madi,deyin dedim-havoda laylaklab qor o‘ynadi. Laylaklab qor yog‘di , deyin dedim –yerda qordan nishona bo‘lmadi. Dehqon bunday havoni: - Tulki qiziga to‘y berdi, - deydi”.* (Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”) “Tulki qiziga to‘y berdi” iborasi bu ota-bobolarimizdan qolgan iboradir. Yirik-yirik qor parchalari osmonda o‘ynoqlab ko‘rinish berib, quyosh nurlarini erinibgina sohib turganda uchib o‘ynayotgan qordan zaminda hech nishona bo‘lmagan paytni dehqonlar xuddi shu ibora bilan ta‘riflashadi.

Inson olam yaralganidan buyon hayot darsini o‘qiydi va o‘qimoqda. Hayot so‘qmoqlarida duch kelgan qiyinchilik, to‘siqlar, xursandchilik, xafagarchiliklar

²⁰⁴ Yo‘ldoshev B. O‘zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari. – Samarqand.: SamDU nashri, 2002. – B. 37.

hikmatli soʻz, maqol, matal va iboralar tarzida dunyoga keladi. Xalqimizga hayotiy tajribalarining majmui quyma satrlarda oʻz ifodasini topadi. Uni inson hayotiy tajribalarining oynasi desa boʻladi. Shuning uchun sodda, ixcham va goʻzal boʻladi. Soddalik mazmun jilosiga burkanib, goʻzallik kasb etadi. Hikmatli soʻzlar va maqol-iboralar sodda, ixcham boʻlish bilan birgalikda mazmunan murakkab boʻladi. Ibratnoma fikrlar uzoq hayotiy tajribalar mahsuli sifatida maydonga kelgan. Shuning uchun hikmatlar va maqollar, iboralar avloddan avlodga oʻtib, oʻz qadrini, qimmatini yoʻqotmay kelmoqda.

Iboralar koʻproq soʻzlashuv va badiiy uslubda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning taʼsirchanligini oshiradi.

Frazeologiya tilshunoslikning frazeologik birliklarini oʻrganuvchi sohasidir. Frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki maʼnoda qoʻllanadi: 1) tildagi frazeologik birliklarning jami maʼnosida va 2) shunday birliklarni oʻrganuvchi soha (fan) maʼnosida.

Lugʻat tarkibida til birligi soʻz boʻlsa, frazeologiya tarkibida frazeologizm til birligidir. Tilning lugʻat boyligi leksika va frazeologiya (frazeologizmlar takibi) dan iboratdir. Soʻz ham, frazeologizm ham lugʻaviy birlik hisoblanadi. Frazeologizmlar soʻz birikmasi yoki gaplar kabi nutq jarayonida hosil boʻlmaydi, balki ular, xuddi soʻzlar kabi, tilda tayyor holda boʻladi.

Demak, frazeologizmlar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi: aravani quruq olib qochmoq, kavushini toʻgʻrilab qoʻymoq, sichqonning ini ming tanga, tomdan tarasha tushganday, nogʻorasiga oʻynamoq, kapalagi uchib ketdi kabilar tilda tayyor holdagi lugʻaviy birliklardir.

Barqaror birikmalardan oʻrinli foydalanish nutq goʻzalligini taʼminlaydi, shuning uchun ular nutqimiz husni hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi paremiologiya (lot. parema barqaror, logos- taʼlimot), barqaror birikmalar lugʻatini tuzish muammolarini oʻrganuvchi boʻlimi esa paremiografiya (lot. parema-barqaror, grapho – yozaman) hisoblanadi.

Yozuvchi Tog‘ay Murod asarlarida barqaror birikmalar soni salmoqli va ular yozuvchi asarlarida o‘rni bilan foydalanilgan. Endi asarlardagi barqaror birikmalardan namunalar keltiramiz: *Cho‘lpon yulduz poyida quloq qoqadi. Cho‘lpon yulduz poyida sajda etadi.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”) Bu erdagi **quloq qoqmoq** iborasi ko‘chma ma’nodan qo‘llanib, yozuvchi tomonidan asarga mahorat bilan singdirilgan. Nomozga o‘tirganligini bildirmoqda. *Bobomizda nima bo‘ladi — ketmon bo‘ladi. Ketmon emas — bir baloi bad bo‘ladi!* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”). Bu iboradagi ma’no shundan iboratki, xalq shevasida katta, ulkan, bahaybat ma’nolarini anglatadi.

Bobomiz bo‘yrachini gapga soladi.

— *Sizdan oldin ashiyoqqa bir balo o‘tdi, — deydi bobomiz. Salohiddin bo‘yrachi ariq o‘ngida oyoq iladi.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”). **Oyoq ilmoq** iborasi shevaga xos ibora bo‘lib, bu erda to‘xtamoq ma’nosida qo‘llanmoqda. *Kayshovskiy hadahalab-hadahalab boradi. General Skobelev uzangisi oldida mulla mushuk bo‘ladi.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”). Bu parchada muloyim bo‘lish, o‘zini odobli tutish kabi ma’nolar mana shunday ibora bilan berilmoqda. *Bobomiz ana shunday ishonch bilan ketmon chopadi. Bobomiz olam bexabar bo‘ladi.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”). Hech narsadan xabari yo‘q, anglamagan kabi ma’nolarni bildirish uchun shunday ibora keltirilgan.

Bobomiz ko‘ngli bir uvishib oladi.

«*Oqposhsho bilibdi, Qurbon qoraqirg‘iz dalasiligini bilib qolibdi, — deya xayollanadi.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”). Badiiy matndagi ibora bezovtalanmoq, qayg‘uga botmoq ma’nolariga to‘g‘ri keladi. *Besh santim chuqurni yorib chiqish chigit uchun it azob bo‘ladi! Shu bois, men to‘rt santim chuqurlikda chigit ekdim.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)49-bet. Parchada qiyin, mushkul kabi ma’nolarni berish uchun shu ibora berilgan. *Ayolimiz ajablanmish bo‘ldi.*

— *Ha, vaqtli qaytibdi? — dedi.*

— *Ko‘p o‘tirmadim, — dedim. — Kattalar mast-alast. It egasini tanimaydi...* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)71-bet. Hayvon obrazi orqali badiiy parchada aytilayotgan yig‘indagi obrazlarning yomon qiyofasi berilmoqda.

— *Barcha uy-uyiga, kapa-kuyiga! — deya majlis tarqatdi raisimiz.*

— *Dehqonqul aka, siz bir maydon oyoq iling!* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)73-bet. Oz vaqt to‘xtash kabi ma‘no asar xususiyatiga ko‘ra xalq iborasida berilmoqda. *Kattalar pitirlab qoldi. Kattalar zirillab qoldi. Qattalar vos-vos bo‘p qoldi! Kattalarga bir bo‘lak kun tug‘di.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)107-bet. Bu ibora orqali azobda qolish, sarosimaga tushish, qo‘rqish kabi ma‘nolar anglanmoqda. — *Kattalarga amal kerak, Dehqonqul! Sening ayoling kerak emas! Kattalarga mansab kerak! Sening ayoling kattalarni gazagiga dori emas!* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)111-bet. Keraksiz, ahamiyatsiz kabi ma‘nolar asarda qo‘llangan iborada berilgan.

Ayolimiz... odam bo‘lmadi... (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)112-bet. O‘lmoq, vafot etmoq kabi ma‘nolar parchada ko‘rsatilgan iborada yanada ta’sirchanroq keltirilgan.

— *O‘lla o‘layin agar-a, pora bergan bo‘lsam-a!*

— *Bergansan! Sen — raisingga uzatasan, raising — tumaningga uzatadi, tumaning — viloyatingga uzatadi, viloyating — Markazkomga uzatadi!* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)150-bet. Gapining chinligi, haqiqatligi, rostligi kabi ma‘nolar asarda ko‘rsatilgan iborada yanada kuchli berilgan.

*“Bizdan qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa uradi. Biz bilan salom-alik qilmaslik payida bo‘ladi. Bizdan qaytganini bizga-da, birovga-da aytmaydi”*²⁰⁵. Badiiy matnda qo‘llangan ibora mazmuni o‘zining yaqinlari bilan muloqot qilmaslik ma‘nosida kelmoqda. *“Qoboq-tumshuq qiladi. Ichimdan top deb yuradi. U odamovi! U olislardan ko‘z uzmaydi, kipriklarini-da pirpiratmaydi”*²⁰⁶. Matn

²⁰⁵ Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. — Toshkent.: Sharq, 1994. —B. 499.

²⁰⁶ Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. — Toshkent.: Sharq, 1994. —B. 499.

mazmunidan anglash mumkinki, asar qahramoni nimadandir xafa, qandaydir loqayd kayfiyatda ekanligini bilishimiz mumkin.

“Eson qassob gapni cho‘rt kesdi:

— Qoplonmi? Bo‘lmaydi!

— Qassob, og‘ir bo‘l, somonday og‘ir bo‘l.

— Og‘ir bo‘lsam-bo‘lmasam! Uningiz na salomni biladi, na alikni biladi!”²⁰⁷.

Iboradan shuni anglash mumkinki, oldin o‘ylab keyin xulosa chiqarish kabi ma’no yuzaga keladi. Somon engil narsa bo‘lsa, lekin asarda qo‘llanayotgan iborada **somonday og‘ir bo‘l** deyilmoqda bu erda mantiqsizlikka yo‘l qo‘yilganmi? Yo‘q yozuvchi asar qahramoni tilidan ohori to‘kilmagan iborani mantiqqa zid holda kiritgan bo‘lib ko‘ringan bo‘lsa ham, lekin uning ta’sir kuchi oddiy iboradan yuqori turadi.

“— Singlingning boshiga baxt qushi qo‘nib turibdi, qassob, uchirib yubormasang bo‘ldi,— dedi. Bu erda ibora baxtli bo‘lish, xursand bo‘lishni tag ma’noda qo‘llash uchun kiritilgan. *Eson xizmatkorni bolasi Botir qo‘shchi tumandan aynib keldi.* Parchada keltirilgan ibora mazmuni o‘zgarmoq ma’nosiga to‘g‘ri keladi. *Shahodat barmog‘ini boshi uzra nish etdi.* Barmog‘ini balandga ko‘tarmoq, o‘zini ta’kidlamok ma’nolariga to‘g‘ri keladi.

Maqollar - grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda yoki ham ko‘chma ma’noda, ham o‘z ma’nosida qo‘llanadigan hikmatli xalq iboralaridir. Maqollarda fikrni lo‘nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta’sirchanligini ta’minlashda juda qo‘l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta’minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi.

Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakli, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir²⁰⁸.

²⁰⁷ Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 1994. –B. 500.

²⁰⁸ O‘zbek xalq maqollari.– Toshkent, 2005. – B. 3.

— *Bo‘laman degich el, bir-birini botirim deydi, bo‘lmayman degich el, bir-birini etini eydi.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”). Maqolda sheva xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi tomonidan bu xususiyat zargarona kiritilgan.

— *Aql yoshda emas, aql boshda, eshon!* — deydi general Skobelev. — *Men o‘ttiz yoshimda Xivani tiz cho‘ktirdim!* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”).

— *Ofarin, taqsir, ofarin, o‘ttizida er atangan, qirqida sher atanar, deydilar.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”).

— *Shunday, taqsir, shunday. Xalq qo‘llasa — bor bo‘ladur, xalq qarg‘asa — xor bo‘ladur.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”).

— *Birovning moli mol bo‘lmaydi deb shuni aytadilar-da».* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”). *El-yurt ana o‘shanda biladi— mujohid kim, bosmachi kim ekanini. Botar kunni otar tongi bo‘ladi.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)19-bet.

— *Chanishev! Oshingni esa-da, mard esin, boshingni esa-da, mard esin! Mana, ko‘krak —ma!* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)25-bet.

— *Ana, ko‘ryapsizlarmi, o‘rtoqlar?* — deydi direktorimiz. — *Qazisan, qartasan, axir naslingga tortasan! Buning otasi Aqrab bosmachi edi! Sovet tuzumi dushmani paxta terarmidi!* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)33-bet.

Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda! (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)44-bet. *Qish oladan, yoz moladan, deydilar.* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)44-bet. — *Bolamni to‘ygunimcha boqaman, nevaramni o‘lgunimcha boqaman, deganlari shu-da, ena, —dedi ayolimiz.* —

Ko‘kragimdagini tashlab ketmaganimga shukur qiling. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)65-bet. *Otangga so‘yilgan kal uloq — senga-da bo‘ladi shul uloq, bo‘libdi-da?* (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)67-bet.

bet.

— *Rais bo'lsa bo'пти-da. Bilganimni aytaman-da.*

— *Bilsang-da aytma! Yon qo'shning — jon qo'shning!* (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar")70-bet.

— *Yo, pirim-e, yo, pirim-e, bizda mima ayb?*

— *Maskovga pora bergansan!*

— *Holvani hokim eydi — kaltakni etim eydi, deydilar...* (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar")151-bet.

— *Eshak semirsa oxurini bulg'aydi, deydilar! Sen baranlar mazaxo'rak bo'lib qolding, mazaxo'rak!* (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar")152-bet.

— *Aslini bilmay, so'z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar, — dedi qassob. Kim ekan, u?* (Tog'ay Murod. "Oydinda yurgan odamlar")²⁰⁹.

Bilamizki, yolg'izlik faqat yaratgangagina xosdir. Xalqimizda azal-azaldan oila muqaddas hisoblanadi. Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" asarida jamiyatning bir bo'lagi oila va uning tayanchi farzand ekanligi haqida ko'plab maqollar uchraydi. Aynan kommunikativ niyatning maqollar orqali etkazib berilishini ushbu asarda ko'rishimiz mumkin. *-Men undaychikin odamni bilmayman... -Endi bilasan-da. Aytganimdan qolma. **Chiroying borida chinoringni top!*** (Tog'ay Murod. "Oydinda yurgan odamlar"). Yanga va qiz o'rtasidagi bu suhbatda maqol orqali ko'zda tutilgan so'zlovchining kommunikativ niyati: 'Yoshlik vaqtingda o'z tengingni, jutftingni top keyin attang qilib yurmagin. *-Sen qatorilar bolali bo'ldi, -dedi otasi, -**O'g'li borning o'zi bor, qizi borning izi bor.** -Umr o'tayapti. **Bo'laringda bo'lib o't bo'z yo'rg'aday elib o't.*** (Tog'ay Murod. "Oydinda yurgan odamlar"). Yozuvchining birinchi maqol orqali etkazib bermoqchi bo'lgan kommunikativ niyati: "Qachongacha befarzand yurmoqchisan? O'g'ling yoki qizing bo'lmasa sening bu dunyoda qoldiradigan izing ham bo'lmaydi". Keyingi maqolga ahamiyat bersak, so'zlovchi birinchi maqolning aniqlashuviga, niyatning yaqqol aks etishiga ishora qilyapti. Ya'ni, hozir farzand uchun yoshligingda qayg'urgin, bo'z yo'rg'a kabi bo'lgin degan noan'anaviy o'xshatish qilyapti. Bu erda yozuvchining

²⁰⁹ Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 1994. – B. 499.

individual uslubini ham ko‘rishimiz mumkin. Yo‘l olis bo‘lsa, yana tag‘in to‘qson so‘mlik qorovullik bo‘lsa, nimasiga orzumand bo‘lasiz, demaydimi? ***Olisdagi palovdan yaqindagi sho'rva yaxshi demaydimi?*** (Tog‘ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar”). Ushbu maqolda yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan kommunikativ niyati: “Olisda bo‘lgandan ko‘ra, o‘z tug‘ilib o‘sgan joyingda yurganing yaxshi. Ko‘proq topgandan o‘z joyingda oziga qanoat qilgin”. ***Oymomo, yomondan qochda qutul, yo ton-da qutul, deya ketdimi?***(Tog‘ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar”). Savol orqali berilgan maqol orqali etkazib berilmoqchi bo‘lgan kommunikativ niyat:“Yomon odamdan yo qochib qutulasan, yoki aytgan gaping ma‘qullab qutulasan. “Bu erdagi ayiruv yuklamalar ma‘noni kuchaytirish uchun xizmat qilgan. Keyin, eshitmish-bilmish ig‘volardan gapirdi. ***Ta’bi xushlamovchi ayollar g‘iybatini qildi. Elakka bormish ayolning ellik og‘iz gapi bo‘ldi!***(Tog‘ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar”). Maqolda ko‘zda tutilgan kommunikativ niyat: “Hamsoya ayol elakka chiqqanligi, ellik og‘iz gapning ichida g‘iybat, ig‘volarni gapirishi. Birgina elak detali orqali ayollarning bekorchi gaplari borligini” ifodalagan. ***-Bedana tezotar bo‘lsa,o‘z boshini o‘zi yoradi!-dedi bir ayol.***(Tog‘ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar”). Maqoldagi o‘xshatishning o‘zidayoq kommunikativ niyat borligini ko‘ramiz. Bedana orqali insonga tegishtirish ya‘ni, bedan kabi ko‘p gapirsang o‘z boshingga etasan, hammasi o‘sha suyaksiz tildan kelib chiqadi degan fikrlarni anglaymiz. ***-Bir qishning bir yozi bo‘ladi, qarg‘aning qag‘illagani qoladi, Oymomo do‘stim!*** (Tog‘ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar”). Bir qarashda maqol orqali inson insonga dalda berayotganini ko‘ramiz. Dalda berish orqali so‘zlovchi etkazmoqchi bo‘lgan implitsit ma‘no: Hali yaxshi kunlar oldinda, odamlar qarg‘a kabi qag‘illaganicha qoladi sen ularga parvo qilmagin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqollarda adresatlarga etkazib berilmoqchi bo‘lgan kommunikativ niyat o‘z aksini topgan.

Shu o‘rinda yozuvchi Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasida uchraydigan maqollardan namuna keltiramiz:

Ko‘ngling bilan eshit—quloq aldaydi, aqling bilan ko‘r—ko‘z aldaydi.

Chiroying borida chinoringni top.
Sukut alomati rizo.
Qirqiga chidagan qirq biriga ham chidar.
Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi.
Olisdagi palovdan yaqindagi sho‘rva yaxshi.
Folchiga ishonma, suvga suyanma.
O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.
Elakka bormish ayolning ellik og‘iz gapi bor.
Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi.
Bedana tezotar bo‘lsa, o‘z boshini o‘zi yoradi.
Bir qishning bir yozi bo‘ladi, qarg‘aning qag‘illagani qoladi.
Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘.
Et bilan tirnoqni ayirib bo‘lmaydi.
O‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa, qirqta bo‘lsa qilig‘i.
Yomon xotinning o‘yi ko‘p, poraxo‘rning go‘yi ko‘p.
Eshik ko‘rganni olma, beshik ko‘rganni ol.
Po‘lat pichoq qinsiz qolmaydi.
Qarsak ikki qo‘ldan chiqadi.
Teshik munchoq erda qolmaydi.
Sabr qilsang, g‘o‘radan holva bitadi.
Sabrning tagi oltin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, asarda qo‘llangan barqaror birikmalar asar badiiyatini oshiradi, tinglovchiga ta’sirli etishini ta’minlaydi. O‘z navbatida, o‘quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi va tarbiyalashga xizmat qiladi.

3.2. Badiiy matnda marosim va urf-odatlar bilan bog‘liq dialektizmlarning berilishi

Etnografizmlar dialektlar bilan ham uzviy va chambarchas bog‘liqlikka ega. Etnografizmlar etnolingvistika sohasiga shevalar esa dialektologiyaga

oid terminlar bo'lsa-da, yaxlit bir yo'nalishda o'rganilishi bilan o'zaro yaqin aloqaga ega. Qolaversa, yurtimizda etnolingvistika yo'nalishi rivojlangunga qadar etnografizmlar dialektologik tadqiqotlar doirasida o'rganilgan. N. Mirzayev va Y. Bobojonov kabi olimlarning ilmiy ishlarini misol keltirish mumkin. Ammo keyingi yillarda M. Qaxxorova, R. Qasimova kabi tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda etnografizmlarni yangicha yondashuvda o'rganilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Bizning fikrimizcha etnografizm, dialekt, dialektal etnografizm, etnografik dialektizm, etnografik leksika, adabiy etnografizm kabi terminlarning chegarasini va qo'llanish doirasini belgilash vaqti keldi. R. Qasimovanning fikricha, "etnografik dialektizm ma'lum bir hududda yashovchi kishilargagina tushunarli bo'lgan shevadagi etnografik lug'aviy birlikdir. Bunday lug'aviy birliklarni dialektizmlar bilan aralashtirib yubormaslik zarur. Har qanday dialektizm etnografizm bo'lavermaydi. Etnografizmlar dialektizmlar tarkibida o'rganiladi, biroq etnografizm tarkibiga barcha dialektizmlarni ham kiritib bo'lmaydi²¹⁰. Olimaning fikriga qo'shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, dialektal etnografizm bilan etnografik dialektizm terminlari bir-biri bilan uzviy bog'liq termin hisoblanadi. Chunki umumadabiy tilda etnografik dialektizmdan tashqari adabiy tilda mavjud etnografizmlar ham mavjud. Masalan, **ko'pkari**, **o'tov**, **chimildiq**, **chilla**, **nikoh to'yi** leksemalari hamma uchun tushunarli va umumadabiy etnografizm hisoblanadi. **Qorauy** (o'tov), **baharjurt** (chorvadorlarning bahor va yoz oylarida ma'lum bir hududlarga ko'chib yashashi), **darveshona** (bahorgi ekinlar oldidan o'tkaziladigan diniy marosim), **dikdika** (ot anjomi), **qo'noq** (mehmon), tuvcha (ikki yoshli urg'ochi echki), **boshniyoz** (farzandning biror ulug' inson nomi bilan ataluvchi ziyoratgoh yaqinida tug'ilishi), **jalama** (taom nomi), **aytilg'an mol**, **kirnasuv** kabi etnografizmlar (Surxondaryo) dialektal etnografizmlar sanaladi. Ayrim dialektal etnografizmlar keng qo'llanishi va faollashishi natijasida umumadabiy etnografizmlardan joy olishi mumkin. Mavzumiz bo'yicha yondashadigan bo'lsak, Tog'ay Murod asarlarida etnografizmlar anchagina

²¹⁰ . Qahhorova M. O'zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi. –Toshkent, 2009. – B. 43.

mavjud. Masalan, *Bola girga qarab qochib, qo'lga tushdi. Bu orada boshqa bolalar girga to'plandi. Endi qo'lga tushgan bola girga qoldi. Bolalarni izladi. Bu, yashinmahoq o'yini bo'ldi*²¹¹. Bolalar o'yini orqali etnografizmga misol bo'la oladi. Yana misol tariqasida echki-sigirni sog'ish jarayonidagi ayollarning aytgan qo'shig'ini keltirish mumkin:

Turtkilasam iyasan, churiya-chur-ey,

Bir kadi sut berasan, churiya-chur-ey,

Yashirib qolgan sutingni, churiya-chur-ey,

*Qay bir kimga berasan, churiya-chur-ey*²¹². Yozuvchi asarlarida shu yurtning mehnatkashlari qanday mashg'ulot bilan band ekanligini ko'rsatuvchi urf-odatlar ham mavjud: *Xirmonchi chollar Bo'riga galagov*²¹³ haydattirmadi. *Avvalambor, xo'kizlar Bo'riga o'rganmog'i lozim bo'ladi. Bo'lmasa, begonasiraydi, yurmaydi*²¹⁴.

O'zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo'yi o'zbek millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy aloqalari va an'analarning uyg'unlashuvidagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o'ta o'ziga xos, yorqin va turli-tuman bo'lib, urug'chilik munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarning ko'pchiligi oilaviy hayotga oid bo'lib, bolaning tug'ilishi va tarbiyasi (beshik to'yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to'yi, to'y) bilan bog'liq bo'ladi.

O'zbek nikoh to'yi marosimida nikohdan so'nggi bosqich, asosan, turli-tuman urf-odat va irim-sirimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda kelin va kuyov sha'niga qaratilgan alqovchi aytimlar, **oyna ko'rsatar, soch siypatar, it irillar, kampir o'ldi** va hokazo singari qator urf-odatlar amalga oshirilganki, ulardan aksariyati yozuvchi Tog'ay Murodning qissa va romanlarida ham badiiy tasvirlangan.

²¹¹ Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 122.

²¹² Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 126.

²¹³ Ho'kizlarni matab xirmon yanchish

²¹⁴ Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 166.

It g'irillatar,

Kampir o'ldi,

Soch siypatar,

Qo'l ushlatar bo'ldi.

Oyna ko'rsatar baridan-da zavqli bo'ldi, baridan-da gashtli bo'ldi!

Kayvoni ayol kelin-kuyovga oyna tutdi.

Kelin-kuyov yuzlarini oynadan olib qochdi. Kelin qarasa kuyov qaramadi, kuyov qarasa, kelin qaramadi!

Kayvoni ayol kelin-kuyov boshini yonma-yon ushladi. Yuzlarini oynaga qaratib turdi.

Bir-birlari bilan aytishmaganlariga-da qo'ymadi!

Kuyov kelin aksi bilan, kelin kuyov aksi bilan pichirlashib aytishdi:

— *Bizni voyaga etkazmish ota-onamizga ming bor qulluqlar bo'lsin.*

— *Akamiz bilan yangamizga undan-da ko'p.*

— *Bir-birimizga o'la-o'lgunimizcha sodiq bo'laylik.*

— *Undan keyin-da shunday bo'laylik.*

— *O'g'il-qizlarimiz...*

— *Bir etak bo'lsin! Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar"²¹⁵.*

Nikohdan so'ng kelin-kuyovga atalgan o'tovda ular uchun chimildiq tutilgan. Chimildiq kelin-kuyov uchun yangicha hayot, oilaviy turmushga kirib borish eshigi hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida chimildiq: "Nikoh to'yining birinchi kechasi kuyov bilan kelinning boshqalardan xoli o'tirishi va tunashi uchun uy burchagiga tortilgan oq chodir" deb izohlangan bo'lsa, taniqli o'zbek folklorshunosi A.Musaqulov "Chimildiq – kelin-kuyovni magik himoya qilish, ularning baxtli, serfarzand bo'lishi uchun yasalgan ritual buyum", – deya ta'kidlaydi. Darhaqiqat, kelinkuyovga chimildiq tortish jarayoni o'ziga xos irim-sirimlar bilan ritual tarzda kechadi. Bu jarayonda qatnashayotgan yangalarning bir nikohli, uvali-juvali ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi. Odatda, befarzand

²¹⁵ Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 508.

yoki nikohi buzilgan, beva ayollarga chimildiq tortish uchun ruxsat etilmaydi. Ularning boshiga tushgan ko'rgulik bu yosh oilaning boshiga tushishidan irim qilinadi.

Umuman aytganda, xalqimiz orasida chimildiq bilan bog'liq qator urf-odatlar, e'tiqodiy qarashlar va irimlar shakllangan. Chimildiqqa, odatda, birinchi bo'lib kuyov, keyin kelin kiritilgan. Ammo bunda kuyovnavkarlar kuyovni chimildiqqa kirgizmoqchi bo'lib turganlarida, bir necha xotinlar "kampir o'ldi" rasmini qilishgan. "**Kampir o'ldi**" marosimi nikoh to'yining bir qismi hisoblanadi. Bu marosim ba'zi joylarda kelinning uyida, ayrim hududlarda kelin kuyovnikiga olib kelingandan keyin amalga oshirilgan.

Ko'rinadiki, "**kampir o'ldi**" udumidan so'ng "**it irillar**" degan rasm amalga oshirilgan. Bunga ko'ra, bir necha ayollar itga o'xshab irillab, kuyovning chimildiqqa kirishiga ruxsat qilishmagan. It holatiga kirib kuyovning oldini to'sishgan. Kuyov ularga nimadir hadya bergach, xotinlar uning chimildiqqa kirishiga qarshilik ko'rsatishmagan. Bunda it himoyachi ruh ramzini ifoda etgan. It obrazi qadimgi turkiylar mifologiyasida muhim o'rin tutadi. Hatto u totem sifatida qaraladi. Qadimgi kishilarning e'tiqodiga ko'ra, it narigi dunyo – o'liklar mulkiga kirish eshiginig qo'riqchisi emish. «Avesto» miflarida esa muqaddas it o'lgan kishilarning ruhi narigi dunyoga o'tadigan «Chinvat ko'prigi»ning posboni sifatida talqin etilgan. J.Yusupovning ko'rsatishicha, o'tmishda biror kishi jon berayotgan bo'lsa, uning to'shagi yoniga itni olib kelganlar. Bu odat «sagdid», «it nazari» deb yuritilgan. Shuning uchun qadimda o'lganlarning jasadi maxsus boqilgan itlarga em qilingan. Yoki Strabon sug'diylar va baqtriyaliklarning udumlari haqida yozar ekan, ularning qarigan kishini o'lmasa ham tirik holda itlarga berganlari haqida ma'lumot beradi. Qadimgi odamlar go'yo shu yo'l bilan marhumlar ruhini narigi dunyoga o'tkazib yuborganlar. Bunga qadimgi insonlarning totemistik ishonch-e'tiqodlari, ya'ni o'lgan kishi ruhining totem hayvonga ko'chib, qayta tirilishi haqidagi tushunchalari asos bo'lgan. Qadimgi qabrlardan it bosh suyagi topilgan. Ossuariylarga it tasviri solingan. Skiflar tirik itni o'lgan egasiga qo'shib dafn etganlar. It bu dunyoda ham, u dunyoda ham o'z

egasining tinchini ta'minlaydigan qo'riqchi sifatida talqin etilgan. Demak, "**it irillatar**" odati orqali qiz-yigitning ruhi kelinlik va kuyovlik olamiga ko'chirilishi ko'zda tutiladi.

Yozuvchi Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida Oymomoga uylangan Qoplonbekning chimildiqqa kirishdan oldin bir qator udumlarga duch kelgani tasvirlangan. Chunki bu udumlar xalqimiz turmush tarziga xos bo'lib, hanuzgacha saqlanib kelayotir. Ularning qissa syujetida aks ettirilishi orqali esa asar voqealarining hayotiyliigi va ishonarliligi ta'minlangan. Masalan, **sovchilik** bir yigitni bir qizga yaxshi niyat bilan so'rab kelish urf-odati hisoblanadi. To'y marosimlarining debochasi bu sovchilikdir. O'g'il voyaga etganda ota-onasi unga mos keladigan qizni izlay boshlaydilar. Bu jarayonga yaqin qarindoshlari, qo'shnilari, oshnalari ham kirishadi. Qizni topgandan keyin yigitning xolalari yoki ammalari qizning uyiga uni ko'rish, ota-onalari bilan va ehtimoliy kelinning uydagi ahvoli bilan tanishish uchun biror bahona bilan kiradilar. Shundan so'ng qo'shnilari va tanishlari tanlangan qizning oilasi haqida surishtiradi. Ijobiy javob olingan holda uyga sovchilar yuboriladi. Sovchi ikki xonadonga qarindoshlik aloqalarini bog'lashga da'vat etilgan shaxs hisoblanadi.

"Sovchilar qadami qizlik eshikka sharaf!

Sovchilar oqshom vaqti keldi.

Uy bekasi dasturxon yoydi. Xo'jasi mezbonlik qildi.

— Xush ko'rdik, xush ko'rdik, — dedi.

— Xushvaqt bo'l, qassob, xushvaqt bo'l, — dedi sovchilar. — Qani, ilohi omin, shu uyda katta-katta to'ylar bo'lsin, olloh-akbar!

— Olloh-akbar! Aytganingiz kelsin!

Palovdan keyin tarvuz so'yildi.

Sovchilar odatlari bo'yicha u yoq-bu yoqdan gapirishib o'tirdi.

Eson qassobni haminqadar eladi. Keyin, maqsadga o'tdi.

— Singlingning boshiga baxt qushi qo'nib turibdi, qassob, uchirib yubormasang bo'ldi, — dedi.

— Aslini bilmay, so'z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar, — dedi qassob.

— *Kim ekan, u?*” Tog‘ay Murodning “*Oydinda yurgan odamlar*”²¹⁶.

Non sindirish. Sovchilar o‘zining kelish maqsadini bayon etganlaridan keyin «non sindirish» marosimi boshlanadi. Shu paytdan boshlab yoshlar bir-biri bilan bog‘langan, fotiha qilingan deb hisoblanadi.

“Yanga bo‘lmish og‘ayni-jamoa qoshiga bordi. Oymomo sukutini aytdi.

Sovchilar dasturxonga o‘ralmish nonni o‘rtaga qo‘ydi.

Qalin aytish boshlandi.

— *Xo‘-o‘sh...*

— *Elga qarab ayting-da.*

— *Xo‘-o‘p...*

— *Bo‘ldi-e, hech kim qiz uzatib boyigan emas.*

— *O‘nta qo‘y... shularga rozimisizlar?*

— *Qani, ilohi omin, ikki yosh qo‘sha qarisin, olloh-akbar!*

Yangasi qiz onasi o‘rnida fotiha o‘qidi.

Non sindirildi.

Sovchilar ohorli belqars o‘rab ketdi”. Tog‘ay Murodning “*Oydinda yurgan odamlar*” 500-bet²¹⁷.

Fotiha to‘yi nikoh tuziladigan va to‘y o‘tkaziladigan kunni tayinlash bilan tugaydi. Sovchilardan har biriga ikkita-ikkita non, shirinliklar bo‘lgan dasturxon beriladi, shuningdek qiz tomonidan yigitga va uning ota-onalariga sovg‘alar berib yuboriladi. Sovchilar kuyovning uyiga qaytganidan keyin ularning qo‘lidan sovg‘alar qo‘yilgan patnislarni olib, “**sarpo ko‘rar**” marosimini boshlaydilar. Dasturxon odatda ko‘p bolali ona tomonidan ochiladi. Buning ma‘nosi bo‘lajak yosh oilaning kelini ham shu onaxondek uvali-juvali bo‘lib ketsin, deganidir. Barcha yig‘ilganlar kelinning uyidan keltirilgan pishiriqlar, shirinliklardan bahramand bo‘ladilar. Fotiha to‘yidan boshlab va to to‘yning o‘zigacha yoshlarning ota-onalari qalin, sep masalalarini va to‘y tantanasi bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etadilar. To‘ydan bir necha kun avval qiznikida “**qiz**

²¹⁶ Tog‘ay Murod. *Oydinda yurgan odamlar*. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 499.

²¹⁷ Tog‘ay Murod. *Oydinda yurgan odamlar*. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 500.

oshi” marosimi o‘tkaziladi, unga qiz o‘zining yaqinlari va o‘rtoqlarini taklif etadi. Qadimda bu bazm qizlarning eng yaxshi ko‘rgan, marosimi bo‘lgan.

“Kuyov tarafdin fotiha to‘y keldi.

Fotih to‘yida qo‘y, zig‘ir moy, guruch, mayiz... bo‘ldi.

Kelin-kuyovlik davri boshlandi. Kuyov, kelin qarindosh-urug‘lari oldidan erga qarab o‘tdi. Ko‘zlariga tik qaramadi. Davralarda yuzma-yuz o‘tirmadi. Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” 501-bet²¹⁸.

“Oy o‘tdi. Kelinnikiga ko‘rpa-to‘shak matolari bilan paxta keldi... Bu, to‘qqiz deb ataladi”. Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” 501-bet²¹⁹. Bu udum xalq orasida “to‘qqiz tovoq” deb yuritiladi.

“Nikoh o‘qilish mobaynida onasi kuyov elkasiga beqasam chopon yopdi.

Beqasam elkasidan igna bilan ip o‘tkazib-ip o‘tkazib oldi.

Bu, kuyov-qayliq hamisha birikib yursin, ajralib ketmasin, degani bo‘ldi.

Kelin-kuyov taqdir-peshonasi tugilmasin, deya shunday qildi.

Hamisha bug‘doyday serob bo‘lsin, bola-chaqali bo‘lsin deya, kuyov boshi uzra bir hovuch bug‘doy seydi.” Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan

odamlar”502-bet²²⁰. Nikoh marosimi an‘anaviy tarzda o‘zbeklarning hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi va ayniqsa tantanali nishonlanadi.

Umumiy xususiyatlari bo‘la turib, u turli viloyatlarda o‘zgacha tusda bayram

qilinadi. *“Kuyov qaylig‘iga hayitlik yubordi, qayliq kuyoviga hayitlik yubordi.*

Qoplon kuyov tarafdin bir farangi ro‘mol, bir juft kavush, uzuk hamda turli-tuman qand-qurs keldi. Oymomo qayliq tarafdin ko‘ylak, jelak, belqars hamda qo‘lro‘mol hayitlik keldi.

Bari qayliq qo‘lidan bo‘ldi. Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar”503-bet²²¹.

“Kechasi qayliq o‘yinida bo‘ldi.

Qayliqdan qoyilligini yashirmadi.

²¹⁸ Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 501.

²¹⁹ Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 501.

²²⁰ Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 502.

²²¹ Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 503.

— *Yuragingga balli-e! — dedi. — Aeroplundayin uchding-a! Senga qarab, mening boshim aylanib ketdi!*

— *Uchib qolayin, bir-ikki oydan keyin uchish qayoqda...*” Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” 504-bet²²²

Folklorshunos D.O‘raevaning qayd etishicha: “Bizning odatimizga ko‘ra, nikoh to‘yida uzatilayotgan qizning yig‘lamasligi el ichida uyat sanaladi. Hatto u sevgan kishisiga o‘z xohishi bilan tegayotgan, to‘y yaqin qarindoshlarining roziligi bilan bo‘layotgan bo‘lsa-da, baribir, yig‘lashi shart hisoblanadi. Sababi, turkiy xalqlar orasida “yig‘i jon ato etadi” degan ibtidoiy tushuncha mavjud bo‘lgan. Shu vajdan hozirgacha qizlik ruhiyati o‘layotgan bir lahzada qizlarning yig‘i qilishi ularning ayollik ruhiyati bilan qayta tirilishi uchun zarur hisoblanadi va bu hol ma‘lum bir hayot bosqichida o‘ziga xos marosim-ritual tarzida shakllangan”.

“Kelin uzatildi.

Kelin yig‘i boshladi:

— *Uvv-uvvv-uvvv...*

Yig‘ini o‘z uyi — o‘lan to‘shagini tark etajagidan, xesh-aqrabolaridan olislab ketajagidan desak-da bo‘ladi.

Mo‘lt-mo‘lt qarab turmish, sel-sebora yig‘lab turmush jiyanlari ko‘ngli uchun desak-da bo‘ladi. Yo, akasi bilan yangasi bizdan qutulish uchun zormanda ekan, demasin degan andishada yig‘laydimi? Shunday desak-da bo‘ladi.

Yo, kuyovi uyiga borajagi quvonchidan, xushvaqtligidan yig‘laydimi? Ayniqsa, shunday desak bo‘ladi! Jiyan belidan qo‘shqo‘llab quchoqlab olmish kelin eshitar-eshitilmas yig‘lab bordi:

— *Uvvv-uvvv-uvvv...*

Saman terib-terib qadamladi: tik-tik tik... Hovlilarda itlar hurdi.

Chap taraf chorbog‘dan loviyaqovun isi keldi. To‘ylovchilar chorbog‘ tarafga

²²² Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 504.

qaradi. To‘yib-to‘yib iskadi.” Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar”506-bet²²³.

Kelin yo‘liga **baqan solish, arqon tortish** kabilar ham azaliy odatlarimizdan biridir. Bu kelinni uzatib kelayotganda kelin sepidan ulush (sovg‘a-salom) olish uchun yo‘lini to‘shish odatidir. Aslida bu odat orqali tushirib kelinayotgan kelinchakning qizlik olami (bir olam) chegarasidan ayollik olami (o‘zga olam) chegarasiga o‘tayotgani bildiriladi.

“Ko‘prikda soyalar qora berdi. Ikkita bo‘zbola ko‘prikda tayog‘ tutib turdi.

Tayoqni olmasdan ko‘prikdan o‘tib bo‘lmadi.

Bo‘zbolalar kelin tarafdin talab qildi:

— Kuyov... beringlar!

Kelin taraf sukut saqladi.

Bo‘zbolalar o‘z so‘zida turdi:

— Unda, yo‘l yo‘q.

Ot etaklovchi qo‘ynidan kelin tikmish ro‘mollardan oldi. Bo‘zbolalarga birovdan berdi. Tayoq olindi, kelin yo‘li ochildi.” Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar”508-bet²²⁴

Barcha yig‘ilib, kelinni ko‘rishga shoshiladi. Bir nechalar tomga chiqib qaraydi. Elu xalqqa bu ovoza bo‘ladi. Hamma qarindoshlar yig‘ilib kela boshlaydi. Shunday qilib, xursandchilik, diydorlashuv, o‘yin-kulgi boshlanib ketadi.

Bob bo‘yicha xulosa

Har bir xalqning boshqa xalqlardan ajralib turuvchi muhim etnografik belgilaridan biri uning marosimlari hisoblanadi. O‘zbek xalqining qadimiy-madaniy merosi, urf-odatlar va an‘ana marosimlari bizga etib kelayotgan yodgorliklarga emas, balki barcha ma‘naviy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql-idroki va tafakkurining buyuk yutug‘i ham hisoblanadi. Tug‘ilish nikoh va o‘lim bilan bog‘liq marosimlar – bu ayniki tafakkurga yo‘naltirilgan, balki

²²³ Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 506.

²²⁴ Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sharq, 2019. – B. 508.

hissiyot va ruh bilan bog‘liq muhim bosqichlardan iborat bo‘lib, ularning ko‘plari kelib chiqishi asoslariga ko‘ra qadimiy e‘tiqodlar va diniy qarashlarga borib taqaladi. Boshqacha tarzda aytadigan bo‘lsak, urf-odat va marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy xarakterlarga ega bo‘lgan hayotiy tadbirdir.

UMUMIY XULOSALAR

Adabiy tilimizning ichki boyish manbayi shevalarimiz hisoblanadi. O‘zbek adabiy tili o‘zbek xalq shevalaridan o‘ziga kuch oladi, chunki sheva va lahjalar bo‘lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo‘lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo‘lmasa, har qanday adabiy til o‘lik til hisoblanadi. Shuning uchun sheva va lahjalar har qanday adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish poydevoridir.

Albatta, dialektal lug‘at tuzish uchun shevalardan maxsus yig‘ilgan va yangi-yangi sheva so‘zlarini topib, ulardan lug‘atlar tayyorlashga asos bo‘ladigan manba- dialektal materiallar kerak. Yozuvchilarning badiiy asarlari ham mana shunday materiallar sirasiga kiradi. Ayniqsa yozuvchi Tog‘ay Murod asarlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Tog‘ay Murodning nasridagi ixchamlik-bu yozuvchining o‘ziga xos usuli bo‘lib, u tasvirda juda ko‘p so‘z ketadigan holatni xalqona bir ibora bilan berib, tasviri tasavvurga yo‘l ochuvchi yozuvchi bo‘la oldi. Uning so‘zlari baxshiyona so‘zlar, kuylovchi so‘zlar. Ruhiyati keng, ma‘nosi bepoyon so‘zlar...

Tog‘ay Murod tuzgan jumlar, aytgan fikrlarining katta qismi hikmat bo‘lib tavallud topadi. Mashg‘ulotlari ma‘rifatgo‘ylik. Ular Tog‘ay Murod maqollari.

Bilmadim, balki tajriba sifatida o‘zini oqlar, balki urinish deb baholanar, u so‘zlar yaratdi. Va XX asr o‘zbek adabiyotida bunchalik bo‘rtib ko‘zga tashlanmas lisoniy o‘zgarishlar qildi. Aksariyati kitobxonni zavqlantiradi, e‘tiborini tortadi. Quruq tilda yozishga o‘rganganlarning g‘ashini keltiradi...

“Yulduzlar mangu yonadi” qissasining boshida bir atama keladi: “to‘y xo‘jasi”. Buni boshqa nom bilan ham atasa bo‘ladimi? Mumkinday. Matn mazmuniga hech qanaqa putur etmaydi. Ammo bu atama asar ruhi uchun zarur. Millatning asl e‘tiqodini eslatish uchun kerak. U ellik yildan buyon oq kaltak, qora kaltak qilingan “xo‘ja” so‘zini olib kirib, odamning fitriy idealiga e‘tiborni qaratadi. Tog‘ay Murodning ishlatgan aksariyat rangdor, serma‘no so‘zlari ana

shu bosh ma'no uchun xizmat qiladi. Insonning o'zligini esga soladi. Dunyoga nega kelganligini bildirib qo'yadi.

Xuddi shunday uning asarlari orqali qalbgga o'rnashgan "it yiqilish", "qoni tortdi", "obtova", "chig'ana", "g'ujmoqi bug'doy", "hangi", "chayla", "xalacho'p", "gardkam", "choriq", "cho'nqayma", "uchchoga", "ayolboz", "erkakzot", "chaldevorxon", "mocha", "juhudi atlas", "dilbuzar", "uzangi yo'ldoshlar" kabi minglab tilimizda bor, lekin juda kam ishlatiladigan bo'lib qolgan so'zlarni yana ona tilimizga qaytarganga o'xshaydi.

Holbuki, «O'zbek tilining izohli lug'ati»ga kirmagan necha minglab so'zlarimiz yo'qolib boryapti, iste'moldan chiqib, unutilib ketyapti. Nega ularni asrab qolmayapmiz? Nega boshqa millatlarda allaqachon shakllangan, o'tmishda o'zimizda ham bo'lgan lug'atlar tuzmaymiz? Axir, endi hech kim bunga monelik qilolmaydi-ku. Tilimizning bor kuchi, so'zlari yig'ilib, kitoblarga muhrlab qo'yilsa, bundan faqat yutamiz. Axir har bir so'zda, har bir millatning faqat uning o'ziga xos ruhiy jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti yashaydi.

Tog'ay Murod asarlarining o'zi bir lug'at. Uni to'plab, sharhlab, chuqur izohlab nashr qilinsa, ko'pgina unutilgan so'zlarimiz yoxud vo'ha va vodiylarimizdagina ishlatilib, mahalliy bo'lib qolayozgan so'zlarimiz adabiy tilimiz xazinasini boyitib, tilimizning kuchiga kuch qo'shadi. Yana bir jiddiy omil — adib yasagan yangi so'zlar tilimiz tarovatiga yot, husniga dog', talaffuziga beo'xshov ajnabiy so'zlar o'rniga tushib, bu og'riqni muolaja qilishi turgan gap. Mana, ayrimlari (Lug'at tarzida keltirdik, keyingisi Tog'ay Murodniki).

Kerosin — er moyi; Shamol to'suvchi — elpana; Shampun — sochsovun; Doska — bitik taxta; Seyalka — urug' sepgich; Lab bo'yoq — lolab va hokazo.

Mutolaada yod bo'lib qolgan ayrim ifodalardan: (o'yladi emas) xayollandi, qamchi (ko'tardi emas) havolatdi, (sho'xlik qilmoq emas) sho'xlashmoq, (qaylig'inikiga bordi emas) — qayliqlab bordi kabi bu gaplarning kesimi o'zgarganiga guvoh bo'lamiz. Fazilatli tomoni harakat — obrazli tasavvurga, tashbehga aylangan, so'z lo'ndalashgan. Yangi shaklda yangi ma'no shunday — Tog'ay Murod nasrida tug'iladi.

Hatto Tog‘ay Murod matnda ko‘pincha –ga qo‘shimchasini tushirib qoldiradi. Bu boshda o‘rinsizday tuyuladi. Kishini duduqlantiradi. Nega bunday yo‘l tutdi ekan? Asl qandaydir qonunni adib tiklamoqchi bo‘lgan? Men buning nimaligiga aqlim etmadi. Faqat shaxs o‘y-fikri, qahramonlar xatti-harakatini til bilan emas, dil bilan, qalb bilan o‘qishga odatlandim... Kitob o‘qiyotib qochgan, o‘zi bilan o‘zi gohi andarmon bo‘lib qoladigan xayolim hushyorlashdi. Bunaqa matn tuzish esa o‘zbek nasrida uchramagan adabiy hodisa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 486 b.
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 592 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.
4. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 22-oktyabr kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.

Ilmiy adabiyotlar

5. Shomaqsudov A. va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1983, 9-bet.
6. BSEf 41.. 3-bet
7. O‘zbek tili stilistikasi masalalari. Ilmiy asarlar to‘plami. Toshkent. Toshkent davlat universiteti 1975-yil 44-bet
8. Gort. YA .. «Riioiogicneskiye roziskaniya», 1899,'srr. 74-75
9. Yaziki narodov, 1om 2. Tyurkiskkiye yaziki- - Moskva: 1966. str. 14-15
10. O‘qish kitobi. Eski o‘zbek yozuvi namunalari, - Toshkent; O‘z Davlat o‘quv-pedagogik nashriyoti, 1960, 6~bet
11. Abdirahmanov H. Maxmurov N .So‘z estetikasi,-T “Fan”, 1981,B-5-26
12. Vinogradov. B. B Izbranniy trudi.M.1975
13. Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 11).
14. Ashirboyev S.O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016.
15. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. –Toshkent, Fan, 1979. –B.152.

16. Алиев А. Наманган диалекти материалларини тўпловчилар учун шевалари анкета. -Наманган, 1964. Алиев А. Ю., Назаров К. Н. Ўзбек тилининг маҳаллий бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. Тошкент, 1976. Назаров К., Ғуломов Ж.А. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент, Университет, 1993. –Б.23.

17. Ashirboyev S., Xidraliyeva Z. R. O‘zbek dialektologiyasi ta’limi: Yangilanish tamoyillari (xorij tajribasini milliyashtirish) // Pedagogika. 2017, 1-son. –В.109-114.

18. Tolib Enazarov Dialektologiya metodologiyasi /Monografiya /– Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020, 152 b.

19. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Тошкент: Фан, 1973. –Б. 83.

20. Беленский В. Г. Литературные мечтания. ПСС, т.1. –Москва: Изд-во АН, 1953. -Стр.44.

21. Назиржонова Ф. Миртемир шеърятда диалектизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. –№1. –Б. 82-84;

22. Файзуллаев Б. Диалектизмлар ва уларнинг бадиий адабиётдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. –№4. – Б. 34-38;

23. Йўлдошев Б. Саид Аҳмад асарларида диалектизмларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. –Самарқанд, 1979. –Б. 29-34;

24. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Тошкент: Фан, 1982. –Б. 53-57.

25. Охунов Н. Ғафур Ғулом асарларида диалектизм ва эскирган сўзларнинг қўлланилиши // Тил ва адабиёт таълими. –Тошкент, 2003. –№4. –Б. 37-40 ва бошқ.

26. Qo‘chqortoyev I A Qahorning frazeologizimlardan foydalanish mahorati NDA,T

27. Djayeva L Qodiriyning O‘tkan kunlar romoninining lingvistik talqini NDAT 2007

28. Yoʻldoshev M Badiiy matning lingvopoetik tadqiqi. DDA-T, 2009
29. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли, 80 000 дан ортиқ сўз А. Мадвалиев таҳрири остида Ташкент «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашрижāti 2006.
30. Ўзбек тили лексикологияси, 1981: [247.]
31. “Оʻzbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metadologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari 2021-yil 22-may
32. Normamatov S. E. Oʻzbek lugʻatchiligining shakllanishi va rivojlanişida jadid maʼrifatparvarlarining oʻrni. 10.00.01 – Oʻzbek tili. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toškent, 2019. –B.19-21.
33. Rustamov A. Soʻz xususida soʻz. Extremum press. – Toshkent: 2020. –B.94.
34. Абдуллаев Ф. А. Диалектал луғат тузиш принциплари // ЎТА. – Тошкент: 1966.2-сон. –Б.35-41.
35. Ишаев А. Шевалар луғатига киритиладиган сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. 2-сон. –Б.37-42.
36. Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? –Т.: 1972..
37. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари.– Т.: Фан, 1982.
38. Hasanov Abdumannon Majidovich Dialektlar – til leksikasini boyitish manbayi “Oʻzbek tilini dunyo miqyosida keng targʻib qilish boʻyicha hamkorlik istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2020-yil 19-20-oktabr
39. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. –Т.: 1960.
40. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили.-Тошкент, «Университет», 2006, 45-бет.
41. Muhabbat Kurbanova, Maʼrufjon Yoʻldoshev Matn tilshunosligi Toshkent “Universitet” 2014

42. Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи.- Самарқанд, НД, 2003.38-бет
43. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2007 yil. 60-bet
44. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y. 203-b.
45. Fayzullayev B Badiiy adabiyotda dialektizmlarning stilistik vazifalari. Tilshunoslik masalalari. “Fan”, Toshkent, 1978, 212-bet.
46. Ibrohimova F. Omon Matjon poeziyasida dialektizmlar. Xorazm shevalarini areal o‘rganish. Toshkent, 1988,32 –39-betlar
47. Fayzullayev B. “Oltin vodiyan shabadalar” romanida dialektizmlar. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1975,3,62–65-betlar
48. Носиров Ш. Шевага оид сўзлар ҳақида // Тил ва адабиёт таълими. №2, 1996, 58 бет.
49. Yo‘ldoshev M.Cho‘lpon so‘zining turlari.T.Ma’naviyat.2002.B.29.
50. Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent. 2005. 143-bet.
51. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –Toshkent: “Universitet”. 2006. 89-bet.
52. Yo‘ldoshev B. O‘zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari, - Samarqand SamDU nashri, 2002. --- 37 b.
53. O‘zbek xalq maqollari.T-2005.B-3
54. Qahhorova M. O‘zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi. – Toshkent. 2009.

Badiiy adabiyotlar

55. Tog‘ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar” Tog'ay Murod Toshkent. “ Sharq” nashriyoti. 2019
56. Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar” “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent – 1994-yil
57. Tog‘ay Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”. –Toshkent: Ziyo nashr. 2020

58. Togʻay Murod (“Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi”) Toshkent Ziyonashr 2020-yil.

59. Togʻay Murod (“Ot kishnagan oqshom”) Toshkent Ziyonashr 2020-yil.

60. Togʻay Murod (“Momo er qoʻshigʻi”) Toshkent Ziyonashr 2020-yil.

Internet manbalari

www.literature.uz

www.ziyouz.com \

www.ziyonet.uz

www.e-adabiyot.com

www.adabiyot mazaralari

Yozuvchi Tog‘ay Murod asarlarida dialektal birliklar lug‘ati

Morfologik dialektizmlar				
t/r	Dialektal birlik	Adabiy shakl	Izoh	Misol
1	Olmish.	Olgan	Felning o‘tgan zamon sifatdosh shakli	<i>Tom ustida yonboshlab olmish Nabi oqsoqol to‘yxonadagi voqealardan ko‘z-quloq bo‘ldi, tegishli yo‘l-yo‘riqlar berdi. Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»</i>
2	Shuyakan	Shu ekan	Ko‘rsatish olmoshi va to‘liqsiz fe‘l	<i>Ha, shuyakan! Ashurboy, qo‘ylarni ushlab, og‘ilxonaga qamang! Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»</i>
3	Uchovora	Uchala	Jamlovchi son shakli	<i>Uchovora bir toboq bo‘ldi. Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»</i>
4	Mehmonlarda	Mehmonlar ham	Yuklamaning o‘rin almashinishi	<i>Xiyol o‘tmadi, mehmonlarda keldi. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>
5	Eb-ey	Hoy	Taajjub ma‘nosidagi undov so‘z	<i>— Eb-ey, nimalar deyapsiz, rais bova? — dedi Hotam polvon. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>
6	Momoqizda	Momoqiz ham	Yuklama	<i>Boisi, Momoqizda Bo‘riga qarayotgan edi! Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>
7	Xo‘jasoati	Xo‘jasoatlik	O‘rin-joyga mansublik shakli	<i>Xaloyiq, manavi tik jelak kiygan xo‘jasoati Tilovberdi polvon! Tog‘ay Murod</i>

				“Yulduzlar mangu yonadi”
8	Yeb olsin,	Yeb oling	Buyruq-istak mayli va shaxs-son	Avval ovqatini eb olsin , keyin cho‘miladi, — dedi. «Momo Yer qo‘shig‘i» Tog‘ay Murod
9	Farg‘onachi	Farg‘onalik	O‘rin-joyga mansublik shakli	Men farg‘onachi Jamoliddin ketmon nabirasi bo‘laman. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
10	Berman.	Bu yoqqa	Ravish so‘z turkumi	— O‘-o‘, domla, berman haydang! — deydi. Direktorimiz shlyapali odamga qaraydi-qaraydi — taniyolmaydi. Taniyolmasa-da, shlyapali odam taraf yuradi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
11	Ertaminan	Erta bilan	Ravish + ko‘makchi	— Ertaminan g‘ayrat qilaman, — deya so‘z beraman. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)

Leksik dialektizmlar

t/r	Dialektal birlik	O‘TIL	Izoh	Misol
1	Baycha	—	Boyvuchcha leksemasining qisqargan ayollarni erkalash shakli. Xon, oy, gul	— Mingoy baycha , ayollarga peshvoz chiqib, qo‘llaridan dasturxonni oling! Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»

2	Qur	[O‘TIL, V, — B. 379]	Davra, davra o‘rtasidagi joy, maydon	<i>Xizmatkorlar qur bo‘lib o‘tirib sabzi to‘g‘radi. Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»</i>
3	Gird	[O‘TIL, I, —B. 505]	Aylana shakldagi narsaning cheti. Atrof, tevarak; chegara	<i>Bir qiz olov girdida barmoqlarini qirsillatib-qirsillatib, changqovuz nag‘malariga xirom etdi. Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»</i>
4	Qisirpoya	—	Ekin ekilmagan maydon, dala	<i>To‘yxona kunchiqaridagi qisirpoyada bolalar ikki taraf bo‘ldi. Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»</i>
5	Adoq	[O‘TIL, I — B. 41]	Tugash joyi, nihoyasi	<i>Adog‘roqdagi to‘da chiroqlar — To‘xtamish, Chuqurobshir, Chinor, Lo‘kka, Zardaql, Bodavo deya atalmish Vaxshivorning qishloqlari bo‘ldi. Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»</i>
6	Qo'shxona	[O‘TIL, V, —B. 422]	Xizmatkorlar, qo‘shiqchilar uchun turarjoy	<i>— Qo‘shxonalarga bor-da, mehmonlarga xabar ber! Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»</i>
7	Zuvillamoq	[O‘TIL, II, —B. 163]	Tez harakat qilmoq, juda tez chopmoq	<i>Chop, zuvillab borib, zuvillab kel! Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>
8	Olam-jahon	—	Ko‘p, ancha	<i>Olam-jahon odam bo‘ldi. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>

9	Chil	—	Kurashda raqibni yiqitish uchun ishlatiladigan usul	Avaylab chil berdi. <i>Tog'ay Murod</i> “Yulduzlar mangu yonadi”
10	Chinachog	—	Qo'l barmoqlarining eng kichigi	— <i>Ukkag'ar Hotam polvon-e! Sizga o'xshaganlarni manavi chinachog'im bilan yiqitaman, ha! Tog'ay Murod</i> “Yulduzlar mangu yonadi”
11	Do'rjiroq	—	Yaxshiroq, kattaroq, ko'proq	Do'rjiroq zot qo'ying, kelbatidan ikkoviya katta polvonga o'xshayapti! <i>Tog'ay Murod</i> “Yulduzlar mangu yonadi”
12	Serka	[O'TIL, III, —B. 486]	Bichilgan erkak echki, axta taka	<i>Adir ustida shoxdor serka ko'rindi. Yo'lboshchi serka qomatini g'oz tutdi. Tog'ay Murod</i> “Yulduzlar mangu yonadi”
13	Ko'ganladi	—	Bog'lamoq, qamamoq	<i>Bo'ring onasi qo'y-echkilarni ko'ganladi. Tog'ay Murod</i> “Yulduzlar mangu yonadi”
14	Ulpi- tomirlar	—	Yaqin kishilar, qavmi-qarindoshlar	<i>O'tovda ulpi-tomirlar, hamsoya-qo'llar jam bo'ldi. Tog'ay Murod</i> “Yulduzlar mangu yonadi”
15	Gartdak	—	Oz, kam miqdor	<i>Bo'ri qiyofni qizlarga gartdak-gartdakdan berdi; Tog'ay Murod</i> “Yulduzlar mangu yonadi”
16	Hundi.	—	Tushunmaydigan, anglamaydigan	— <i>Bo'ri, o'lay agar, hundisan, hundi! — dedi. — Ichimdagini top, deb bezrayib tura berasan! Tog'ay Murod</i>

				“Yulduzlar mangu yonadi”
17	Galagov	[O‘TIL, I, —B. 478]	Xirmon yanchish jarayoni	<i>Xirmonchi chollar Bo‘riga galagov haydattirmadi. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>
18	Lo‘pchik	[O‘TIL, II, —B. 515]	Uchiga paxta o‘ralgan cho‘p; latta yoki paxta o‘rab kerosin shimdirib mash‘ala sifatida ishlatiladgan narsa	<i>Yerga suqig‘lik odam bo‘yi temir uchida lo‘pchik lov-lov yonib turdi. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>
19	Muztar bo‘lmoq	[O‘TIL, II, —B. 631]	Iztirobli, noqulay holatga tushmoq	<i>Nasim polvon muztar bo‘lib qoldi. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>
20	Angg‘ib yurmoq	—	Poylamoq, kuzatmoq	<i>Xuddi shu vaziyatni ikki oydan buyon angg‘ib yurmish. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>
21	Tersayma	[O‘TIL, III, —B. 77]	Xafa bo‘lib nimadir yoqmay qovoq solmoq, tumraymoq	<i>Polvon bo‘lsang halol yiqit! Ko‘p tersayma! «Yulduzlar mangu yonadi» Tog‘ay Murod</i>
22	Arbadi	—	Aldadi, chalg‘itdi	<i>Polvonlar bir-birini ruhan arbadi! «Yulduzlar mangu yonadi» Tog‘ay Murod</i>
23	Burnog‘i	[O‘TIL, I, —B. 380]	O‘tgan yil (kun, oy, hafta)dan oldingi	<i>Oshna, to‘ylarimda, betob bo‘lib qolganlarimda seni ko‘p yodladim. Ayniqsa, burnog‘i yili ko‘p qo‘msadim. “Yulduzlar mangu yonadi” Tog‘ay Murod</i>
24	Halak bo‘lmoq	[O‘TIL, V, —B. 491]	O‘lim, o‘lish, vafot qilish, halok bo‘lish; holdan toygan, azobli holatda	<i>Sen bo‘lsang, kelmading. Mabodo kelsang, halak bo‘larding: baribir gap qo‘shmas edim!</i>

				“Yulduzlar mangu yonadi” <i>Tog'ay Murod</i>
25	Oracha qildi	—	Ajratmoq, ayirmoq	<i>Enag 'arni bir qamchi ostiga olayin! Onasi oracha qildi.</i> «Momo Yer qo'shig'i» <i>Tog'ay Murod</i>
26	Hadahalamoq	[O'TIL, V, —B. 472]	Tezlik bilan, tezda, darrov	<i>Askar hadahalab kiyindi. Otilib bordi. Uyquli ko'zlarini uqaladi.</i> «Momo Yer qo'shig'i» <i>Tog'ay Murod</i>
27	Ser soldi	—	Nazar tashlamoq, qaramoq, boqmoq	<i>Bir mahal uyg'ondi. Tevarakka ser soldi.</i> «Momo Yer qo'shig'i» <i>Tog'ay Murod</i>
28	Asfalnishin bo'lmoq	—	Bo'ynini egdi, boshini egdi, ta'zimda bo'lmoq	<i>Serjant Orziqulov asfalnishin bo'ldi.</i> <i>Ko'li ko'ksida bo'ldi.</i> «Momo Yer qo'shig'i» <i>Tog'ay Murod</i>
29	Bebilchak	[O'TIL, I, —B. 202]	Oyoq yuzining do'ng joyi	<i>Daho yonboshlamish ko'yi otasi chap oyog'i panjalariga qaradi, bebilchagiga qaradi, tovoniga qaradi...</i> «Momo Yer qo'shig'i» <i>Tog'ay Murod</i>
30	Bo'yinsa	—	O'rtoq do'st, sinfdosh, qadrdon	<i>Avtobusda bolalikdan billa o'smish Sadir bo'yinsasi bo'ldi. Ana shu bo'yinsasi joyidan lik etib turdi.</i> «Momo Yer qo'shig'i» <i>Tog'ay Murod</i>
31	Jish bo'lmoq	—	Mayda, kichkina	<i>Polaponlar hali jish bo'ldi!</i> «Momo Yer qo'shig'i» <i>Tog'ay Murod</i>

32	Pajmurda bo‘lmoq	—	O‘lik holga kelmoq, rangsiz bo‘lmoq	<i>Yuzlari pajmurda bo‘ldi. «Momo Yer qo‘shig‘i» Tog‘ay Murod</i>
33	Vayish	[O‘TIL, I, —B. 435]	Ishkom	<i>Bobosi va nevarasi qo‘l ushlab tok vayishi ostiga boradilar. “Bobosi bilan nevarasi” Tog‘ay Murod</i>
34	Zinkiyib	—	Tez chopmoq	<i>Burnoch bilan Saman quloqlarini quyon quloqlari misol chimirib chopdi, zinkiyib chopdi. Uloq oralarida shalvirab bordi. «Ot kishnagan oqshom» Tog‘ay Murod</i>
35	Chemakdosh	—	Yaqin kishi, do‘st, o‘rtoq	<i>Chavandozlar chemakdoshi urushdan qaytmagan bo‘zbola misol mung‘ayib qoldi.»Ot kishnagan oqshom» Tog‘ay Murod</i>
36	Hamzamat	—	Tezda kelmoq, hozir kelmoq	<i>— U kishi ishdalar. Kirib o‘tirib turing, hamzamat kelib qoladilar, — dedi zaifa. “Ot kishnagan oqshom” Tog‘ay Murod</i>
37	Nopayid bo‘lmoq	—	Nobud bo‘lmoq, o‘lmoq	<i>Makiyon, nopayid bo‘lmish bolasi azasini tutdi. Oymomo makiyon izidan bordi. Katakka qarab-qarab keldi. “Oydinda yurgan odamlar” Tog‘ay Murod</i>
38	Qantarmoq	[O‘TIL, V, —B. 241]	Yem-xashakka etolmaydigan qilib, arqonni kalta bog‘lamoq	<i>Otliq otini darvoza ustuniga qantardi. “Oydinda yurgan odamlar” Tog‘ay Murod</i>

39	<i>G'anak</i>	—	Ipak qurtining ipakni o'rashdan hosil bo'lgan narsa	<i>To'r quyuqlashib-quyuqlashib, boshmaldoqday-boshmaldoqday g'anak hosil bo'ldi. "Oydinda yurgan odamlar"</i> <i>Tog'ay Murod</i>
40	Elovramoq	[O'TIL, V, —B. 34]	Alahsirammoq	<i>Qabatida yotmish otamiz-da uyg'ondi. — Nima balo, elovrayapsanmi? — dedi. "Oydinda yurgan odamlar"</i> <i>Tog'ay Murod</i>
41	Xo'shlashmoq	[O'TIL, IV, —B. 438]	Xayrlashmoq	<i>Onamiz otamiz bilan xo'shlashdi. — Mayli, xush borsin-xush kelsin, — dedi. "Oydinda yurgan odamlar"</i> <i>Tog'ay Murod</i>
42	Sidirg'a	—	Jim, xotirjam, tartibli bo'lmoq	— <i>O'chir, bozori kasod! Sidirg'a o'tir, bozori kasod, sidirg'a o'tir! Bola ingillamay qoldi. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi"</i> <i>Tog'ay Murod</i>
43	Enka-tenkasi	[O'TIL, V, —B. 40]	Tinkasini quritmoq	<i>Onani enka-tenkasi quridi. Entikib-entikib na-fas oldi. O'zini o'ngladi. . "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi"</i> <i>Tog'ay Murod</i>
44	<i>Anaglundan</i>	—	Biror bir hayajonli voqea-hodisa	<i>Anaglundan keyin Botir firqa o'zini... odam his etdi. O'zini erkin his etdi. Odamga o'xshab nafas oldi. . "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi"</i> <i>Tog'ay Murod</i>

45	Manqalanmoq.	[O‘TIL, II, —B. 540]	Dimog‘ida gapirmoq, ping‘illab gapirmoq	— <i>Endi, o‘rtoq Rashidov... Men obkomga yakinda keldim, — deya manqalandi. — Hali- hozircha, oblastni yaxshi o‘rganganim yo‘q. Shu sababli, hamma ishni kelgan joyidan davom ettirib turibman. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” Tog‘ay Murod</i>
46	Kullan	—	Zararli, xatarli	<i>Ammo-lekin hayot uchun kullan ziyon avlod bo‘ldi. Xalq uchun xayf-xatar avlod bo‘ldi. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” Tog‘ay Murod</i>
47	Binoyi qilasiz	—	Yaxshi qilmoq, zo‘r qilmoq	<i>Uyoq-buyoqni aylanib, oyog‘imni yoyib kelay. — Binoyi qilasiz, rais bova, binoyi qilasiz. Ko‘ngilni chigili yoziladi-da. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” Tog‘ay Murod</i>
48	Go‘ng	[O‘TIL, I, —B. 531]	Uy hayvonlari va parrandalar axlati	<i>Go‘ng sepib, erni to‘ydirolmaydi. Sababi, intellektuallarda hayotiy aql bo‘lmaydi! “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” Tog‘ay Murod</i>
49	Illa	[O‘TIL, II, —B. 194]	Arang, zo‘rg‘a	<i>Molimiz illa bir kadi sut beradi — shuni-da men ichib olsam, bolalar nimani ichadi? Men sut o‘rnida yaxday suv ichib oldim.</i>

				(Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
50	O‘tog‘a	[O‘TIL, V, —B. 184]	Ma‘lum to‘da yoki guruh ichida boshqalarga gapi o‘tadigan, obro‘li kishi, to‘da etakchisi, sardor	<i>Tuman qishloq xo‘jalik boshqarmasi boshlig‘i o‘tog‘amiz bo‘ldi. O‘tog‘a bizni bosh-adoq qarab ko‘rdi. Bir-bir qarab ko‘rdi. — Bo‘ladi! — deya bosh irg‘adi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
51	Cher	[O‘TIL, IV, —B. 435]	Alam, qayg‘u, dog‘	<i>— Sizni Toshkanga uch kunlik ko‘rikka jo‘nataman, Dehqonqul aka, —dedi raisimiz. — Bir ko‘ngilni cherini yoyib kelasiz. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
52	Gunogun	[O‘TIL, I, —B. 525]	Xilma-xil, rangorang	<i>G‘o‘zalarim gunogun-gunogun gulladi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
53	Korson	[O‘TIL, II, —B. 409]	Yog‘och yoki sopoldan ishlangan tovoq	<i>Dasturxonda bir korson taom bo‘ldi. Taom usti non bilan yopig‘lik bo‘ldi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
54	Gulligich	—	Xonqizi	<i>Dalalarimga xonqizi degich hasharot aylandi. Biz surxonilar xonqizini gulligich deymiz. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
55	Satil	[O‘TIL, III, —B. 459]	Paqir, kovush	<i>Ayolimiz eshik-orada donlamish tovuqlarni qarg‘ab-qarg‘ab haydadi. Ayolimiz</i>

				<i>satilni er darangdurunglatib tashladi. Ayolimiz choynakni dasturxon do‘q-do‘qillatib qo‘ydi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
56	Jo‘ra	[O‘TIL,II,— B. 118]	Bir kiyimli ikki bo‘lakdan iborat ipakli mol (beqasam, atlas, shoyi)	— <i>Bir jo‘rasi qanchadan ekan?</i> — <i>Bir jo‘ra atlas ikki yuz so‘m ekan.</i> — <i>Uh-o‘o‘...(Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
57	Ulapa	—	Erishgan natija, nasiba	— <i>Ha, paxtalarining qiyomat ketsin-a, paxtalarining qiyomatgina ketsin-a! Men paxta deb nima bo‘ldim? Bir belangi bo‘ldim! Ulapam o‘ttiz so‘m pensiya bo‘ldi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
58	Irgama-irga	—	Yonma-yon	<i>Men Zulayho bilan irgama-irga egat tushaman. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
59	Moyak	—	Tovuq yoki boshqa parrandaning tuxumi	<i>Men onamiz berib yubormish bo‘xchani olib qarayman: bo‘xchada ikkita ko‘rpacha bo‘ladi. Ikkita non bo‘ladi. Mayiz bo‘ladi, to‘rtta moyak bo‘ladi. Men moyaklarni archib-archib eb olaman. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>

60	Shovur	[O‘TIL, V, —B. 588]	Tovush, ovoz	<i>Qizillar apil-tapil bug‘doyzor miltiq buradi. Ammo otamiz yo‘qlamish Dehqonqul... bosmachidan shovur bo‘lmaydi.</i> (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
61	Bolish	[O‘TIL, I, —B. 308]	yostiq	Bolish yonboshlab ich tortadi. Ship tikilib uh tortadi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
62	<i>Iyarmoq</i>	—	Ergashmoq	<i>Ketidan ushoq o‘g‘lonlari iyaradi.</i> (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
63	<i>Olaqaroq</i>	[O‘TIL, III, —B. 108]	Yakkam-dukkam, chala, siyrak; ot va mollarda bo‘ladigan bir turli miya kasalligi	<i>El Oqpodsho qarorgohilab kelgunichayin olaqaroq tun bo‘ladi.</i> (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
64	<i>Kadi</i>	[O‘TIL, II, —B. 291]	Qovoq, oshqovoq; ularning po‘stloq qismidan tayyorlangan idish	<i>Elga kadida qatiq tutadi. «Ap-ap-ap», deydi. «Qatiqdan ichib ketinglar, qatiqdan», demoqchi bo‘ladi.</i> (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
65	Elamadi	[O‘TIL, V, —B. 29]	E‘tibor bermaslik, nazar-pisant qilmaslik	<i>Sanitar... gapni elamadi. Gapni korlamadi. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” Tog‘ay Murod</i>
66	<i>Olachalpoq</i>	[O‘TIL, III, —B. 107]	Daraxt barglari oralab tushgan parcha-parcha	<i>Tok osti so‘ri olachalpoq ko‘laga bo‘ldi. “Bu dunyoda</i>

			oftob; oydin yoki ko'lanka	<i>o'lib bo'lmaydi" Tog'ay Murod</i>
67	<i>Jingirtob.</i>	[O'TIL, I, —B. 91]	Jazirama oftobda yoki o'tda obdon qizigan, qaragan, qayishgan, qovjiragan	<i>Saraton jingirtob-jingirtob kuydirmish bir mahal yo'ldan ajabtovur ovozlari eshitiladi. (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar")</i>
68	<i>To'rkaladi</i>	—	Turmoq, joyidan qo'zg'almoq	<i>Bobomiz ohista-ohista to'rkaladi. Ketmonini elka oladi. So'qmoq bo'ylab boradi. (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar")</i>
69	<i>Ko'laga</i>	[O'TIL, II, —B. 453]	Soya, ko'lanka	<i>Tok osti so'ri olachalpoq ko'laga bo'ldi. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" Tog'ay Murod</i>

Fonetik dialektizmlar

tʻr	Dialektal birlik	Adabiy shakl	Izoh	Misol
1	Undaychikin	Unday	Tovush ortishi (epenteza)	— <i>Undaychikin nahs raisni erparchin qilaman! — dedi. «Yulduzlar mangu yonadi» Tog'ay Murod</i>
2	Ul	O'g'il	Shevaga xos tarzda talaffuz etilmoqda	— <i>Abraymi? Nasim polvonning uli bo'ladi. Yaqinda armiyadan keldi. "Yulduzlar mangu yonadi" Tog'ay Murod</i>
3	Chalg'ayib	Chalqayib	Tovush almashinishi	<i>Chavandozlar o'z taraflariga chalg'ayib, tortishib bordi. Tevaragida o'nlab qo'llar uloqqa uzaldi, ammo etolmadi. «Ot kishnagan oqshom» Tog'ay Murod</i>

4	O'lmak	O'lmoq	Tovush almashinishi	— O'lmak , o'lmakni ishi ko'mmak, deydilar. — O'rtoq Lenin esa, etmish yil... etmish yildan buyon... ko'milmaydi! “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi” Tog'ay Murod
5	Bova	Bobo	Tovush almashinishi	— Uyamas-dabuyamas, el-yurtni sho'ri quridi, rais bova . “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi” Tog'ay Murod
6	Ila-bila	Illo-billo	Tovush almashinishi va tovush tushishi; Aslo, hech; sira, xudo haqqi [O'TIL, II, —B. 194]	Xalq holdan toyib, Toshkanni mudofaa qilolmay qolibdi. Oqposhsho saharlayin Toshkanni bosibdi. — Ila-bila , Qo'qongacha kelibdimi-a? (Tog'ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
7	Kelgunichayin	Kelgunicha	Tovush ortishi	<i>El Oqpodsho qarorgohilab kelgunichayin olaqaroq tun bo'ladi.</i> (Tog'ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
8	To'pon	To'fon	Tovush almashinishi	<i>Masjid qop-qora to'pon bo'ladi.</i> (Tog'ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
9	O'zbek	O'zbek	Tovush almashinishi	— Ana, ol, o'zbek , — deydi Qurbon. — <i>Qoraqirg'izda dala bo'lmaydi.</i> (Tog'ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
10	Dushanba	Dushanbe	Tovush almashinishi	<i>Bobomiz Oqpodsho yo'q yurt izlab yuradi-</i>

				<i>yuradi — Dushanba keladi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
11	Qoboq	Qovoq	Tovush almashinishi	<i>— Ayting, Sho‘ro qanday odam, ayting! — deyman. Otamiz qoboq uyub ichkarilaydi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
12	Jigit	Yigit	Tovush almashinishi	<i>— Bir o‘zim qayoqda — o‘nta jigit. O‘zimizdan Rashid bor. Boshqalari boshqa qishloqdan. Hali tag‘in ko‘payamiz. Tevarak qishloqlardan jigitlar kelib qo‘shilayapti. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
13	Maylis	Majlis	Tovush almashinishi	<i>Direktorimiz barchamizni ulkan sinfxonaga soladi. — Maylis bo‘ladi! — deydi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
14	Santim	Santimetr	Tovush tushishi	<i>Qirq santimdan chuquri havo ko‘rmagan er bo‘ladi. Suv ko‘rmagan er bo‘ladi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
15	Zaril	Zarur	Tovush almashinishi (dissimilyatsiya)	<i>— Yo‘q bo‘lsa nima qilayin? Mol zarilmi, paxta zarilmi? — Paxta zaril! (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
16	Choch	Soch	Tovush almashinishi	<i>Shonalar o‘z-o‘zidan qurib-qovjiradi.</i>

				<i>Shonalar o‘z-o‘zidan to‘kilib-chochildi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
17	Qanikayin	Qani	Tovush ortishi	— <i>O‘zi, nima bo‘ldi, ayting qanikayin?</i> — <i>Ochiq mozor bo‘ldi, ochiq lahad bo‘ldi!</i> (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)
Frazeologik dialektizmlar				
t\r	Frazeologik dialekt	Adabiy tildagi muqobili	Izohi	Misol
1	Qora bermoq	Ko‘rinish bermoq	Odamlarning uzoqdan ko‘rinishi	<i>Mehmonlar ko‘cha boshida qora berishi bilanoq, Nabi oqsoqol ovoz berdi:</i> — <i>Kelinglar, mehmonlar, kela beringlar! — dedi. Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi»</i>
2	It yiqilish	Yomon tushmoq	Noto‘g‘ri, halol emas	— <i>Bekor, it yiqilish bo‘ldi. Boshqatdan olishinglar! — dedi davra. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>
3	Mom qilmoq	loy qiymoq, er bilan bitta qilmoq	Gapira olmaslik	<i>O‘tgan yili kelganda Sariosiyoni mom qilib edi. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”</i>
4	Xudodan no‘xtasini yulgan	Xudodan qaytgan, xudo urgan	Olloh buyurgan amallarni bajarmaslik	— <i>U-ku bir qasami, xudodan no‘xtasini yulgan... Nasim polvon muztar bo‘lib qoldi.</i>

				<i>Tog'ay Murod</i> “Yulduzlar mangu yonadi”
5	Urilib ketmoq	Ishdan ketmoq	Mansab, kasb-kordan judo bo‘lish	<i>Mirob otiga qamchi bosdi. Rais urilib ketdi. «Yulduzlar mangu yonadi» Tog'ay Murod</i>
6	Gap qo‘shmaslik	Lom-mim demaslik, og‘ziga qatiq ivitish, og‘ziga osh damlash, og‘ziga talqon solmoq	Gapirmaslik, hech narsa demaslik	<i>Halak bo‘larding. Sen bo‘lsang, kelmading. Mabodo kelsang, halak bo‘larding: baribir gap qo‘shmas edim! “Yulduzlar mangu yonadi” Tog'ay Murod</i>
7	Ot qo‘ymoq	Yoqasidan olmoq	Dag‘dag‘a, jahl qilmoqlik	<i>Bechora choli hali eshitmadi. Eshitsa, ot qo‘yib keladi. «Momo Yer qo‘shig‘i» Tog'ay Murod</i>
8	Iti bilmoq	Gapning poyiga etmaslik	Anglamlaslik, tushunishga urinmaslik yoki farosati etmaslik	— <i>Bular nima deyapti, o‘rtoq Rajabov?</i> — <i>Itim biladimi, nima deyapti! “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” Tog'ay Murod</i>
9	Quloq qoqmoq	Nomozga turmoq	Nomozga o‘qish holati	<i>Cho‘lpon yulduz poyida quloq qoqadi. Cho‘lpon yulduz poyida sajda etadi. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>
10	Baloi bad bo‘lmoq	Tog‘ni talqon qilmoq	Katta, ulkan bahaybat	<i>Bobomizda nima bo‘ladi — ketmon bo‘ladi. Ketmon emas — bir baloi bad bo‘ladi! (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”)</i>

11	Olam bexabar bo'lmoq	Yetti uxlab tushiga kirmaslik	Biror voqeadan bexabar bo'lish	<i>Bobomiz ana shunday ishonch bilan ketmon chopadi. Bobomiz olam bexabar bo'ladi. (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar")</i>
12	It azob bo'lmoq	Joni halqumiga kelmoq	Qiyin, mushkul	<i>Besh santim chuqurni yorib chiqish chigit uchun it azob bo'ladi! Shu bois, men to'rt santim chuqurlikda chigit ekdim. (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar")</i>
13	It egasini tanimaslik	Ko'zini shira bosmoq (semantik moslik)	Bir-birini mensimaslik	<i>Ayolimiz ajablanmish bo'ldi. — Ha, vaqtli qaytibdi? — dedi. — Ko'p o'tirmadim, — dedim. — Kattalar mast-alast. It egasini tanimaydi... (Tog'ay Murod. "Otamdan qolgan dalalar")</i>

2-ilova

Yozuvchi Tog'ay Murod asarlarida so'z yasalishi

t\r	Neologizm	Adabiy tildagi ko'rinishi	Izoh	Misol
1	Yermoyi	Kerosin	Yoqish uchun ishlatiladigan narsa	<i>Bir bola lo'pchikka ermoyi sepib turdi. Tog'ay Murod "Yulduzlar mangu yonadi"</i>
2	Sochsovun	Shampun	Soch yuvish vositasi	<i>Sochlari orasi qichigandan-qichidi. Sochsovun olmoqchi bo'ldi. «Momo Yer</i>

				<i>qo'shig'i» Tog'ay Murod Sochlari orasi qichigandan-qichidi. Sochsovun olmoqchi bo'ldi. «Momo Yer qo'shig'i» Tog'ay Murod</i>
3	Hushyorxona	Ichki ishlar bo'limi	Ichki ishlar xodimlari ishlaydigan joy	<i>Daho ulug' shoirni hushyorxona joylashmish ko'chaga solib yubordi. O'n besh kunlikka tushadi, deya umid qildi. «Momo Yer qo'shig'i» Tog'ay Murod</i>
4	Temir naycha	Truba	Suv yoki boshqa narsalarni etkazishda foydalaniladigan narsa	<i>Talab qilardim! Ko'chaga toshyo'l olib kelardim, temir naycha bilan jo'mrak olib kelardim! «Momo Yer qo'shig'i» Tog'ay Murod</i>
5	Podayotoq	—	Mollar turadigan joy	<i>Daho qishloq etagida tosh qalab o'ralmish podayotoqqa keldi. «Momo Yer qo'shig'i» Tog'ay Murod</i>
6	Bemorxona	Shifoxona	Odamlar davolanadigan joy	<i>Shu vaqt, mashina ovozi eshitildi. Katta ko'chadan bemorxona mashinasi keldi. “Ot kishnagan oqshom” Tog'ay Murod</i>
7	Oyoqyoydi	—	Oyoqning chigalini yoyish	<i>Botir firqa oyoqyoydi uchun tashqariladi. Xiyobonga yo'l oldi. “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi” Tog'ay Murod</i>

